

Muassislar:
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi**

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:
**Sirojiddin SAYYID
Minhojiddin MIRZO
Nodir JONUZOQ
G'ayrat MAJID
O'razboy ABDURAHMONOV
Farrux JABBOROV**

Jamoatchilik kengashi:
**Alisher SA'DULLAYEV
Iqbol MIRZO
Murodilla ESHMATOV
Muhammad ALI
Rustam NOSIROV
Rustam QOBILOV
Ahmad OTABOYEV
Shuhrat SIROJIDDINOV**

Bosh muharrir:
Faxriddin HAYIT

Bosh muharrir o'rinbosari:
Nurilla ChORI

Mas'ul kotib:
Sa'dullo QURONOV

Mas'ul muharrir:
G'iyosiddin O'NAROV

Adabiy muharrir:
Husan MAQSUD

Muharrir:
Dilnoza RUSTAMOVA

Manziligimiz:
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi.

Indeks 100066
E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz
Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz
Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: D. Rustamova
Bosishga 29.10.2019-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz formati: 60x84 1/8
Nashriyot hisob tobog'i: 8,7
Indeks – 822.

ISSN 0207-9137. Jurnal 2007-yil 4-mayda
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0253 raqami
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"Yoshlik" dan olindi" deb izohlanishi shart.

"SILVER STAR PRINT" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma № 50. Adadi: 1250
Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
22-mavze, 17-uy.

MUNDARIJA

E'TIROF

3 Abdurauf Zokirov
Tilga do'st, el-yurtga do'st

NASR

6 Orziqul Ergash
Yaxshi odamlar yoxud
ijod dardi

MOZIYGA QAYTIB

21 Naim Karimov
Turkistonlik talabalarning taqdiri
tafsilotlari

NAZM

32 Ozoda Bekmurodova
Yuksalib ketaman yonish
chog'ida...

NEVARAKULChA

50 Orif To'xtash
Men qadrimni topganman,
O'zbeklar o'lkasida...

SABOQ

34 Ilhom faqat ish vaqtida keladi

SO'ZOYNAK

35 Nazar Eshonqul
Adabiyot – millat ko'nglidir



Muqovada:
Hasan PAYDO
olgan surat






37



52



60



8

18

38 BIRINCHI UCHRASHUV
Alisher Boymurodov
Tuyg'ularni soldim qiynoqqa...

39 Shahzod Shomansurov
Kungaboqar

54 Sherzod Ortiqov
To'rtinchi qavatdagi xonadon

58 Feruza Xayrullayeva
Qush tilida so'zlar ko'zlarim...

59 Shahnoza Eshmirzayeva
Ko'nglim bilan o'ynaysan xo'p...

64 Naima Anvarova
Sal qoldi "Qizil kitob"
Bag'riga olishiga

46 TADQIQOT
Dilmurod Quronov
"O'tgan kunlar" da xon va xonlik haqida

FIKR
52 Endi shunchaki yozishga haqqimiz yo'q

JAHON ADABIYOTI
60 Nataniel Gotorn
Soyabon ostida

TILGA DO'ST, EL-YURTGA DO'ST

Quyosh kumush tangalarini zamin uzra sochib yubordi-da, o'zi ko'kdan mahliyo bo'lib boqib qoldi. Kuzgi yaproqlar oltin misol tovlanib turgan bog'da bir ayol o'y surgancha, bir-bir qadam tashlab lbroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi tomon bormoqda. Bu manzarani chetdan kuzatarkanman, onam ko'z o'ngimda gavdalangandek bo'ldi. Yuragim hapriqib ketdi, negaki, onamni ko'rmaganimga talaygina fursat kechib ulgurandi.

Qoraqalpog'iston ajoyib maskan, yurtimizning so'lim go'shasi, ilgari bu manzilda bo'lmaganim uchunmi katta taassurot bilan qaytdim.

Qandaydir o'y bilan band ekanini anglab, u kishiga botinib biror so'z aytolmadim, ortidan ohista yurib, orqasiga qayrilib qarashini kutishga qaror qildim. Bu ayolning hayot yo'lini yoritish uchun uzoq yo'l bosib – azim Toshkentdan kelganman. Vazifa berilayotganda “Qoraqalpog'iston uzoq, ancha mashaqqat chekaman” – degan xayolga ham borgandim, to'g'ri, yo'l biroz horitdi, ammo bu yerga kelib, ajoyib Nukusni sayr qilarkanman, charchoqlar ham zumda g'oyib bo'ldi-qoldi. O'ylarim bilan band ekanman, ayol kishining menga qoraqalpoqcha murojaat qilganini eshitdim. Ayolga qaradim-u, hayron boqib qoldim. Bu o'sha, men hayotini yoritishim kerak bo'lgan qahramonim. Qiziq, menga bu ayolni o'zbek tilidan dars beradi deyishgandi, u bo'lsa qoraqalpoq tilida gapiryapti. Yo meni aldashganmikin-a!?

Yoniga yaqinlashib, salom bergandim, binoyidek o'zbekcha alik oldi, “kechirasiz, uka, menda biror yumushingiz bormi? Anchadan beri kuzatib kelyapsiz”. Yon-atrofga qarab oldim, menga qoraqalpoqcha gapirgan ayol boshqa bo'lsa kerak degan xayolga borib. Lekin bog'da ikkimizdan boshqa kishi yo'q edi.

– UZR, opa, menga Guljahon opa kerak edilar, men sizni o'sha kishi deb o'ylabman, – dedim xijolat bo'lib.

– Abdullayevami? – dedi ayol.

– Ha-ha, Guljahon Abdullayeva.

– Unda to'g'ri o'ylabsiz, menman o'sha Abdullayeva, faqat Guljahonmas, Guljan, – dedi ayol jilmayib. – Sim qoqqan jurnalist yigit siz ekan-siz-da-a?

Demak, adashmabman, yo'qsa telefon orqali gaplashganimiz haqida gapirmasdi. O'zbek tilida shu qadar tiniq so'zlayotganini ko'rib, sekingtona “o'zbekmisiz yo qoraqalpoq?”, deb so'radim opadan.

– Ikkalasiyam, – dedi kulib. Keyin qo'shimcha qildi. – Asl millatim qozoq, lekin o'zimni bemalol o'zbekman deb aytolaman, negaki, shu yurtda ulg'aydim, o'zbeklar bilan yonma-yon yashadim, qolaversa, eng asosiysi millatning yuragi sanalgan o'zbek tilida erkin gaplasha olaman, shu sababli mendan qoraqalpoqmisan yo o'zbekmi degan savolga doim ikkalasiyam deya javob berishdan hech cho'chimayman.

O'zbek tilida shu qadar chertib-chertib gapirgan qozoq ayolini ko'rib, o'zi o'zbek bo'lsa-da, jonajon tilini qadrlamayotgan kishilarning borligini eslab ko'nglim xira bo'ldi.

Guljan opa bilan bir chetdagi o'rindiqqa cho'kdik, lekin nima deb savol berishga o'ylanib qoldim – hayajonmi yo kutilmagan uchrashuvmi, biroz dovdirab qolganim. Oramizga sukunat cho'kdi. Sukunatni ayolning qayerliksiz, uka, degan savoli buzdi. Men surxondaryolikman, degandim, “Qardosh ekanmiz”, deya jilmaydi. Rostdan ham, biz tomonlarda qoraqalpoq va qozoq tiliga yaqin qipchoq lahjada gaplashishadi. O'zbek tilining urug'i shu qadar sochilib ketganki, har yerning iqlimiga xos tarzda unib, mevasi turfa ranglarda jilolanadi.

– Mendek oddiy bir odamning hayotini doston qilay deb, shuncha yo‘l bosib kelibsiz-da, uka, kam bo‘lmang, – dedi Guljan opa minnatdor ohangda.

Guljan opadan dastlab yoshlik davri haqida so‘zlab berishini so‘ragandim. Jaydaricha javob berib qo‘ya qoldi:

– Bolaligim eski Urganch tumanida chang kechib o‘tgan, qishloqda yashasangiz, onangizday ayolman, u kishidek ulg‘ayganman: yer chopganmiz, sigir soqqanmiz, paxta terganmiz.

Suhbatdoshimning kamtarligi meni o‘ziga mahliyo qilib qo‘ydi. Ilm deganlari shu bo‘lsa kerak, avval boshingni osmon qiladi-da, so‘ng tuproqdek xokisorga aylantiradi qo‘yadi.

Guljan opaning o‘zbek tiliga bu qadar latofat baxsh etayotganini ko‘rib, Toshkentda o‘qib, talabalik kezarida kursdoshlari bilan ko‘p muloqotda bo‘lgan-u o‘zbek tilini mukammallashtirgan degan xayolga borib, ta‘limni qaysi ilm yurtida olganini so‘radim. Bilsam, Qoraqalpog‘iston davlat universitetining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan ekan. Mana buni vatanparvarlik desa

Mana buni vatanparvarlik desa bo‘ladi, ba‘zi kishilar o‘zga tillarni o‘zlashtirib, o‘z ona tili bilan ishi bo‘lmay qolgan

bo‘ladi, ba‘zi kishilar o‘zga tillarni o‘zlashtirib, o‘z ona tili bilan ishi bo‘lmay qolgan bir davrda, o‘zbek tilini chuqur o‘rganib, mohiyatini anglab, uni yosh avlodga yetkazib berish, chin ma‘nodagi jaso-rat, yurtga bo‘lgan haqiqiy sadoqat ramzidir.

– Nega aynan o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishini tanlagansiz?

– O‘zligimni chuqurroq anglagim keldi, o‘zbek tili haqiqiy turkiy tildir, shu tilni bilgan odamgina Navoiyni

to‘liq anglashi mumkin, Navoiyni ang-lamaslik esa, o‘zlikni anglamaslikdan dalolatdir, – dedi hayratimni oshirib. O‘zimdanda uyulib ketdim, “men haqiqiy o‘zbek bo‘laturib, Navoiyni qanchalik bilaman? Nari borsa o‘nta g‘azalini yod olganman-u “Xamsa”sini cha-la-chulpa o‘qiganman. Oliy ma‘lumotli bo‘lib, darajam bu bo‘lsa, boshqalar-dan xafa bo‘lmasa ham bo‘ladi.

– Mana, o‘ttiz yildan buyon turli ilm dargohlarida yoshlarga o‘zbek tilidan saboq berar ekansiz, har bir harakatdan meva kutilishi hech kimga sir emas, o‘quvchilaringiz, siz kutgan natijalarga erishayaptimi?

– Juda to‘g‘ri aytdingiz, har bir ishda natija bo‘lmog‘i kerak, yo‘qsa, shunchaki ermakdan nariga o‘tmay qoladi. Mening kasbiy faoliyatim, mehnatim ham o‘z samarasini bermog‘da. 2016-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi boshqarmasi tomonidan akademik litsey va kasb-hunar kollej o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan uch bosqichli fan olimpiadasida o‘zbek tili fanidan S.Tursunbayeva 1-o‘rinni, 2016-2017 o‘quv yilida shogirdim M. Endirova 3-o‘rinni, 2017-2018 o‘quv yilida yana bir o‘quvchim Ulbosin Kudenova o‘zbek tili fanidan 1-o‘rinni, xuddi shu yili Nodira Artiqbayeva 1-o‘rinni egalladi. Bulardan tashqari ham bir nechta o‘quvchilarim oliy o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelishmoqda. Bu xizmatlarim hukumatimizning e‘tiboridan chetda qolmadi. Meni “O‘zbekiston Respublikasi o‘rta-maxsus kasb-hunar ta‘limi a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlashdi.

– Yaqinda “Do‘stlik” medali bilan taqdirlanibsiz, bunday darajaga erishish har kimgayam nasib qilavermaydi, muvaffaqiyatga erishishgacha bo‘lgan jarayon haqida gapirib bersangiz.

– Mehnat borki, rohatini bermay qo‘ymaydi, agar u sidqidildan bo‘lsagina. Men ham yillar davomida tinimsiz izlanishlarim tufayli, ma‘lum bir marraga erishdim, to‘g‘ri, bu yo‘lda





qiyinchiliklar, ba'zan menga nisbatan nohaqliklar bo'ldi, men esa ortga chekinishni or bilib, yo'limda davom etaverdim, bu harakatlrim, albatta, bekor ketmadi – yurtimiz uni sevuvchi bir qizini do'st tutib, "Do'stlik" medali bilan taqdirladi. Buning uchun, avvalambor, Yurtboshimizga tashakkurlar aytaman va menga ishonib, do'stlik qo'lini cho'zgan vatanimga, nasib etsa, hali uzoq yillar dastyor bo'laman degan niyatdaman.

Bir ayolning qilgan xizmatlarini o'z og'zidan eshitib turib, g'ayrat va jasoratiga qoyil qolib, bu diyordan hamon Barchinoy-u To'marislar yetishib chiqayotganiga amin bo'ldim.

O'qitish uslubingiz haqida gapirib bering deganimda, Guljan opa biroz o'ylab turdi-da, shunday dedi:

– O'ttiz yildan buyon turli dargohlarda, turfa-turfa o'quvchilarga ta'lim berdim, siz o'qitish uslubi haqida so'ratingiz, men sizga uslub yaratdim deb aytolmayman, ammo ustozlarimiz o'rgatib ketgan usullardan foydalanib, o'quvchilarning ongiga chuqurroq iz qoldirishga harakat qilib kelmoqdaman.

Bugungi kunda atoqli adibimiz, O'zbekiston Qahramoni va Qoraqalpog'istonning faxri lbroyim Yusupov nomiga atab qo'yilgan davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatida o'zbek tili va adabiyotidan dars berish bilan bir qatorda "Yosh tilshunos" to'garagini tashkil etganman. Bu to'garakni til o'rgatishning yaxshigina usuli deb o'ylayman.

Opani tinglab, so'zlarida qandaydir ijodkorlik nafosati borligini anglagandek bo'laman.

– So'zlaringizda qandaydir ijodkorlarga xos latofat bordek, menimcha, qalam ham tebratib tursangiz kerak.

– To'g'ri topdingiz, kasbim siznikidek jurnalist bo'lmasa-da (kuladi) maqola yozib turaman. Shu yilning bahorida "Qoraqalpog'iston tongi" gazetasida buyuk bobomiz Alisher Navoiyning 578-yiliga bag'ishlangan "Navoiy g'oyalari – umuminsoniy qadriyatlar" nomli maqolam chop etildi.

Guljan opaning tilimizning asoschilaridan biri bo'lgan hazrat Navoiyning ilm anhoridan qonib-qonib suv ichayotganini ko'rib, o'zimni suvsiz sahroda tentirab yurganimni takror-takror angladim.

– Guvohi bo'lib turibmanki, ikki tilda bermalol gaplashasiz, bu esa ikkita odam degan gap. Agar yoshlikka qaytib qolganingizda yana qanday tillarni o'rgangan bo'lar edingiz?

– Yoshlikka qaytsam, yana umrim davomida qilgan ishlarimni takrorlagan bo'lar edim, (xatolarim bundan mustasno) negaki, men orzu qilganimdek yashayapman, turmush o'rtog'im, bir o'g'lim-u ikki qizim davrasida, suygan kasbim bilan mashg'ulman. Til haqida gapiradigan bo'lsak, rus va nemis tillarini o'zim uchun o'rganib qo'yganman.

– Farzandlaringiz ham siz tutgan yo'ldan mamnunmi?

– Hozirda ikki qizim mening izimdan borib, o'zbek tili va adabiyotidan dars berib kelmoqda. O'g'lim esa talaba. Turmush o'rtog'im bilan bir kursda o'qiganmiz. Bir so'z bilan aytganda, biz oilaviy o'zbek tilini olamga yoyishga bel bog'laganmiz.

Tilga shunday jonkuyar insonlar, shunday fidoyi oilalar bor ekan, o'zbek tili hali million yillar barhayot ekaniga ishonchim ortdi. Safarim so'ngida bu fidokor ayolga yuksak muvaffaqiyatlar tilab, Toshkent tomon yo'l oldim. Kechgan fursat mobaynida bu diyor ahliga qanchalik bog'lanib qolganimni his etdim. Yoshlik davrimdan boshqa millat deb tasavvur qilib kelganim bu o'lka ahliidan ajralish negadir qiyindek kechdi, ko'ksimda bir vulqon turgandek bo'ldi, bu qardosh xalqqa bo'lgan mehr tuyg'usi bo'lsa kerak. Turfa o'ylar bilan vokzal tomon yurar ekanman, beixtiyor quyoshga yuzlandim, botib borayotgan shams olovga tushgan oltindek lovullardi, endi bu manzarani maftun bo'lgancha zamin tomosha qilardi.

Abdurauf ZOKIROV



Orziqul ERGASH

Yaxshi odamlar

yoxud IJOD DARDI

*Yo'l yamon-u yaxshisidan yema g'am,
Bismilloh, degil-u qo'yg'il qadam.*

Alisher NAVOIY

She'rga, adabiyotga qachon ishqim tushib, qachondan qog'oz tirnay boshlaganim yodimda yo'q. Lekin shunisi aniq esimdaki, shoirlik havasiga esh bo'lib Toshkentda o'qish "qarori" ham yuragimga qattiq o'rnashgan edi.

To'qqizinchi sinfdaligimda otamiz xastalanib qoldi. Oilada yetti o'g'il, to'ng'ichi menman. Kichigi ikki, oldi o'n ikki yashargacha bo'lgan ukalarim, kasalmand otam, yolg'izqo'l onamni tashlab, poytaxtga jo'nash insofdan emasdi. Ammo murg'aklikdan dilimga qattiq o'rnashgan o'jar istak aqlimga bo'ysunmaslikka undar, dam-badam g'alayon qo'z'gab turar, bu g'ala-

yonni arang bosib tinchitsam-da, ich-ichimdan o'ksinib yurardim.

O'ninchi sinf yarimlaganda dardimni qo'shni-miz – Samarqand davlat universiteti matematika fakultetida tahsil olayotgan Abbas akaga aytdim. U hech narsa demadi. Demadi-yu, ertasi kuni meni shaharga olib ketdi. Birgalikda universitetning filologiya fakulteti binosiga kirdik. Auditoriyalar, keng zallar, sport maydonchalarini ko'rsatdi. Talabalar bilan uchrashtirdi. Bu yerda kimlar o'qib, qanday odam bo'lib yetishgani, ayni choqda qanaqangi mashhur siymolar dars berayotganigacha gapirib berdi. Qisqasi, shoir bo'ladigan odam bu yerda ham astoydil o'qisa, maqsadiga erishishiga ishontirdi va o'z shahrimda qolib o'qishimga ko'ndirdi.

Maktabni tugallab, SamDUning o'zbek va tojik filologiyasi fakulteti kunduzgi bo'limiga hujjat topshirdim. Poytaxtdan boshqa joyda o'qishni xayoliga ham keltirmay, havolanib yurgan mallasoch g'or yigitcha o'qishga arang ilindi. Ilinganda ham sirtqi bo'limga... Gap shundaki, menga o'xshagan xiyol kamroq bal to'plaganlardan 30 nafarini (ko'zlari qiymaganidan bo'lsa kerak) sirtqi bo'limga qabul qilishdi. Xullas, 16 yoshimda universitetning sirtqi bo'lim talabasi-ga aylandim.

"Zarari yo'q, – dedim hamon otdan tushmay, – birinchi kursni tamomlab, kunduzgi bo'limga qayta ariza beraman. Kerak bo'lsa, imtihon ham topshiraman, lekin sirtqida qop ketmayman!.."

Bu ahdim birinchi kurs oxiriga yetmay chippakka chiqdi. Otam vafot qildi-yu, kunduzgi bo'lim havasidan voz kechdim. Endi ish topishim, onamning yoniga kirishim kerak edi.

Kolxoz raisi Rofe Hamroyev qabuliga kirdim. U kishi ota qadrdomim edi, niyatimdan quvondi. "O'g'lim, seni buxgalteriya kursiga yuboramiz. O'qib kelib, bag'rimizda ishlayverasan", dedi.

Ana xolos, mushtday boshim bilan shoir bo'laman, jurnalist bo'laman deb yurgan yerimda hammasini chetga surib qo'yib, buxgalterlik qilarmishman.

– Rais bobo, o'zimning o'qishim nima bo'ladi? – dedim hovliqib.

– O'qishing o'z yo'lida ketaveradi. Sessiya paytlaring ishdan ruxsat beramiz. Ham o'qib, ham dam olib kelasan, – dedi rais xotirjam qilib.

Boshqa ilojim ham yo'q edi. Rozi bo'ldim. 1970–71-o'quv yilida bir yo'la ikki joyda o'qidim. Universitetning uchinchi kursiga ko'chgan yilim kolxozda mehnat buxgalteri yordamchisi bo'lib ish boshladim. Asta-sekin ekonomist yordam-

chisi, keyin chorva buxgalteri bo'ldim. Bu orada universitet tahsili ham tugab, filolog-o'qituvchi degan diplom oldim. Endi istagan yerimda ishlashim, deb kredit hisob-kitoblaridan xalos bo'lishim mumkin edi. Ammo butun o'qishim davomida meni qo'llab, izzatlab, maosh berib turgan jamoani indamay tark etishim odobdan emasdi. Qolaversa, chorva buxgalterligidek baobro', "yog'li" joydan ketib, maktabda oddiy o'qituvchilik qilish ham ko'pchilik nazdida kulgili tuyulardi. Yana bir tomoni – qaramog'imdagi ukalarimning oldi endi-endi suyagi qotib, oyoqqa turib kelayotgan edi. Qisqasi, diplomli bo'lganimdan keyin ham yana ikki yil cho't qoqishga majbur bo'ldim.

Majbur bo'ldim, deyishim ham rost gap, botinimda hali-hamon ijod dardi simillar, ozroq fursat topdimmi, nimalardir mashq qilishga undardi. O'quvchilik yillarimda she'rlarim chiqa boshlagandi, keyin esa hikoyalarim ham... Ularni faqat tumanimiz gazetasigina tan olib bosib turardi.

Ota qadrdonim bo'lmish Rais bobomiz (keyinchalik u kishi qis-salarimda Rustam Haydarov bo'lib ko'rindi) 56 yoshida dunyodan o'tdi. Rahmatli yaxshi odam, respublika miqyosida tanilgan mashhur rahbar edi. Shundan keyingina menga "monelik qiladigan" kishi bo'lmay, maktabga ketdim.

Maktabda bir yil havas bilan ishladim, o'zimni suvga tushgan baliqdek his etardim. G'ayratim ichimga sig'mas, "Shalola" degan adabiy to'garak ochib, o'quvchilarimga shoirlikdan "dars" bera boshladim. Ko'p o'tmay yana bezovtalik oraladi ko'nglimga. "Nega dunyoning bir chekkasida oddiy o'qituvchi bo'lib qolib ketishim kerak ekan, loaqal endi toleimni sinab ko'rishim mumkin-ku!" derdim o'zim bilan o'zim kurashdim.

Hamkasblarim bilan sirlashdim. Qo'llovchi bo'lmadi: "Endi kech, oila, besh farzand bilan Toshkentda yashashning o'zi bo'lmaydi. Qolaversa, bu sohani tanlaganning yo zari, yo zo'ri bo'lishi kerak", deyishdi. Faqat birgina inson – qishlog'imizga Nurota tomonlardan kelib qolgan Nurmuhamedov degan qariya, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, boshqacha gap qildi: "Mening bir tanishim bor, Nizomiyda, sirtqi bo'limda bizga dars bergan. Yoshim ulug' bo'lgani uchun hurmat qilardi, shu odamga uchrab ko'ring-chi", dedi.

Maktabda ikkinchi yil ish boshlashimdan oldin – avgust oylarida Toshkentga keldim. Aspiranturada o'qiyotgan sobiq sinfdoshim yo'l boshlovchi bo'ldi. O'sha paytlarda qisqagina qilib, "prospekt 41" deb ataladigan (hozirgi "Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy") bino ostiga kelib, "Gulxan" jurnaliga qo'ng'iroq qildik. Chunki jurnal tahrir hay'atida biz izlab kelgan kishi – Pirmat Shermuhamedov ismini ko'rgandim va shu jurnalda ishlasa kerak, degan


xayolda edim. Soddaligim ham shu darajada ekan-da.

Ichkaridan kimdir javob berdi: u kishi katta odam. G'afur G'ulom nashriyotida bosh muharrir bo'lib ishlaydilar, dedi.

Oyog'imdagi titroq zo'raygandan zo'raydi: ana xolos, bu katta odamga qandoq ro'para bo'laman?!

Aytmoqchi, Toshkentday joyga pasportsiz kelibman. Uchragan eshikda pasport surishtirib turishsa, bu yog'i qandoq bo'larkin, degan xavotirim ortib borardi... Yo'q, "Navoiy – 30"da hech kim hujjat so'ramadi.

Binoga bemalol kirib, o'sha paytlarda-



Rasmlarni Asliddin KALONOV chizgan.

gi eng mashhur G'afur G'ulom nomidagi nashriyot bosh muharriri xonasini osongina topdik. Katta odam deyishgani – Pirmat aka (professor Pirmat Shermuhammedov) ochiq chehra bilan qarshi oldi. Stullarga o'tqazib, choy uzatdi.

– Domla, biz Samarqanddan keldik, bir tanishingiz yubordilar, – dedim tomdan tarasha tushganday qilib va maktubni uzatdim.

Pirmat aka darhol konvertni ochib, avval suratga qaradi.

– E, domla-ku, – dedi kulimsirab.

– Ha, Nurmuhammedov domla, maktabda birga ishlaymiz, – dedim jonlanib.

– To'g'ri, Nurmuhammedov. Oltmish yoshida bizdan diplom olgandi. G'ayratli qariya edi...

Pirmat aka ko'p kuttirmay xatni o'qib chiqdi-da, “qani, narsalaringizni bering-chi?” dedi. Narsalarim – bir dasta sh'er va hikoyalar edi, darhol uzatdim.

– Yaxshi. Ertaga shu paytlarda kela olasizmi?

– Albatta, – dedim hovliqib.

Xullas, ertasi kuni aytilgan soatda Pirmat Shermuhammedov xonasida hozir bo'ldim.

– She'rlaringizni ...ga (ismi yodimdan ko'tarilibdi), hikoyalaringizni Botir Norboyevga berganman. Hozir ularni chaqirtiramiz, – dedi Pirmat aka ishchanlik bilan.

She'rlarimni olgan odam topilmadi, Botir Norboyev xonaga kirib keldi. Qorachadan kelgan, qoruvli yigit ekan.

– Xo'sh, Batirjan, hikoyalardi o'qidingizmi, – dedi Pirmat aka xorazmcha lahjada.

– O'qidim, ikkitasini...

– Qalay?

– Zo'r!

– Rasttanmi?! – dedi Pirmat aka unga sinchkov nigohini tikib.

– Ha, Pirmat aka, menga yoqdi. Viloyat muhitidagi bir narsa bo'lsa kerak degandim.

Yo'q, yozsa bo'lar ekan!

– Yaxshi, yaxshi. Unda hammasini o'qing-da, keyin menga bering. Menam tanishay. Keyin bir xulosaga kelaylik. Shu yigitti padderjka qilaylik, bo'ptimi!

– Albatta, domla, men tayyorman!

Pirmat aka menga yuzlandi.

– Samarqandga ketguncha yana bir kelsangiz, hikoyalarni o'qib qo'yaman. She'rlaringizni ham...

Bir-ikki kun o'tkazib, yana Pirmat akaga uchradim. Endi bir muncha jur'atlanib qolgan-dim. Ancha suhbatlashdik. Hikoyalar tili, jumla qurilishi, voqealar rivoji, mantiqiyligini maqtab,

ko'nglimni ko'tardi. Faqat ozroq yuk ortish zarurligini aytdi. Shu yil oxirida – dekabrda yangi hikoyalar bilan kelsangiz, dedi.

(She'rlarimni ortiq surishtirmadim. Mendan shoir chiqmasa kerak, nasrda biror narsaga erisharman, degan fikrlarim qat'iy lashib ulgurgan edi.)

Pirmat aka men uchun “najot farishtasi”dek bo'lib ko'ringan, murg'ak bolaligimdan halovatimni o'g'irlagan orzu-istaklarimni qanotlantirgan bir zot sifatida taassurot uyg'otgandi.

Qishloqqa qaytdim. Qadam bosishlarim bo'lakcha, erta-indin yozuvchi bo'lib tanilishimga ishonib, ich-ichimdan g'ururlanib yuraman. G'ayratim ichimga sig'maydi: ertalab vaqtli uyg'onib, “ijod stolim”ga o'tiraman, uch-to'rt qog'oz qoralab, maktabga o'tlanaman, u yoqdan qaytib, tamaddi qilmasdan yana qog'ozga muk tushaman, kechki ovqatdan keyin ham ne mahalgacha qalam qitirlataman. Stolim ustida – ro'paramda Pirmat Shermuhammedovning “Ijod dardi” kitobining orqa muqovasidagi surati: “G'ayrat qiling, sizdan yozuvchi chiqadi”, deganday jilmayib, quvvatlab turadi.

Shu tarzda 1978-yil sentyabridan dekabrigha o'nga yaqin hikoya yozdim. So'ng hayotimda tubdan burilish yasagan yangi yil arafasida yana Toshkentga yo'l oldim.

Keyingi yil mart oylarida, chamamda bahorgi ta'til kunlari bo'lsa kerak, o'zim rahbarlik qilayotgan o'ninchi sinf o'quvchilarini Toshkentga tomoshaga olib keldim. Ikki kun birgalashib shahar aylandik. Muzey, teatrlarga kirdik, xiyobonlarda kezdik. Keyin ularni avtobusga o'tqazib, Samarqandga jo'natib yubordim-da, o'zim Toshkentda qoldim. Birinchi qilgan ishim – G'afur G'ulom nashriyotiga borib, hikoyalaram haqida iliq gap aytgan adabiyotshunos olim Botir Norboyevga uchradim. Navoiy ko'chasi bo'ylab yurib, gurunglashdik. Gap orasida mavridi kelib qoluvdi, dardimni aytdim. Hali ikki yil o'tmayoq o'qituvchilikdan charchaganimni, o'quvchilarning yarim umri dalada o'tayotgani, xohlagandek dars bera olmasligingni va hokazo muammolarni qatorlashtirib, keyin mabodo maktabni tashlab Toshkentga kelsam, ish topishim mumkinmi, eng muhimi, ishlab keta olamanmi... shunga siz nima deysiz, dedim. Botir aka gapni aylantirib o'tirmadi, ikkilanmay kelavering, ish topiladi. Chidasangiz, ishlab ham ketasiz, dedi. Bu gapni o'zimcha

shunday tushundim: bu odam menga ishonaptiki, shunday deyapti. Aks holda... Xullas, yana ruhlendim. O'zimga ishonchim ortdi. Maktabdagi faoliyatimning so'nggi oylarini ichki bir orziqish, pinhoniyl bir sevinch bilan o'tkazib, sinfimning bolalariga yetuklik attestatsiyalarini topshirgan kunim, maktabimiz direktori, tarix o'qituvchisi, Xalq maorifi alochisi Isomiddin aka Qarshiyev huzuriga kirdim va maqsadimni aytdim. U ayrim kasbdoshlarim ogohlantirgandek ovora bo'lma, Toshkentda yashashning o'zi bo'lmaydi, yo zaring, yo zo'ring bo'lishi kerak deb qo'rqitib o'tirmadi. Bilaman, ancha kech harakat qilyapsan, boshqa imkonning ham yo'q edi. Mana endi... bemalol ketaversang bo'ladi, dedi. Duo qildi. Xullas, o'sha 1979-yilning iyulida pattam qo'limga tegdi va erkin qushga aylanib, yigirma olti yoshimda Toshkentga yo'l oldim...

* * *

Xudoning bergan kuni G'afur G'ulom nashriyotidaman. Botir akaning xonasiga kirib o'tiraman. Botir aka, Mahkam aka (Mahkam Mahmudov) kun bo'yi ishdan qolib men uchun ish izlashadi. Avval markaziy gazeta-jurnallarga qo'ng'iroq qilib chiqishdi. Keyin Toshkent viloyati, "Toshkent oqshomi" gazetalariga. Natija yo'q. Ilgari qayerda ishlagan, deyishadi, maktabdami, bo'lmaydi. Bizga tayyor xodim kerak! Kunlar esa o'tib boryapti. Oxiri shu darajaga bordimki, "Kitobsevarlar jamiyati"da buxgalterlik o'rni bo'sh ekan, borasizmi, deyishdi hazil-chin aralash. Roziman, dedim sira ikkilanmay. Hoy, bu senga kolxoz emas, davlat tashkiloti, kirim-chiqim, debit-kredit hujjatlarini yuritishda osmon bilan yercha farq bo'lsa kerak, deb ham o'tirmadim. Nashriyot joylashgan binoning ikkinchi qavatiga tushdim. Rahbarga uchradim. Bir ko'zi qora tasma bilan bog'langan, ammo o'zi ancha basavlatgina kishi ekan. U tarjimayi holim yuzasidan obdon so'rab-surishtirdi-da, keyin ko'zimga qattiq tikilib, "Xotin, bola-chaqadan qochib kelyapsizmi?" desa bo'ladimi!.. Haligacha tushunmayman, nega bu-

naqa dedi bu odam... Sariq odammasmanmi, qizarib-bo'zarib o'rnimdan turib ketdim. E, nima deyapsiz, o'ylab gapiryapsizmi, bizdi Samarqanddan bola-chaqani tashlab qochadigan nomard chiqmagan, chiqmaydiyami!.. Bo'пти, xayr!.. Rahbar iljaydi. O'tiring, o'tiring, hazil. Bo'пти, ertadan ishni boshlayvering, Pirmat akadan ta'rifingizni eshitganman, uka. Faqat bunaqa serjahl bo'lmang-da...

Xiyol tinchlanib, Botir akalarning xonasiga ko'tarildim. Xo'sh?.. Bo'ldi, deganday bosh irg'adim. Lekin avzoyimdan unchalik xursand emasligimni payqadi, shekilli, Botir aka tasalli berdi. Vaqtincha ilinib turing, birorta ma'qulroq joy chiqib qolsa, shunday o'tib ketaverasiz. Biz so'rab-surishtirib turamiz, dedi. Shu payt Mahkam aka bilan gaplashib turgan, chamasi o'zim tengi bir yigit biz tomonga o'girildi-da, radioga borsin, mening o'rnimga, men ketyapman, desa bo'ladimi!.. Siz Litdramda ishlaysiz-a, dedi Botir aka jonlanib. Ha, zo'r joy. Oyligi yaxshi, qalam haqiyam... Mahkam aka gapga aralashdi: Botirjon, siz darrov Pirmat akaga kiring, u kishi tavsiya qilsa, yo'q deyishmaydi.

Ishonsangiz, dilim shunday ravshan tortib ketdiki, qo'ya-

verasiz. Axir, o'ylab ko'ring: mushtday boshimdan cho't qoqib, debit-kreditlardan bezib, maktabga o'tib ketgan bo'lsam-da, azza-bazza Toshkentga kelib, yana... Xullas, Respublika radiosiga qarab yo'l oldim. Ha, aytmoqchi, meni bu yerga kelishimga sababchi bo'lgan yigit – bu gungi kunda taniqli shoir, olim, tarjimon Tohir Qahhor edi. Hozir o'ylab turib hayratga tushaman: bu odamlarni ilgari ko'rmaganman. Biri qoraqalpoqlik, biri xorazmlik, biri andijonlik, yana biri namanganlik... Ularga o'tkazib qo'ygan joyim ham yo'q. Lekin xuddi o'z jigarlariga qayg'urgandek qayg'urishadi. Sira malollanmay, men uchun kimlargadir qo'ng'iroq qilishadi, iltimos qilishadi. Yo'lim ochilavermasa, xafa bo'lishadi, yorug'lik ko'rinasa, quvonishadi. Mabodo deyman, shularning o'rnida biror to'ngroq odamga duch kelganimda (keyin bunaqa kimsalarga ham duch keldim) nima bo'lardi?! Qishloqdan tashqariga chiqmagan, hatto harbiy xizmatda ham (oilaviy sharoit tufayli) bo'lmagan mo'rt yigitcha Toshkent tosh shahar ekan, bu yerda yo zaring, yo zo'ring bo'lmasa bo'lmas ekan, deb ortimga qaytib ketarmidim. Ha, birinchi qadamlaringda qanday odamlarga duch kelishingda gap ko'p ekan...

Radio eshigiga kelib, ichkariga qo'ng'iroq qildim. Hayal o'tmay novcha (mendani bir kalla baland), tutash qora qoshli yigit chiqib keldi. Kulimsirab ko'rishdi-da, pasportimni so'radi. Keyin bir tuynukka borib, ruxsatnoma yozdirib oldi-da, ichkariga boshladi. Melisa tek-

shiruvidan o'tib, ikkinchi qavatga ko'tarildik. Bu yerga kelishdan oldin, qulog'imni pishitishgan. Sinov qattiq bo'ladi. Dadil bo'ling, katta-katta gapiravering, deyishgan. Lekin baribir yuragim chopmayapti. Bo'lmaydi, bari befoyda, degan ishonchsizlik miyamda aylanadi. Gap shundaki, men shu choqqacha tuman gazetasidan bo'lak dargohni ko'rmaganman. Sanaganda sakkiz-o'nta she'r-u hikoyam faqat o'sha tuman gazetasida bosilgan. Respublika radiosiday mahobatli bir jamoaga nimamga ishonib ishga olishadi. Hujjatlarimni ko'riboq hafsasalari pir bo'ladi, derdim. Toir Yunus (haligi meni ichkari-ga olib kirgan yigit) bir xonaga boshlab kirib, shu yerda o'tirib turing, deya chiqib ketdi. Xona torgina, ikki stol, biri kiraverishda – o'ng qo'lda, ikkinchisi unga taqalgan holda eshikka qaratib joylashtirilgan. Stollar yoniga bittadan qo'shimcha stullar qo'yilgan. Ulardan biriga o'tirdim-da, qo'limdagi papkani stol ustiga qo'ydim. Va shunday boshimni ko'tarib, ro'paradagi eshik yozuviga ko'zim tushdi: "Bosh muharrir Nasiba Ergasheva". Iye, ana bo'lmasa, familiyadosh ekanmiz-ku! Loaqal familiyam sharofati bilan... Ha, demak, qabulxonadaman. Hozir boshliqqa olib kirishadi. Yo'q, unday bo'lmadi. Xonaga jiddiy qiyofali, baland bo'yli, qorachadan kelgan kishi kirdi. Qayerdadir ko'rgandayman. Darhol jonkuyar Mahkam akaning gaplarini esladim: "U yerda Eminjon, Tohir Malik degan yozuvchi akalaringiz ishlashadi. Taniysiz-a ularni? – Ha, o'qiganman. – Unda juda yaxshi. Ikkisi ham bo'lim boshlig'i, ana shular hal qilishadi..." Darhol, miyam tiniqlashdi. Iye, Tohir Malik-ku! O'rnimdan chaqqon turib, salom berdim. U kishi indamay ko'rishdi-da, yuqoridagi stolga o'tib o'tirdi. O'tiring deganday bosh iring'adi. "Tohir aka, yaxshimisiz?" U eshitilar-eshitilmas ovozdagi "yaxshi" dedi-da, oldimdagi papkaga ishora qilib, qo'lini cho'zdi. Darhol olib berdim. Nafas yutib, kuzatib turibman. U shoshilmay qog'ozlar bilan tanisha boshladi, avval ma'lumotnomani qarab chiqdi, keyin tarjimayi holimni o'qidi. Navbat gazetalarga keldi. Ularni va qo'lyozmalarni bir-bir ko'zdan o'tkazdi-da, keyin hammasini qaytadan joyiga joylab, papka bog'ichini bog'ladi. "Tamom, hozir qo'limga qaytib beradi!" Yo'q, unday bo'lmadi. Boshini ko'tarib, jiddiy tikildi-da, "Hm, besh bolali yigitcha", deb qo'ydi. Nima deyishni bilmayman, hazillashyapti, desam, qarashlari jiddiy. "O'qiganmisiz?" "Nimani?" "Besh bolali yigitcha"ni-da". "Ha, romannimi, o'qiganman..." Shundan so'ng Tohir aka papkani stol

chekkasiga olib qo'ydi-da, chorshanba kuni kelasiz, hikoyalaringiz bilan bolalar tanishib chiqishadi. Qolganini keyin gaplashamiz... U shunday dedi-da, bosh iring'ab qo'yib o'rnidan turdi.

Tohir aka bilan rosa qirq yillik aka-ukachiligimiz, ustoz-shogirdligimiz ana shu kundan, o'sha mubhamgina suhbatdan boshlangan ekan, hozir o'ylab qarasam. Koshki edi shunday bo'lishini oldinda bilganimda, do'ppimni osmonga otgan bo'larmidim. Ammo o'shanda u kishi bilan qayta uchrashgunimcha ichimni it tirnab yurdi. Endi nima bo'larkin? Hikoyalaringiz yoqarmikin? Haligi hazili bekorga bo'lmasa kerak. O'zingizni ham, besh bolangizni ham qiynab yurmang, Toshkentda yashashning o'zi bo'lmaydi, desa-ya!.. Oradan bir kunni amallab o'tkazib, chorshanba kuni yana radiokomitet binosi oldida hozir bo'ldim. Bu safar ichkariga qo'ng'iroq qilishimga hojat bo'lmadi. Oynavand eshik ochilib, bir kishi otimni aytib chaqirdi. Bu yoqqa keling, dedi. Eski tanishlardek, qo'l berib ko'rishdi-da, ichkariga boshladi. Qarasam, foyeda Tohir Malik o'rta bo'ydan balandroq, pishiq-puxta tana-to'shli, ochiq chehrali bir kishi bilan turibdi.

– Keling, besh bolali yigitcha... Va alaykum assalom. Tanishing, bu akangiz – Eminjon Usmonov.

Qo'sh qo'llab ko'rishdim.

– Bunisi, – meni chaqirib kirgan yigitga ishora qildi. – Sotvoldi Rajabov, anjanlik.

– Tohir bilan yurtdoshmiz...

– Bo'lmagan gap, man toshkanlikman... – dedi Tohir aka bamaylixotir. – Bular shunaqa, mashhur odamlarni darrov o'zlariniki qilib olishadi. Hm, noto'g'rimi?.. Mashrab qayerlik?

– Asli anjanlik.

– Ana, aytmadimmi?..

– Isbot kerakmi?

Tohir aka isbot talab qilib o'tirmadi-da, sheringiga yuzlandi.

– Eminjon, bo'lmasa, bu yigitchani sizga topshirdim. Biz bormasak bo'lmaydi. Opaga olib kiring. Aytmoqchi, opaniyam tegi anjanlik.

Sotvoldi aka sharaqlab kuldi. Tohir aka jiddiy qiyofada davom etdi.

– Anjanlik bo'lmasayam bo'ladigan bola ekan, deng. Hikoyalari haqidagi fikrimizni ayting. – U shunday deya menga o'girildi. – Bitta hikoyangiz yoqmadi menga. Bidingiz-a? Bosmachilar haqidagisi. Bilmagan narsangizni yozmang...

– Haligi... Bo'lgan voqea ekan. Hatto o'zimizning qarindoshimiz ekan...

– Qarindoshingiz Yo‘ldoshxo‘ja... – u sheriklariga qarab kulimsirab qo‘ydi-da, – unaqa odam bo‘lmagan, ehtiyot bo‘ling, – dedi. Keyin gapni qisqa qildi. – Bo‘pti, buni alohida gaplashamiz...

(Tohir akaning bu tanbehi sababini ko‘p o‘tmay tushundim. Ko‘zim yarq etib ochildi. Men, qizil sho‘ro maktabining a‘lochi o‘quvchisi, bilib-bilmay o‘z ajdodlarim yuziga (O‘zi kechirsin!) loy chaplamoqchi bo‘lgan ekanman).

Men g‘alati bir holatda edim. Kuni kecha bu kishilarning birortasini tanimasdim. Ammo hozir o‘z-o‘zidan ularning biriga aylanib turibman. Bir-birlariga bemalol hazil qilishyapti. O‘zlariga yaqin olganlaridan bo‘lsa kerak-da, aks holda... Nahotki, bu yog‘i oson ko‘chsa...

Judayam oson ko‘chmagan bo‘lsa-da, oqibati xayrli bo‘ldi. To‘rt oy sinovda yurdim. Topshiriq berishadi, men Botir akaga uchrab, yo‘l-yo‘riq olaman-da, ishga kirishaman. Lavha, maqola, ocherklar tayyorlab kelaman. Yozganlarim ma‘qul topiladi, efirga beriladi, Uch-to‘rt so‘m qalam haqi ham olaman. Lekin ish masalasi ilgari siljimaydi. Yaxshiyam yotoq masalasida qiynalmadim. Avvaliga Xalq xo‘jaligi instituti yotoqxonasida (Abdumannon ismli talaba hamqishlog‘im yordamida), keyin “Aspirantlar uyi”dagi haligi aspirant sinfdoshim xonasida deyarli tekinga yashab turdim. Hafta sayin Samarqandga qatnayman. Qatnaganda ham payshanba kuni kechki poyezdga o‘tirib, juma kuni ertalab qishloqda bo‘laman. Uyimdagilar bilishadi, bilmaganlar – meni Toshkentdagi katta bir redaksiyaga joylashib opti, deb eshitganlar, ajablanishadi. Bugun ish kuni emasmi, deb so‘rashadi. Mubham javob qilaman: ish kuni. Men safardaman, deyman. Ishqilib, oxiri baxayr bo‘lsin-da, sharmanda bo‘lmayin-da, Xudoyim, deb qo‘yaman. Shu taxlit oy-u kunlar o‘tib borardi. Bir safar “dam olish” kunlarini o‘tkazib, Toshkentga otlanib turibman. Oktyabr oyi yarimlagan. Ukalarim tomga shifer qoqishyapti. Nima bo‘ldi-yu, yo‘lga chiqaman, deb turgan yerimda niyatimdan qaytib, kel, bir-ikkita shiferni uzatishib yuboray debman. Shifer deganim haligi biz bilgan azbestdanmas, tunukadan edi. Ikkitasini tepaga uzatdim-u, uchinchisi negadir tepada turgan yigitning qo‘lidan sirg‘alib tushib ketdi. O‘zimni chetga oldim-u, o‘ng oyog‘imni tortishga ulgurmadim. Oyog‘im yuzi xuddi olov tek-kandek “jiz” etdi. Qarasam, oqish tuflim qip-qizil qonga bo‘yalibdi. Darhol meni suyab, qo‘ltiqlab, chorpoyaga olib borib o‘tqazishdi. Tuflimni, pay-pog‘imni yechishdi. Tunuka shifer qirrasini shim

pochasini, paypog‘imni ustaradek qirqib, keyin oyog‘imga botgan, yo‘g‘on tomirlardan biri kesilgan shekilli, qon to‘xtay demasdi... Bir haftacha qishloqda qolib ketdim. Keyin uchta chok tushgan kesik oyoq bilan yana Toshkentga yo‘l oldim. Oqsoqlanib radio binosi tomon borarkanman, “E, qayoqda yuribsiz?!” deydi birov. Qarasam, shu yerdagi ko‘z tanishlarimdan biri. Nimanidir sezdimi, yuragim bir qalqib oldi. “Tohir aka bilan Eminjon aka sizni bir haftadan beri qidirishadi. Tez uchrang. Yangilik bor, shekilli...”

Oyog‘im simillashi birpasda yo‘qoldi.

Uzun koridor oxirida Eminjon aka kutib oldi. Qayoqlarda yuribsiz, darvesh?! Qishloqda edim. Kelayotib...

Eminjon aka oyog‘imga tikilib, bir zum jimib qoldi-da, keyin: Tuzukmi endi, paxta terishga yaraysizmi, dedi. Tushunmay, angraydim. Bu yoqqa yuring-chi. Tohir akaning xonasiga boshlab kirdi. Iye, besh bolali yigitcha topilibdi-ku, deya Tohir aka telefon go‘shagini joyiga qo‘ydi. Hozir roziskka bersammi deb turgandim... Bu darvishingiz qishloqqa ketgan ekan, dedi Eminjon aka o‘tirayotib. Hmm... dedi Tohir aka menga boshdan oyoq qarab chiqib, bolalarni ko‘paytirgani ketgandir-da. Eminjon aka kuldi. Qayoqda, ustachilik qilib, oyog‘ini kesib olibdi... Tohir aka voqea tafsilotini eshitib, bir zum jim qoldi. Keyin kulimsiradi. Zarari yo‘q, qishloqdi bolasi, chidaydi, dedi. Endi gap bunday, besh bolali yigitcha. Opa sizni raisga olib kiradi. Oqsamaysiz. Hech narsa bo‘lmaganday, nima deyishsa, xo‘p deysiz. Bugun 1-noyabr, Ubaydulla Yoqubovich hujjatingizga qo‘l qo‘yadi-da, erta shanba, yakshanbani o‘tkazib, to‘rtinchida paxtaga ketasiz. Kelishdikmi?!

Hayajondan nafasim tiqilib, ovozim chiqmay qoldi. Shoshib bosh irg‘adim.

Keyinchalik aytib berishlaricha, mening familiyadosh opam bo‘lim boshliqlari Tohir aka bilan Eminjon akadan paxtaga odam so‘rabdi. Hamma ishga yaraydiganlar paxtada, boshqa odamimiz yo‘q deyishibdi. Bilmadim, ikkita odam kerak. Ana Toirjon (Toir Yunus) borsin. Yana bitta topinglar. Odam bor, debdi Eminjon aka Tohir akaga qarab olib. Kim? Sinovda yuribdi, yozganlarini o‘qidingiz. Efirga berib turibmiz, debdi Tohir aka davom etib. Shu yigitni ishga olaylik-da, paxtaga jo‘nataylik... Mayliku-ya, Litdramga yoshlik qiladi-da. Qanaqasiga yoshlik qiladi, debdi Eminjon aka qat‘iy turib. Yigirma oltiga kirgan... Ijodkor sifatida yosh deya-man, kitobi chiqmagan. Markaz tugul, viloyat

gazetalarida biror narsasi bosilmagan. Menga qolsa-ku, yo'q demasdim, sizlarga ishonaman, direksiyadagilar oyoq tirab olishgan. Opa, debdi Eminjon aka so'nggi nuqtani qo'yib, shu yigit uchun Tohir ikkalamiz kafilmiz. Agar ishni eplolmasa, javobini biz beramiz. Xullas, bosh muharrirni ko'ndirishibdi. Keyin meni izlashsa, yo'qmishman. Agar bir kun kechikkanimda bilmadim nima bo'lardi.

Xullas, o'sha kuni Teleradio davlat qo'mitasining qirq yillik rahbari Ubaydulla Yoqubovich Ibrohimov buyruqqa imzo chekdi. Bir kun ham ishlamay, 4-noyabr kuni Bekobodga paxta hashariga jo'nadim. Aytmoqchi, ishga kirgan kunim aspirantlar yotog'iga bordim-da, oyog'im yarasi bitgandir degan xayolda, sekin iplarini qaychi bilan qirqdim. Qirqqanimni bilaman, jarohat o'rni ochilib ketsa bo'ladimi!.. Obbo, endi nima qilaman? Hamxonalarim maslahati bilan oyog'imni siqib bog'ladim-da, dorixonaga chiqib, bir talay streptotsid tabletkalari, yod, zelenka, bint oldim. Xonaga qaytib, tabletkalarni tuidim-da, kukunini yaramga sepdim. Ustidan achitib yod surkab, bint bilan bog'ladim...

Paxta terib yuraman. Bir mahallar etigimni yechsam, paytavam qip-qizil qonga bo'yalgan bo'ladi. Darhol yaramga tabletka kukunidan sepaman, malham surib, bint bilan bog'layman va ustidan paytava o'rayman. Hech kimga sezdirmayman. Suyagim g'o'za egatlarida qotgan emasmi, terimda qiynalmayman. Aksincha, havas bilan, sog'inch bilan egat oralayman. Bolaligim o'tgan dalalarni, beshinchi sinfdan boshlab paxta hashariga chiqib ketishlarimizni eslayman. Sinfdosh, qishloqdosh bolalar, qizlarni bir-bir ko'z oldimga keltiraman. Ayniqsa, kichkintoylarim yodimga tushsa, nafaslarim qaytib, yuragim hapriqib ketadi. Tavba, deyman, yetti uxlab tushimga kirmagan ishlar bo'p ketdi-ya!..

Bo'lajak hamkasblarim Toir Yunus (muharrir), Sanjar Sa'dullayev, Vohidjon Do'stmuhammedov (radiorejissyor)lar bilan deyarli tengdosh ekanmiz, yulduzimiz o'ng kelib, inoqlashib ketdik. Ishim oson hal bo'lganidan bir quvonsam, bo'lajak ishxonam qorong'u o'rmondoy ko'rinib vahimaga soladi. Xo'p, erta bir kun paxtadan qaytarman. Ishga ham tusharman, deyman gohida o'zimcha. Eplab ketarmikinman? Ishqilib, meni kafillikka olganlarni uyaltirib qo'ymasam go'rga edi. Ba'zan shunga yaqin gap qilsam, Toirjon dalda beradi. E, parvo qilmang, hammasi yaxshi bo'ladi, deydi. Hali siz bilan birga ko'p eshittirishlar tayyorlaymiz,

quvvatlaydi Sanjar ham uni. (Sanjar Sa'dullayevni taniysiz, bugungi aksar xorij teleseriallari bosh qahramonlarini "ozbekcha gapirtiradigan" dublyaj qirollaridan biri. Toir Yunus haqida gap ketganda men doim radiodan topgan eng sadoqatli, oqibatli do'stim, deya e'tirof etaman. Afsus, umri qisqa ekan, 56 yoshida (1954–2010) dunyodan o'tdi. U 1996-yilda radiodan ketib, kinoxronikada bosh muharrir bo'lib ishlayotgan edi. Rejissyor Vohidjon Do'stmuhammedovning ham shirali, salobatli ovozi bor edi. Keyingi paytlarda uni teleko'rsatuvlarga ham jalb qilishib, mumtoz g'azallarni o'qitishayotgan edi. U ham Toirjon bilan tengdosh, vafoti ham deyarli bir vaqtga to'g'ri kelgan edi, yanglishmasam. Alloh rahmat qilsin ularni).

Xullas, paxta terib yuribman. Hali aytganimday, kuniga ikki-uch mahal bekitiqcha etigimni yechib, oyog'im jarohatini tozalab, kukun bilan selgitib, yod surkayman. Ba'zida oyog'imni qimirlatsam, shiqirlagan ovoz chiqadi. Bosh barmog'imni ushlab ko'rsam, karaxt, hech narsani sezmaydi. Obbo, deyman tashvishga tushib, bir kasofatga yo'liqib qolmasaydim!.. Kunduzi deyarli og'riq sezmayman, lekin kechasi yig'ma karavotimga cho'zilishim bilan, nafaqat jarohat o'rni, o'ng oyog'im bor bo'yi bilan qaqshashga tushadi. Tishimni tishimga bosib, uxlab olishga urinaman. Ba'zida yarim tunlar bo'lib ketsa ham og'riqning xurujidan ko'zimga uyqu kelmaydi. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deganicha bor ekan. Radio rahbarlari bizdan xabar olgani kelishgan ekan, kimdir meni "sotibdi". G'afur aka Ahmedov degan direktor o'rinbosari yonimga keldi. Men endigina karavotimga yonboshlagan edim. Nari-beridan gaplashgan bo'ldi-da, sekin odeyalimni ko'tardi. Bu nima, dedi. Hech narsa. Bint bilan bog'lab tashlabsiz-ku. Do'xtirga uchradigizmi? E-e, shart emas... Sizni qarang-u... U birpasda ambulatoriya navbatchisini boshlab keldi. Qisqasi, menga rentgendan o'tib kelishga yo'llanma berishdi. Ruxsat tekkanidan qanotlanib, to'g'ri Samarqandga ketdim. Sog'inganlarim bilan diydorlashib, rentgen natijasini olib qaytdim. Suyakka zarar yetmagan ekan. Lekin baribir, terimga qayta ruxsat berishmadi.

Shunday qilib, 1979-yilning 19-noyabr kuni Respublika radiosining Adabiy-dramatik eshittirishlar bosh tahririyatida Nasr bo'limi muharriri sifatida birinchi ish kunimni boshladim. Hech shubhasiz, bu mening omadim, Yaratganing buyuk marhamati edi. Gapning halolini

aytadigan bo'lsam, o'sha holatimda men bu vazifaga munosib emasdim. Mendan tashqari ham (keyinchalik eshitishimcha) bu o'ringa yaxshi-yaxshi nomzodlarni tavsiya qilishgan, shu sababli ham yetarlicha qarshiliklar bo'lgan, biroq hali aytganim Tohir Malik, Eminjon Usmonov degan ulug' insonlar (Alloh rahmat qilsin ularni!) qat'iyati orqasidan uloq menda ketgan ekan. Endi hammasi o'zimda qolgan edi. Har holda azza-bazza ishlab turgan joyimni tashlab Toshkentga kelganim, oilam, bolalarim, avvalo, onaizorimning umid bilan ko'z tutib turgani, menga ishonch bildirgan ustozlar oldidagi mas'uliyatim va albatta, tabiatimdagi botiniy bir o'jarlik quvvat berdimi, xiyol fursatda radiochiga aylandim. Shubhasiz, bu borada jamoaning, atrofimdagi yaxshi odamlarning bag'rikengligi ham katta yordam berdi.

Radioda ish boshlaganimdan so'ng efirga birinchi berilgan jiddiy ishim – olti millionli paxta rejasi bajarilgan kun efirga berilgan radiokompozitsiyam bo'ldi. Uni sinovda yurgan paytlarim yozib bergan edim. Kompozitsiya avvali va oxirida taniqli ijodkorlar tabrigi berilsa... degan taklif tushdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar bo'lsa yanayam yaxshi bo'lardi, deyishdi. Usmon aka (Usmon Azimov) jonimga ora kirdi. Men birga boraman, dedi. Mendek bir g'or yigitchaning bunday nomdor shoirlarga ro'para bo'lishi osonmi?! Xullas, dastlabki ish kunlarimdan oq ana shunday insonlar bilan yuz ko'rishish nasib etdi. Xizmat taqozosi bilan keyinchalik ne ne ulug'lar bilan muloqotda bo'ldim, ularning necha birlari bilan ota-bola, aka-uka, ustoz-shogird sifatida bir umrga bog'lanib qoldim. Bir chekkadan aytaversam, eh-he...

G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Tilak Jo'ralar haqida orqavorotdan eshitib yurardim. Ularning atrofidagi ajabtovur muhit, gurros-gurros talabalarning ularga ergashib yurishlari... Shuningdek, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Tal'at Solihov kabi mashhur domlalar haqida ham... Ularda o'qigan, ular bilan muloqotda bo'lgan ijodkorlarga havas qilar va Toshkentda o'qiyolmaganimdan o'ksib qo'yardim.

1992-yil edi. Professor G'aybulla Salomovning 60 yilligi munosabati bilan eshittirish tayyorlashga topshiriq oldim. Domla bilan tanishdim, ancha suhbatlashdim. Shu asnoda Najmiddin Komilov, Tilak Jo'ralar bilan ham ko'rishish nasib etdi, ularning ham ovozi yozib oldim. Eshittirish 11-dekabr kuni efirga chiqdi. Aynan

shu kuni universitetda domlanning 60 yilligiga bag'ishlangan katta tantana bo'lib o'tdi va uni ham maxsus ovoz yozish mashinasida universitetga borib, magnit tasmaiga tushirdim. Yubileydan rosa bir hafta o'tib esa... fojia yuz berdi – domlanning Respublika prokuraturasida mas'ul vazifada ishlaydigan o'g'li Habibulla Salomov sirli ravishda g'oyib bo'ldi. Ikki infarktni o'tkazgan otaning yolg'iz farzandidan judo bo'lishi tasavvurga sig'maydigan musibat edi. Yaxshi eslayman, o'shanda ko'plab shogirdlari, Habibullaning do'stlari domlani musibat bilan yolg'iz qoldirmaslikka, chalg'itishga, tasalli berishga harakat qilishdi. Men ham o'z o'rnida G'aybulla akani radioga tez-tez chaqiradigan yoki yozuv uskunasi ko'tarib, uylariga borib turadigan bo'ldim. Har xil bayram, yubileylar munosabati bilan buyurtmalar ham berardim va domla bu ishlarni kamoli hafsala bilan bajarib kelardi. Esimda, o'sha kunlarda Tilak Jo'ra kasal bo'lib qoldi. Og'ir emish, Sayyotga opketishibdi, degan xabarlarini eshitdik. G'aybulla aka menga qo'ng'iroq qilib, Tilakjon betob, uning ijodiga bag'ishlab eshittirish tayyorladim. Shuni tezgina efirga bersak, eshitib zora umriga umr qo'shilsa, dedi. Biz ulgurdik, rahmatli Tilak aka eshitib, xursand bo'lganidan ham xabar topdik o'shanda. Samarqanddagi eng yaqin do'sti, professor Nuriddin Shukurov vafot etganida ham butun boshli xotira eshittirishni domlanning o'zi tashabbus ko'rsatib, tayyorlab keldi. Xullas, munosabatlarimiz shu darajaga yetdiki, Xudoning bergan kuni qo'ng'iroqlashib, bir-birimizdan holdon bo'lmasak uyqumiz kelmasdi. "Yozilmagan doston" badiamda aytganimdek, domla 1995-yili haj ziyoratida bo'lib qaytdi. O'sha yillarda, ba'zi bir sabablarga ko'ra, Moskvada yashashga majbur bo'lgan tadbirkor shogirdlaridan biri – Anvar Husayinov domla, bir Hajga borib kelmaysizmi, deb qoladi. E Anvarjon, bizga yo'l bo'lsin, deydi domla kulib. Nega unday deysiz, domla, nafaqat o'zingiz, qancha shogirdingiz bo'lsa, ayting, biz yuboramiz, deydi. Yo'g'-ey! Xo'p, deyavering, korporatsiyamiz homiylik qiladi. Domla bir kuni meni yoniga chaqirib, mulla falonchi, nima deysiz, bizga hamroh bo'lasizmi, deb turibdi. Quloqlarimga ishonmadim. Avvaliga xo'p dedim-da, keyin niyatimdan qaytdim. G'ulomxon G'afurov (*adabiyotshunos olim*)ga yorildim. Har qancha homiylik qilishganda ham, yoningda o'zingning uch-to'rt tanga puling bo'lishi kerak-ku, men bo'lsam, qip-qizil proletarman, domlaga uzrimni aytib qo'ysangiz, dedim. Yo'q, yo'q, dedi rah-

matli G'ulomxon aka bosh chayqab, bu gapni o'zingiz aytganingiz ma'qul, domlani xafa qilib qo'yamiz. Birgalashib bordik. Uzrimni aytdim. "Iye, bu qanaqasi bo'ldi, – dedi G'aybulla aka ranjigan qiyofada. – Men hali kimlarga ishonib yuribman-a!" "Domla, aytdim-ku..." "Bu bahona bo'lmaydi, mana sizga yuz dollar!" "Qarz olib hajga borish to'g'ri emas-ku, domla..." "Qarz emas, haligi tarjima qilayotgan kitobingiz hisobidan!" Boshqa gapga o'rin qolmadi. Rozi bo'ldim...

Yana gap avvaliga qaytsam. Ancha qo'lim kelib qoldi. Ishga shunchalik sho'ng'ib ketdimki, operatorlik, ba'zida rejissyor og'aynilarim hayallah qolishsa, ularning yo'qligini bildirmay, rejissyorlik ham qilib ketaveradigan darajaga yetdim. Qizig'i, bunga oddiygina operator qizning dashnomi turtki bo'ldi. Adashmasam, Jumaniyoz Sharipov degan keksa bir yozuvchining intervyusini yozib olishim kerak edi. Domlani studiyaga boshlab kiribman-da, ro'parasida o'tirib olibman men sodda. Jumaniyoz aka suhbatini boshladi, aniqrog'i, qog'ozga yozganlarini o'qib berdi. Keksalik sabab, bir-ikki joylarida yanglishdi. Apparatxonada o'tirgan qiz, oynadan menga qarab, qandaydir ishoralar qildi. Tushunmadim. O'tiraverdim. Keyin bilib olarman, dedim. Xullas, domlani kuzatib qo'yib, apparatxonaga kirdim. Nima gap, Vaziraxon, deganimni bilaman, e, qanaqa odamsiz, deb bobillab bersa bo'ladimi.

Ha, nima bo'ldi?

Nega studiyaga kirib oldingiz? Redaktor degani mana bu yerda o'tirmaydimi. Vistupayushiy adashsa, knopkani bosib, domla to'xtang, mana bu joyini boshqatdan o'qib bering, demaydimi?! Uzr, uzr, bilmabman.

Bilmasangiz, endi bilib olasiz. Mana lentangiz, montajniy topib, o'zingiz montaj qiling. Mening vaqtim yo'q...

Lattam suvga tushib, xonamga qaytdim. Haligi qiz o'zimga dashnom bergani yetmagan-day, tahririyatga ham kirib axborot berib ketibdi. Boshim gangib, qip-qizarib o'tirgan yerimda baraka topkur Matluba opa (Matluba Islomova, "Dugonalar" jurnalini tayyorlardi) degan muharririmiz shartta o'rnidan turdi-da, falonchi bu yoqqa yuring, dedi. Indamay ergashdim. Opa to'rtinchi qavatga boshlab chiqdi. Montajxona topib, birpasda haligi "vistupayushim" so'zida adashgan joylarini shartta-shartta qirqib, ulab chiqdi-da, magnit tasmasi o'ramini qo'limga tutqazdi. Haligi mahmadanaga oborib bering, yangi lentaga ko'chirsin-da, fonotekaga top-

shirsin, dedi. Shunchalik ish ekan-u anovi qiz... deya ajablandim. Rosa alam o'tgan ekanmi, nafaqat matnga aloqador yumushlarni, balki texnik xodimlar bajaradigan vazifalarni ham o'zlashtirib olishga kirishib ketdim. Natijada studiyaga kirib boraversam, qizlar quvonadigan, butun boshli studiya ixtiyorini menga topshirib, "zarur yumushlari"ni bajarib olgani chiqib ketadigan bo'lishdi...

Kunlarning birida Eminjon aka, hadeb qishloqqa qatnayverasizmi, oilani ko'chirib keling endi, deb qoldi. Ijaraga yaxshiroq joy chiqishini kutib yuribman, dedim. Joy bor, siz harakatingizni qilavering, dedi. Keyin meni Kelesga ketaverishdagi Kirov degan bir qishloqqa boshlab bordi. U yerda bo'sh hovli bor ekan. Hovli egasi Eminjon akaning tug'ishgan akasi bo'lib, u xizmat yuzasidan oilasi bilan boshqa viloyatga ko'chib ketgan. Ijara haqisiz, faqat hovli-joyga qarab turish sharti bilan yashab turadigan bo'ldim. Eminjon aka rahmatli shu taxlit mening yana bir muammomni hal qilib bergan edi.

Toshkentda ilk uchratganim yozuvchi-shoirlarning baridan nuqul yaxshilik ko'raverganim uchunmi, bu qavm aslan farishtaga yaqin yaratilgan ekan, degan xulosaga ham kelib bo'lgandim. Lekin... Yo'q, xulosada yanglishgan ekanman, demoqchi emasman. Hali hamon o'sha fikrdaman. Kitob o'qigan, boz ustiga qo'lga qalam tutib, qog'oz qoralashni uddalagan odamdan yomonlik chiqmaydi deb o'ylayman. Lekin... aytaylik, kimningdir omadi yurishavermadi, omadi yurishganlarga qarab dili og'riganday bo'ldi. Bu og'riq sekin-asta shayton qutqusi bilan alamga, alam hasadga aylana bordi. Shaytonga izn berdingmi, (O'zi asrasin!) imoning zaxa yeydi, bir kun qarabsanki alaman-giz, ojiz bir kimsaga aylanib qolibsana. Badiamni "Yaxshi odamlar" deb nomlaganman. Shu sababli onda-sonda uchratganim – bunday kaslarni eslamochi emasdim. Ammo boshqa bir sabab bilan ayrim birlarini til uchidagina aytib o'tmoqchiman. Xullas, bir hamkasbimiz bor edi. Yozuvchi sifatida o'zimiz qatori bo'lsa-da, radiojurnalist sifatida tengsiz edi. Shu og'aynimiz ikki gapning birida menga tanbeh berar, bir yildan oshdi, radiodasiz, nasr bo'limida ishlaysiz. O'zingiz ham hikoyalar e'lon qiling bunday. Bunaqa imkoniyat hammadayam bo'lavermaydi, derdi. Hayron qolardim, nasr bo'limida ishlashimning nima aloqasi bor? Yaxshi hikoya yozsam, chiqaveradi-da, derdim. Qishloqdan qo'ltiqlab kelgan

hikoyalarimni esa e'lon qildirishga yuragim betlamasdi. Har holda nasr bo'limida ishlab, turli saviyadagi asarlarni o'qiyverib, ozmuncha ko'zim pishib qolgan ekan-da. Nihoyat, yangi bir narsa tug'ildi-da, uni "O'zbekiston madaniyati" gazetasiga olib bordim. Nasr bo'limi boshlig'i Abduqahhor Ibrohimov hikoyani ma'qul topib, olib qoldi. Lekin ana-mana deguncha olti oylar o'tib ketdi ham, hikoya bosilmadi.

Yoshi ulug'lar yaxshi eslaydi: 1981-yilda taniqli yozuvchi va davlat arbobi Sarvar Azimov Yozuvchilar uyushmasiga birinchi kotib bo'lib keldi. Yangi rahbariyat yangicha ish tutdi. Ob-havo butkul o'zgarib, uyushma faoliyati jonlanib ketdi. Shu jarayonda uyushma muassisligidagi "O'zbekiston madaniyati" gazetasi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati"ga aylantirilib, O'zbekiston xalq yozuvchisi, yosh ijodkorlarning katta homiysi Asqad Muxtor bosh muharrir etib tayinlandi. Gazeta yangi nomda aprel oyidan chiqqa boshlagan bo'lsa, may oyining boshida mening "Poyandoz" degan hikoyam bosilib turibdi. Haligi og'aynim meni tabriklagan, ana bu boshqa gap, deya maqtagan bo'ldi. Lekin noyabr oyiga borib ikkinchi hikoyam ham "O'zAS"da bosilib chiqdi-yu, baloga qoldim. Og'aynim endi g'ayirligini yashirolmadi. Gazetaga borsam, avval falonchining hikoyalarini berib olaylik, keyin sizga navbat tegadi, deyishyapti, dedi. Yo'g'-e, dedim ang-tang bo'lib, yetti oy oralig'ida nahotki sizga navbat tegmagan bo'lsa?! Og'aynim bu bilan kifoyalanib qolmay, Opa (*bosh muharrir*)ga kiribdi. Go'yoki men "O'zAS"ning mas'ul kotibi bilan oldi-berdi qilib, ya'ni uning hikoyasini radioda berib, o'zimmikini gazetada chiqarib yotganmishman. Bu qattiq aybnoma edi. Opayam bu gapga laqqa tushib, bo'lim boshliqlarini chaqirib, bu masalani o'rganishni topshiribdi. Tohir aka kulibdi, nima Mamatqulning (taniqli adib M.Hazratqulov) hikoyalari ilgari radioda ketmayotganmidi?! Yaqin orada men uning biror narsasini berganimizni eslay olmayman, debdi. Opa, biz aksincha xursand bo'lishimiz kerak emasmi, debdi Eminjon aka dangaliga olib. Kechagina ishga olishda qancha ikkilangan edik. Ishni tortib ketdi. Mana endi yozuvchi sifatida Asqad Muxtor-day ustozning nazariga tushibdi, bu yaxshi-ku! Qolaversa, men domlani yaxshi bilaman, yaxshi asarni tutib turmaydi. Asar yoqmasa, avliyosi o'rtaga tushsayam bosmaydi...

Bu masala shu tarzda yopilib ketdi-yu, lekin mendagi karaxtlik anchagacha tarqamadi. Nahotki, odam degani shu qadar buqalamun

bo'lsa, deya tutaqardim damba-dam. Axir, aynan uning o'zi emasmi meni shunga targ'ib qilgan, og'ayni, nasr bo'limida ishlaysiz, bunaqa imkoniyat hammadayam bo'lavermaydi, degan.

Ko'p o'tmay o'zimga keldim. O'ylab qarasam, bekorga tutaqibman. Aksincha, quvonishim kerak ekan. Kimningdir hasadini qo'zg'abmanmi, demak, menda ham nimadir bor ekan... Bo'lib o'tgan gap-so'zlardan chiqargan xulosam to'g'ri ekan, shekilli, ko'nglim o'z-o'zidan yo-rishib borayotganini payqadim... Ha, darvoqe, bu noxush hodisani eslab o'tishimdan maqsadim boshqa edi. O'shanda yangilangan adabiy gazetamizga bosh muharrir bo'lib kelgan Asqad aka ishni tahririyat papkalarida yig'ilib yotgan asarlar bilan tanishishdan boshlagan ekan. Aytishlaricha, bir hafta bosim o'tirib, hikoyalar, she'rlar, publitsistik asarlarni bittalab ko'zdan o'tkazadi, saralaydi va shunda mening sarg'ayibgina yotgan hikoyam ham qo'lga tushib qoladi.

(O'rni kep qoldi, aytib o'tay: o'sha yet-mish-saksoninchi yillar muhit bir muncha yumshagan davrlar ekan. Undan avvalroq esa... aytishlaricha, "O'zbekim", "O'zbekiston" qasidalarini, "Temur tuzuklari"ni kimlardir (Asqad Muxtor, Ibrohim Rahim kabilar) boshlarini kundaga qo'yib, e'lon qildirishgan ekan. Hatto o'shanda respublikaning birinchi rahbari ham o'rtaga tushishga majbur bo'lgan deyishadi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Zulfiya opa kabi zabardast insonlar himoyasida ham qanchalab iste'dod nihollari omon-eson qad rostlab olgani haqida eshitib yurardik. Masalan, men o'zim esa Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi atoqli adiblar, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim Haqqul singari haqgo'y olimlar, bolalar adabiyotidan Nosir Fozilov, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyevdek jonkuyar insonlar ne-ne iste'dodlar boshini silab, ularni is-siq-sovuq shamollar xurujidan asrab qolganiga guvohman).

Asqad akaga uchradingizmi, deyishdi. Yo'q, nimaydi? Har holda rahmat aytib qo'ygan yaxshi. Shartmikin, dedim cho'chinqirab. Tortin-mang, boring, qoidasi shunaqa.

Ming bir istihola-yu hayajon bilan yo'lga chiqqandim, uchrashuvimiz jo'ngina o'tdi. Uyushmadagi tadbirlarda uzoqdan ko'rib yurardim, ammo o'zi bilan birinchi marta yuzma-yuz kelishim, ko'rishishim edi. Domla, men rahmat aytgani kelgan edim, dedim. U indamay, sinchi

nigoh bilan kulimsirab qarab qo'ydi. Hikoyam chiqqan edi. Ha, sizmidingiz? Ha, domla, minnatdorman... Qayerdasiz, so'radi Asqad aka mulozamatimga ortiqcha e'tibor qilmay. Radiodaman, Litdramda. Ha, yaxshi joy, O'lmas ishlagan, Omon Muxtor. Bilishimcha, hozir Tohir, Eminjonlar o'sha yerda... Bo'пти, qatnashib turing. Yaxshi narsalar yozing...

Aytishardiki, kimning asari Asqad Muxtor imzosi bilan e'lon qilinsa, bu katta omad. Mana falonchi, falonchilar hammasi Asqad Muxtor tufayli katta yo'lga chiqib olishgan... Shularni o'ylarkanman, ich-ichimdan quvonib qo'yaman: demak, endi mening ham... Ayni choqda ichimga xavotir oralaydi. Qatnashib turing, yaxshi asarlar yozing, dedi Asqad aka. Lekin yaxshi asarlar yozishga imkon bo'larmikin? Ishimdagi nafas oldirmaydigan yugur-yugurlar yo'l berarmikin?.. Radio degani konveyerday gap bo'lsa, hafta almashib kelaversa. Efir deganni to'ldirib bo'lmasa... Yo'q, to'xta deyman, birdan hushyor tortib. Sen nimalar deyapsan? Bu anovi bolaning gaplari-ku. Nima balo, senam virus yuqtirib oldingmi undan?! Uning ta'siriga berilyapsanmi halitdan?!

Darhaqiqat, ishga kelibmanki, hali aytib o'tgan hamkasb og'aynim bir gapni takrorlaydi: Falonchi do'stim, – deydi ko'pni ko'rgan yoshulliday salmoqlab, – ko'rib turibman, ishga kirishib ketdingiz. Omadingizni bersin. Lekin bitta narsani unutmang: Radio, bu – iste'dodlar qabristoni!.. Yo'g'-e, deyman ajablanib, unchalik emasdir. Ha, ishonavering. Ko'rib yuribmiz-ku. Mana o'zingizni oling: kechasi uxlamay ssenariy yoza-siz, studiya, montaj deb chopasiz. Tayyorlaysiz. Rahbarlarga eshittirasiz. Albatta, kamchilik topishadi, topish ularning vazifasi. Peremontaj qilasiz. Nihoyat, efir. Efir degani havoga uchdi, ketdi degani. Birov eshitsa, eshitadi, eshitmasa yo'q. Lekin yozilgan asar qoladi... Tushunaman, oila bor. Tohir akangiz aytganday, besh bolali yigit-chasiz. Tug'dirib qo'ygandan keyin boqish kerak. Shuning uchun ishlamang, demayman, ishlang, eshittirish qiling, insseniroyka qiling, pul toping. Lekin qattiq ko'ngil qo'ymang. Ko'proq ijod qiling. Toshkentga radiochi bo'laman deb kelmangansiz-ku, to'g'rimi?! Bunday tashqariga ham qarang, gazeta bor, jurnal bor. Ularga hikoyalardan bering. Nasr bo'limida ishlaysiz, hurmatingiz bor, foydalanib qoling-da, og'ayni. Yozyapsizmi o'zi? Yozish kerak, do'stim, yozish kerak. Unutmang, radio faqat gonorar ishlashga yaraydigan joy. Boshqa hech narsa emas...

Uning nasihatlarini indamay eshitaman. Ba'zida g'ashim kelsa-da, sabr qilaman. Har holda g'ayirlik qilib gapirmayotgandir, ayrim gaplari jo'yaliga o'xshaydi-ku, deyman. Lekin bir narsasini, tarbiyam sabab bo'lsa kerak, sira qabul qilolmayman: odam o'zi ishlayotgan, rizq topayotgan joyiga nisbatan ham shuncha bepisand bo'ladimi? Bu noshukurlik emasmi, deyman. Radioda obro'si zo'r bo'lsa, mudom maqtalib yursa, Opaning erka muharriri bo'lsa, nega buncha g'ingshiydi bu bola. Ijodda omadi chopmagan bo'lsa, bechora radioning nima aybi bor. O'lmas Umarbekov, Omon Muxtor, Anvar Eshonov, Erkin Azamov degan mashhur ijodkorlar radiodan chiqishmaganmi?! Tohir Malik, Emin Usmonovlar radioda ishlab ham ketma-ket kitoblar yozib yotishibdi-ku! Usmon aka (Usmon Azimov)ning qaysi bir shoirdan kam yeri bor?! Menimcha, hammasi odamning o'ziga bog'liq, deya o'zimni tinchitishga urinaman. Anovi bolaning ta'siriga berilmasligim kerak...

Xayriyat, bu narsa ko'pga bormadi, hali aytganimday, ikkinchi hikoyam bosildi-yu og'aynimning "misi" chiqdi. Uni endi jiddiy qabul qilmaydigan, aksincha... achinadigan bo'ldim. O'zi yomon yigit emas-u... har to'kisda bir ayb bo'lmasa bo'lmaydi-da. O'zimam farishta emasman-ku.

Bir safar familiyadosh Opam – bosh muharririmiz xonasiga chaqirdi. Qandaydir topshiriq berdi-da, bir mavridi kep qoldimi, oilam, bolalar, ularning o'qishi, bog'chasi haqida surishtirgan bo'ldi. Keyin, shu, sizga qarab, ko'pdan beri bir narsani o'ylab yuraman, dedi kulimsirab. Niman, opa, dedim. Yuragingiz otning kallasiday ekanmi, deyman-da. Yo'g'-e, nega? Beshta bola bilan shundan shunga kelishga hammayam jur'at qilavermaydi-da. Ijarada yashashning o'zi bo'ladimi. Bir o'zingiz ishlaysiz. Shuncha tashvishdan ortib, ijod qilishni aytmaymaysizmi! Ayrim yigitlarimizga taqqoslab aytyapman-da. O'ttizga kirib uylandi. Bittagina qizchasi bor. Hasrati dunyoga sig'maydi. Siz bo'lsangiz, o'ynab-kulib ishingizni qilib ketaverasiz. O'zim musofirchilikni ko'rmagan bo'lsam-da, Xayrulla* akangizga qarab, aytaman-da. To bitta uylik bo'lgunimizcha, tinim bilmaganlar. Kechasi bilan mijja qoqmay kitob tarjima qilardilar. Ertalab uxlab-uxlamay ishga ketardilar.

* Xayrulla Ergashev – taniqli tarjimon, Opaning turmush o'rtog'i. G'afur Gulom nashriyatida ko'p yillar muharrir bo'lib ishlagan edi rahmatli.

Uchta bolani katta qilish bizgayam oson bo'lmagan. Shunaqa gaplar-da... Mayli, boravering ishingizga.

Xo'p, opa, rahmat, deya o'rnimdan turgan yerimda opa yana gap qotdi. Ha, yana aytmoqchimanki, ayrim gaplarga e'tibor qilmang. Ish bor yerda bo'p turadi shunaqasi ham. Xo'pmi?..

Ishonsangiz, qushday yengil tortib ketdim. Iye, Opa yaxshi ayol ekan-ku, men bo'lsam... Rostdanam, u ochiq yuzli, xushchaqchaq, xodimlarga mehribon, eng muhimi, radioni yaxshi tushunadigan, tashkilotchi rahbar edi. Erkaklarcha tantiligi ham yo'q emasdi. O'shandan chamasi bir-ikki yil o'tib familiyadosh opam – Nasiba Ergashevaning lavozimini ko'tarib, direktorlikka o'tkazishdi.

U bu vazifani ham bermalol uddalab, besh-olti yil yaxshi ishladi-da, obro'-e'tibor bilan nafaqaga chiqdi. Haj ziyoratiga borib keldi, hoji ona bo'lib, ancha yillar farzandlari ardog'ida yashadi. Alloh rahmat qilsin...

Ana-mana degancha oradan qirq yil o'tib ketibdi. Bu orada yana qanchadan qancha yaxshi odamlarni uchratdim, ularning marhamatidan bahramand bo'ldim, saboq oldim. Eh-he, qay birini aytay... Ammo yo'qotganlarim ham oz bo'lmadi.

Bularning ham qay birini aytay...

Mashrab Boboyev... *"Hayot – abad, umr – soat. Qahr mo'ldir, mehr – qahat. Unutmagin shuni faqat. Ko'nglima, ko'nglima, ko'nglim..."* degan dilbar qo'shiqning muallifi Mashrab Boboyev... Bu yurtoshimni Toshkentda topdim. Yanglishmasam, bizni Eminjon aka tanishtirib qo'yan edi: qani ikki samarqandlik, tanishib olinglar, degandi. Mashrab akani sirdan bilardim, hatto "Kelinchak" degan hikoyamni u kishining "Visol" nomli hikoyasi ta'sirida yozgandim. O'sha birinchi uchrashuvdayoq qandaydir ko'rinmas rishta bilan bog'lanib, aka-uka bo'lib qolgandik.

1982-yilgi Yosh ijodkorlar seminarida Mashrab aka yosh yozuvchilar guruhi rahbari sifatida mashg'ulotlarni boshqarib borgandi. Mashg'ulotlar quyidagi tartibda o'tardi: har kuni kamida to'rtta yozuvchi o'z asarini (asosan hikoyasini) o'qib beradi. Keyin o'zaro muhokama qilinadi. Oxirida guruh rahbari yakuniy xulosani aytadi. O'shanda Mashrab aka, keyin eshitishimcha, bir gapni aytgan ekan. Jarroh o'z yaqin odamini operatsiya qilishga cho'chirkan.

Shunga o'xshab men ham falonchidan (ya'ni, mendan) xavotirda edim, degan ekan. Xayriyat, "operatsiya" yaxshi o'tdi. Hatto seminarining

yakuniy yig'ilishida Odil Yoqubov, (ayniqsa) Sunnatillo Anorboyev kabi ustozlarimiz men haqimda ham alohida to'xtalib, umidli gaplarni aytishdi. Bu bir tarafdin bo'lsa, ikkinchi tarafdin Mashrab akaning "yaqin odami" sifatida u kishining ishonchini oqlay olganim meni rosa quvontirgandi... Mashrab akaga bog'liq yana bir gurungni eslab o'tgim kelyapti. Unda televideniyeda ishlayman. Mashrab aka qo'ng'iroq qilib qoldi. Ishdan qaytishingizda bir kirib o'tsangiz... Xo'p, dedim, yo'l usti Axborot agentligiga kirdim. Mashrab aka allanechuk taraddud bilan qarshi oldi. Kofemi yoki limonli choy ichasizmi, dedi. Hech narsa kerakmas, ovora bo'lmang, desam ham ko'nmaydi. Bo'пти, choy ichamiz, dedim. O'zini xiyol boshqacha tutayotganidan ajablanib borayapman. Bir piyoladan choy ichib bo'lindi ham, gapimiz qovushmaydi. Oxiri sabrim tugab, Mashrab aka uylar tinchmi, dedim. Yangam, jiyanlar. Yaxshi, yaxshi, ha, shu Abdulla jiyaningiz tashvishi-da. Shuni uylab qo'ysak, degandim. Ha, albatta, qanaqa xizmat bo'lsa tayyormiz... Xizmat yo'q-ku, shu ochig'ini aytsam, suyagimiz yaqin, bir yerning odamimiz. Quda bo'lsak, demoqchiman qisqasi, dedi-da, gapini aytib olganidan yengil tortdimi, kreslo suyanchig'iga yastandi. Mayli, men roziman, dedim, siz so'raysiz-u, yo'q deymanni... Shunday deyaapman-u o'zimni arang tutib turibman: hademay paq etib kulib yuboradigan ahvoldaman. Mashrab akaning chehrasi ochildi. E, yashang, mana bu o'g'il bola gap bo'ldi. Demak... Ha, Mashrab aka, roziman, dedim iljayib. Faqat... qizimni berib yuboraman-u, yangam ikkovlaringiz katta qip olasizlar-da. Yo'g'ey, shunchalik yoshmi? Endi to'qqizga kirdi. Toshkentda tug'ilgan-da...

Mashrab aka – taniqli shoir, yozuvchi, dramaturg, birinchi o'zbek milliy teleseriali ("Ko'ngil ko'chalari") muallifi, lekin hayotda o'ta oddiy, jaydari, darvishtabiat inson edi. 2003-yil (onam bilan oldinma-keyin) o'tdi. Undan oldinroq – 2000-yil 31-yanvarda G'aybulla as-Salom ustozimiz Toshkent davlat universitetiga Milliy universitet maqomi berilganiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlay turib, minbarda uzildi. O'shanda oradan rosa 21 kun o'tganida tush ko'rdim: yorug', taskinbaxsh tush. Tushimda Ustoz aytarmish: O'sha kuni minbardan qulab boryapman-u yerga qattiq tushmasaydim, deb o'ylayman. Bir mahal ko'zimni ochib qararam, vo' ajab, parday yumshoq maysa ustida, gulzor ichida yotibman...

2010-yil Sadridin Salim Buxoriy, 11-yilda Matnazar Abdulhakim, 12-yilda Najmiddin Komilov, keyinroq Pirmat Shermuhammedov, Tursunboy Adashboyev, Nosir Fozilov, Botir Norboyev... mana endi yaqindagina Tohir Malik ustozimiz dunyoni tark etdi. Tohir aka bilan so'nggi bor 22-aprelda (2019) ko'rishdik. Tursunboy Adashboyevning 80 yilligini o'tkazgani O'shga borishimiz kerak edi, Tohir aka uzrini aytdi. Men televideniye-dan operator chaqirtirib, Tohir akaning Tursunboy aka haqidagi xotiralarini yozib oldim. Bu videoyozuv O'sh davlat o'zbek drama teatrida bo'lgan katta tadbir avvalida qo'yib berildi. Tohir akani tanigan, Toshkentda, O'shda, O'zganda u bilan uchrashgan juda ko'p qadrdonlari, jumladan, Shayx Alovuddin Mansur hazratlari ham ustozning gaplarini maroqlanib tinglashdi. Tohir aka xasta holida ham hazilkashligini qo'ymay, Tursunboy aka bilan bog'liq quvnoq voqealarni eslagan, eng hayratlanarlisi esa, uning gaplari zahirida o'lim do'stlarni ajratolmasligi, judolik abadiy emasligi, oldinda yana diydor ko'rishuv muqarrarligi va bu uncha uzoq emasligiga ishora bor edi. "Biz qiyomatlik aka-ukalar edik, tongi mahsharda, inshaolloh, yorug' yuz bilan ko'rishamiz", deb yakunlagan edi so'zini... Toshkentga qaytgan kunimning ertasiyoq uylariga qo'ng'iroq qildim. Qadrdonlar duo-yu salomini yetkazib, Tohir akani quvontirmoqchi edim. Qarangki, xuddi o'sha kuni operatsiya (bu o'n birinchisi edi) qilangani, hozir uyquda ekanligini aytishdi. Oradan yigirma kun o'tib esa...

"Rivoyatda kelishicha, bir podsho ikki shoirga bittadan yaxshi bayt aytinglar, debdi. Shoirlar bittadan bayt aytishibdi. Bittasi o'z she'rida bu dunyoda faqat yaxshilik qilib yashagin, desa, ik-

kinchisi, bu dunyoda hecham yomonlik qilmasdan yashagin, degan ma'noda bayt aytibdi. Podsho birinchisiga ko'proq, ikkinchisiga kamroq hadya beribdi. Shunda vazir ajablanib, Podshohim, ikkisi ham bir xil ma'noda she'r aytdi-ku. Biri yaxshilik qilgin, deyapti, ikkinchisi yomonlik qilmagin, deyapti-ku?! Nega biriga ko'p, biriga kam hadya berdingiz, debdi. Gaping to'g'ri, debdi podsho, lekin baribir birinchi shoirning she'rida yaxshi niyat bor edi, yaxshi degan so'z bor edi..."

(Tohir Malikning "Hayotdagi men" teleko'rsatuvidagi suhbatidan)

Nima desam ekan, Tohir akaga bog'liq qanday xotira yodinga tushsa, dilim yorishadi. Hali nasib etsa, alohida xotiralar yozarman, biroq shu o'rinda ayrim bir lavhalarni eslab o'tishdan o'zimni tiyolmayapman.

1982-yil edi. Har galgidek birinchilar qatori paxta hashariga otlanib turgan yerimda nashriyot rejasida turgan kitobim taqdiri haqida eshitib, ruhim tushib ketdi: "Avtorning birinchi kitobi" ruknidagi kitobcham 1983-yildan 84-yilga o'tib ketibdi. Bu ham yetmaganday, alohida emas, jamoaviy to'plamda chiqarmish. Paxtadan qaytgan kunim esa boshqa bir xushxabar meni qarshi oldi. Tohir aka telefon qildilar, dedi Toir Yunus birodarim jilmayib. Besh bolali yigitchadan suyunchi olinglar, dedi. Rostdanmi, nimagaga? Kitobingiz 83 ga ko'chibdi. Alohida chiqadigan bo'пти. Tohir aka muharrir ekanlar...

Bu paytda Tohir aka radiodan G'afur G'ulom nashriyotiga o'tib ishlayotgan edi. Borib uchrashdim. Kitobchani maslahatini qildik. Hikoyalarni saraladik. Tahrirdan chiqarib, bosmaxonaga tushirish oldida, Tohir aka bu yerdan ham ishdan ketdi.



Mavridi kep qoldi, aytib o'tay, Tohir akaning odati – bir yerda uzoq ishlay olmasdi. Nimadir yoqmay qolsa, kimningdir g'ayirlik qilganini sezsa, bo'ldi. Talashib, tortishib umrini o'tkazib yurmasdi. Men ham u kishiga taassub qildimmi, bilmadim, 1990-yil oxiriga borib jamoa muhiti xiyol ayniganday bo'luvdi, radiodan “Kamalak” (sobiq “Yosh gvardiya”) nashriyotiga o'tib ketdim. Bir yil havas bilan ishladim. Keyin u yerda ham ob-havo o'zgardi. O'zbekiston xalq shoiri, nashriyotni yelkasida tutib turgan (bu mubolag'a emas) tajribali noshir Xurshid Davronga nisbatan adolatsizlik qilindi. Va biz bir guruh haqiqatchilar (oramizda “Yoshlik” jurnali bosh muharriri Tohir Malik, “Sirli olam” jurnali bosh muharriri Hojiakbar Shayxov, mashhur shoir Sulaymon Rahmon, ozariy olim yigit Yashar Qosimlar ham bor edi) uch oy kurashdik. Oxirida dumimiz tugilib, ishdan ketdik. Aniqrog'i, ketish oldidan ta'tilga chiqdik. Ta'tilga chiqib, qishloqqa ketganman, uyimizga uch marta qo'ng'iroq bo'libdi. Birodarim Toir Yunusdan. Radioga kelsinlar, gap bor, deganmish. Bordim. Aka, o'rningizga qayting, ob-havoni tozaladik, dedi. Paysalga solib o'tirmadim, qaytdim...

2007-yil. Televideniyeda ishlab yuribman. “Qalb gavhari”, “Ruhiyat manzaralari”, “Ishqnom”, “Ibratnoma”, “Odami ersang” degan qator ko'rsatuvlar muallifiman. Ishimga berilganman. Xuddi o'sha kezlar G'olibsher degan “ma'naviyatchi” laqabli bir azamat kompaniya raisiga o'rinbosar bo'lib ishga keldi. Kelganim bilinsin, dedimi, ajabtovur ishlarni boshlab yubordi. Dam televideniyeda, dam radioda odamlarni yig'ib, uch-to'rt soatlab majlis o'tkazadi. Kimnidir sal mudroq bossa, sho'ri quriydi. Aybdor o'quvchidek oyoqqa turg'azib qo'yiladi. Katta-katta obro'li rahbarlarni (jumladan, Nazar Eshonqul singari mashhur yozuvchilarni ham) ko'pchilik orasida “Ma'naviyat degani nima o'zi?” deya so'roqqa tutadi. Hech kimning javobi qoniqtirmaydi. “Unday emas, bitta jumlada javob bering”, deydi. “Bitta jumla”ni bitta so'z deb tushunsa kerak-da. Qisqasi, shu odamga (falokatim qisib) men ham ro'para keldim. Uning qabulxonasida kechki navbatchilikda turibman. Bir mahal ikki sherigi (biri qiz) bilan kirib keldi-da, men tomonga qarab ham qo'ymay, xonasiga o'tib ketdi. Sheriklari haytovur bosh irg'ab salom bergan bo'lishdi. O'tiribman tiq etgan ovozga quloq tutib. Bir mahal ichkaridan chaqiruv qo'ng'irog'i bo'ldi. Eshikni ochib qaradim. Manavini opchiqib keting, dedi. Nimani, dedim

tushunmay. Pepelnitsani, dedi dag'al ovozda. Qarasam, stol chekkasida kuldon, kuldonda atigi bir dona gugurt cho'pi turibdi. Guv etib miyam qizidi. Nima uchun, dedim o'jarligim tutib. Nimaga bo'lardi, shuniyam tushunmaysizmi?! Tushunmayman! Shundaymi?! Shunday!..

U yonidagi sheriklari, ayniqsa, qizning oldida ortiqcha izza bo'lishni istamadimi, amallab kulim-siradi. Qo'li bilan ishora qildi: bo'пти, chiqavering...

Ertasi ertalab ishga keldim-da, hammani hayron qoldirib, ishdan ketishga ariza yozdim. Sababini aytib o'tirmadim. O'sha kezlar Rauf Subhon degan shoir birodarimiz meni yoniga ishga chaqirib yurgan edi. Unga qo'ng'iroq qildim. Bo'пти, borganim bo'lsin, dedim-da, Adliya vazirligiga tegishli “Adolat” nashriyotiga ishga ketdim. Rauf birodarim bo'lsa, meni kutib yurgan ekan, shekilli, hayal o'tmay bosh muharrirlik vazifasini menga topshirib, o'zi ketdi-bordi. Xullas, bu yerda ham bir yarim yil javlon urishimga to'g'ri keldi. Kitob chiqaramiz, ayrim jumla tuzishlar g'aliz tuyuladi, muharrirligim tutib qalam urgim keladi. Hay-hay deb to'xtatib qolishadi. Bu sizga roman-u qissamas. Qonun hujjati. U bejama so'zlarni ko'tarmaydi, deyishadi. Xullas, bo'larim bo'ldi. Nihoyat, kunlarning birida haligi “ma'naviyatchi” xususida yangilik eshitib qoldim. Bir yarim yil birov mushugini pisht deyolmagan, butun kompaniyani o'tqazib-turg'azgan (o'zining iborasi) azamat, borib-borib qoraqalpoqlar diyorida ta'zirini yebdi. Tafsiloti esimda yo'q-ku, lekin o'shanda bir kundayoq pattasini qo'lga tutqazishgan ekan. Ichimga o't tushdi. O'zi menga ko'z ochib ko'rganim – teleradiokompaniyadan boshqasi to'g'ri kelmas ekan, dedim. Yuzimni shartta sidirib, qadrdon ishxonam eshigiga bosh urib bordim: yuzimdan o'tisholmadimi, ayashdimi, Xurshid Davron, Ahmad A'zam degan yaxshi insonlar o'rtaga tushishib, ishimga qayta tiklashdi. Avvaliga yarim stavka, keyin o'rin bo'shadi, shekilli, to'liq stavkaga o'tqazishdi. Yana boz-boyagiday ishga tushib ketdim. Yangi kuch, yangi rejalar bilan deganday... Xullas, radioga ham, televideniyega ham ikki qayta ishga kirib, ikki marta bo'shaganman. Bundan tashqari “Kuch – adolatda” nomli Oliy sud gazetasida (ikki oy), “Bekajon” gazetasida (ikki marta – birinchi gal to'rt oy, ikkinchisida o'n bir oy), “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida (bir yarim yil), “Sharq yulduzi” jurnalida (ikki yarim yil) o'rindoshlik asosida ishladim. Ba'zida bunaqa ko'chib yurishlarimni Tohir Malikning

shogirdiman-da, deya maqtangannamo izohlab qo'yaman. Lekin unday desam, qishloqda chorva buxgalterligiday "yog'li" ishimni tashlab, o'ziming zararimga bo'lsa-da, maktabga o'tib ketganim-chi?! Xullas, bilmadim, lekin xalqimizning ardoqli adibi Tohir Malikning boshqa fazilatlariga, masalan, matonatiy-u sabr-bardoshiga, donishmandligi-yu sokinligiga, sermahsulligi-yu kamsuqumligiga havas qilib, taassub qilib, unga o'xshashga intilganimda va bu fazilatlaridan ozgina yuqtira olganimda edi, bu endi chinakamiga maqtashga arzigulik ish bo'lardi...

* * *

Tursunboy Adashboyev... Kichkintoylarning katta shoiri bilan ko'pdan salom-aligimiz bor edi, u kishi haqida ko'rsatuv ham tayyorlagan edim. Ammo Yozuvchilar uyushmasiga kelib, salkam bir yarim yil hamxona bo'lib ishlab, uni qayta boshdan kashf qildim. Tursunboy akaning keyingi yillarda maoshsiz ishlashi, shu holatda ham uyushma boshqaruvidagi oylikxo'r xodimlardan kam mehnat qilmasligi, ta'bir joiz bo'lsa, bolalar adabiyoti mehvariga aylanib qolganiga guvoh bo'lib, hayratga tushdim. Ammo Tursunboy aka bu narsani fidoyilik emas, oddiy burch deb bilardi. Hech kim ota-onasidan yozuvchi-shoir bo'lib tug'ilmaydi, derdi u. Har qancha tug'ma iste'dod bo'lmasin, ustozsiz ish bitmaydi. Masalan, men o'zim Mirtemir, Quadrat Hikmatlar sabab oyoqqa turdim. Agar endi ulardan olganimni o'zimdan keyingilarga o'tkazmasam, o'rtadagi zanjir uzilmaydimi?!

Yoshi bir yerga borib qolgan odamning qishda isimaydigan, yozda sovutilmaydigan xonada bosim o'tirib, nuqul qo'lyozma o'qishi, tahrir qilishi, olis-olis qishloqlardan qora tortib keladigan musofirgina bolalar ijodkorlarini qabul qilishi, ular bilan boshlashib, gazeta, jurnallarga, nashriyotlarga qatnashi, o'gay nazar va e'tiborsizlik sabab ijodan sovub "uzlatga" chekingan Zafar Isomiddin (Farg'ona), Xudoyberdi Komilov (Samarqand), Ne'mat Dushayev (Angren), Sodikjon Inoyatov, Erpo'lat Baxt (Xorazm) singari qanchalab ozurdaqalb ijodkorlarni izlab topishi, goh nasihat, gohida koyishlar bilan yuragiga qayta cho'g' solishi, kitoblarini chiqartirishi, Hamza Imonberdi, Abdurahmon Akbar kabi marhum shogirdlarining oilalaridan boxabar bo'lib turishi... e, qay birini aytay...

Xullas, aytmoqchi bo'lganim, Yaratganga shukurki, Toshkenti azimda kechgan qirq yillik hayotim davomida bunday insonlarga juda

ko'p bor duch keldim. Va ijodkor qavmi aslan farishtaga yaqin yaratilgan ekan, degan o'sha dastlabki xulosamga qayta-qayta amin bo'ldim.

* * *

P.S. Sobiq sinfdoshim qo'ng'iroq qilyapti. Maslahating kerak, deydi.

Tinchlikmi, nima gap, dedim.

Ha, shu bir nevaram bor, maktabda dars beradi. Xotini, bitta o'g'ilchasi bor. Ikki gapning birida sanga o'xshab Toshkentga ketaman, deydi-da. Bir paytlar otasiyam, sani o'quvching, shunaqa uchib-qo'nib ko'ruvdi, Toshkentda sanga qovurib qo'yibdimi, deb yaxshilab so'kib beruvdim, bo'ynini qisib qoluvdi. Endi bo'lsa o'g'li... E, jo'ra, o'g'illi ishi oson ekan, ja bo'lmasa, bitta shapaloq bilan esini kiritib qo'yasan. Lekin nevaraga tish o'tmas ekan. Shashti baland, odamga gap bermaydi. Bobo, siz tushunmaysiz, man Toshkentda yashashim kerak, deydi. Boshqalarga o'xshab Rossiyaga, Turkiyaga, Koreyaga ketaman desa, tushunardim. Yo'q, bu Toshkentga shoir bo'lgani bormoqchi...

Yozganlari chiqib turibdimi, dedim sinfdoshimning gaplaridan hafsalam pir bo'lib. (Boshqalarga o'xshab xorijga ketaman desa, tushunarmish!)

E, shu... "Oqdaryo ovozi" degan bir parcha tuman gazetasi bor. O'shanda bir-ikki ko'rganday bo'luvdim. Sanga qo'ng'iroq qilayotganim: o'zing bir nasihat qilib qo'ysang.

Nima deyishim kerak?

Ha, shu aytasan-da, tanlagan yo'ling oson emas, boshimdan o'tdi, degin. Yo zaring, yo zo'ring bo'lmasa, kelib yurma degin.

"Tavba, qirq yildan keyin ham shu gap-a! deyman ichimdan zil ketib. Qachon qutilarkanmiz bunaqa umidsizlikdan..."

Shashtini baland dedingmi?

E, vopshe bo'yin beradiganga o'xshamaydi. Otasi qo'ydakkina edi, bu chatoq. O'zimga tortganmi, deyman-da!..

Mayli, aytib ko'raman, dedim nimadandir ko'nglim yorishib, lekin foydasi bo'larmikin.

Nimaga bo'lmaydi, u sani yaxshi ko'radi, gapingga kiradi...

Bilmadim, bilmadim, ijod dardi bilan qattiq og'rigan bo'lsa, aytishdan foyda yo'q, baribir qaytmaydi. Ijod dardi og'ir, jo'ra.

Tushunmadim, qanaqa dard?

Tushunmaysan, jo'ra, tushunmaysan. Lekin san xavotir olma, hammasi yaxshi bo'ladi. Faqat xalaqit bermasang bo'ldi...



UZBEKISTONLIK ALABALARNING AQDIRI AFSILOTLARI



Naim KARIMOV,
akademik

Yana bir necha yildan keyin muhim tarixiy voqea – o‘zbekistonlik yoshlarning 1922-yili Germaniyaga o‘qishga yuborilganiga 100-yil to‘ladi.

Bu voqea, garchi o‘sha davrda kutilgan natijani bermagan bo‘lsa-da, yetmish nafar o‘zbekistonlik talabani Germaniyadagi o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olishi o‘z davrida qanday katta aks-sado bergan bo‘lsa, hozir ham o‘zbek jamiyatini shunchalik hayajonlantirib keladi. Agar sovet davlati bu yoshlarning yaqin kelajakda yuqori malakali milliy kadrlar bo‘lib yetishishlaridan, Germaniyadagi ilmiy-texnik va madaniy taraqqiyot ta‘sirida o‘zga kishilar bo‘lib qaytishlaridan qo‘rqmagani va tashvishga tushmaganida, Germaniyaga talabalar yuborish amaliyoti davom etgan va O‘zbekiston Respublikasi o‘tgan asrning 30-yillaridayoq SSSR tarkibidagi eng ilg‘or va taraqqiy etgan respublikalardan biriga aylangan bo‘lardi. Bundan manfaatdor bo‘lmagan sovet davlati dastlab talabalarning SSSRga qaytib, Rossiyaning Moskva, Leningrad kabi shaharlaridagi o‘quv yurtlarida o‘qishlari lozim, degan qarorga keldi, o‘z orzu va maqsadlarida qat‘iy turib, Germaniyada o‘qishni tugatib, vatanlariga qaytganlaridan keyin turli sohalarda ko‘tarinki kayfiyat bilan halol xizmat qilayotgan sobiq talabalarni qirib tashladi. O‘zlarini ham shunday fojia kutayotgan boshqa talabalar esa o‘zga mamlakatlarda qolib, shu mamlakatlarning taraqqiyotiga hissa qo‘shdilar.

Tarixga bir nazar

1922-yilning sentyabrda o'zbekistonlik yoshlar Yevropa ilm-fani yutuqlaridan bahramand bo'lish uchun nemis tuprog'iga qadam qo'rganlarida, Germaniyaning barcha ilmiy-o'quv markazlarida tahsil olayotgan ruslar soni 10 ming, yaponlar 4 ming, usmonli turklar 2 ming, eronliklar va afg'onlar 500, arablar esa 200 nafar bo'lganlari holda O'zbekistondan birgina Abdurahob Murodiy o'z yo'li bilan borib, Gyote va Geyne vatanidagi oliy o'quv yurtlaridan birida tahsil olayotgan edi. Bu raqamlarni ko'rib, hayratga tushgan turkistonlik taniqli ma'rifatparvar Salimxon Tillaxonov "Chetga ko'proq o'quvchilar yuborish kerak" ("Turkiston" gazetasi, 1923-yil 11-mart) degan maqolasida jo'shib yozgan edi: "Germaniyada Rossiyaning 10 000, Yaponiyaning 4 000, Turkiyaning 3 000, hatto Xitoyning 3 000 talabasi bor ekan. Mana bu hisobga qaraganda, 12 million nufusga molik Turkistonimizdan 70 nafargina talabaning bo'lishi hech vaqtda bizni qanoatlantira olmaydir. Harakat qilib, kelg'usi yillarda Ovruponing har burchagiga 70 minglab talabalar yuborishimiz kerakdir. Bizning do'xtirimiz, adibimiz, muarriximiz, texnigimiz, faylasufimiz va hokazo ulug' ishchilarimiz, yo'l boshlag'uvchilarimizni o'z ichimizdan chiqarishimiz lozimdir. Tajribalik do'xtirlarimizning yo'qligidan elimizning buyuk qismi qo'rqinchli yuqumlik kasalliklar bilan dunyoga vaqtsiz vido etmoqdalar. Tarbiya yo'sinini bil-maganimiz uchun yangi tug'ilgan bolalarning 30 – 40 foizi o'lib ketadir. Toshkentning o'zida bizga qaraganda ozgina bo'lgan ovropoliklarning 100 ga yaqin do'xtirlari bor. Bizda bo'lsa, sog'ni kasal qilg'uchi, kasalni o'ldirguchi 5 – 10 ta nodon tabiblarimizdan boshqa hech nimamiz yo'qdir".

O'lkadagi shunday achinarli vaziyat xalq va mamlakat tashvishi bilan yashayotgan kishilarda turkistonlik yoshlarni chet mamlakatlarga o'qishga yuborish va yaqin kelajakda ular yordamida Turkistonni ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish maqsadini uyg'otdi.

1909-yil 12-mayda Toshkentda Turkiston jadidlarining "Jamiyati xayriya" tashkiloti tuzildi. Tashkilot turkistonlik ilmsevar yoshlarni Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg, shuningdek, Turkiya va Misrning Istanbul, Qohira singari shaharlariga dastlabki talabalarni yubora boshladi.

1909-yil 18-iyulda esa Buxoro shahrida "Tarbiyai atfol" tashkiloti tuzilib, u buxorolik bir guruh iste'dodli yoshlarni Istanbulga yubordi. Keyinchalik shu yoshlar orasidan Fitrat, Usmonxo'ja, Atoxo'ja singari davlat va madaniyat arboblari yetishib chiqdilar. Oradan bir necha yil o'tgach, chor hukumati ag'darilib, uning o'rniga sovet davlati barpo etildi. Xalq qornini katta va'dalar bilan to'ldirgan sovet davlati siyosatining natijalarini ko'rgan ziyolilar Toshkentda O'zbek bilim

hay'atini tuzib, 1921-yildayoq chet mamlakatlarga talabalarni jo'natish masalasini o'rgana boshladilar. "Turkistondan chetga borib o'qish uchun, – deb yozdi Elbek "So'nggi ko'makni kimlardan kutishimiz kerak?" degan maqolasida, – 1921-yil boshlarida O'zbek bilim hay'ati tomonidan bir loyiha tuzilib, boshida student Sayyid Alixo'ja bo'lgani holda bir necha o'quvchilarning ro'yxati olinib, hukumatga topshirilgan edi. Bir necha muddat buning ketidan yurib, natijada hukumatimizning moddiy ko'mak bera olmasligi bilinch, bu masala o'z-o'zidan to'xtaldi. Lekin o'quvchilardan qaysi bir o'ziga to'qroqlari (garchi borliq narsalarini sotib bo'lsa-da) yana chetga ketmoq orzusida bo'ldilar. Bularning o'zaro tashabbusini ko'rgan O'zbek bilim hay'ati chetdan tomoshachi bo'lib tura olmadi. Bo'lsa-bo'lmasa-da, umid bilan ishga kirishdi va chetga ketguchi studentlarning o'zlaridan bir komissiya tuzib, shul komissiyaga Sayyid Alixo'jani boshliq etib, "Ko'mak" otida bir uyushma tuzdi. Uyushma kecha-kunduz ishlab, turli yoqdan gadoylik qilib bo'lsa-da, bir kishini chetga jo'nata oldi".

Bu baxtli inson Abdurahob Murodiy edi. 1901-yili Toshkentda kambag'al oilada tug'ilgan A.Murodiy Shayxontohur dahasidagi "Xoniy" va "Namuna" maktablarini bitirganidan so'ng, qisqa muddat Naman-ganda muallim bo'lib ishlagan. So'ngra Bokudagi o'quv yurtlarida tahsil olgan, 1921-yili Germaniyaga borib, qishloq xo'jalik (ziroat) akademiyasiga o'qishga kirgan. Afsuski, unga homiylik qilishga va'da bergan boyning bevaqt qazo qilishi munosabati bilan A.Murodiy Germaniyada og'ir iqtisodiy ahvolda qolgan.

"Turkiston" gazetasining 1922-yil 26-noyabr sonida "Chetdagi talabalarga yordam" degan maqola bosilib chiqadi. Undan ma'lum bo'lishicha, A.Murodiy "Ko'mak" uyushmasiga murojaat etib, oliy ziroat maktabni bitirguniga qadar ta'min qilmoqni bo'yniga olgan bir shaxsning vafot etgani va natijada ta'minsiz qolganini, agar o'z yurtidan yordam bo'lmasa, o'qishni tashlashga majbur ekanligini aytgan. Murodiyning og'ir moddiy ahvolga tushib qolganini undan bir yil keyin Berlinga yetib borgan Sayyid Ali va Ahmad Shukriylar ham tasdiqlaganlar. 23-noyabr kuni Toshkent yoshlarining "gap" yig'ilishlarida Murodiyning xati o'qib berilgan va yig'ilganlar bir og'izdan o'z maoshlarining 25 foizini Berlinga yuborishga va'da berganlar. Shu kuni yana bir necha kishining himmati bilan 1 milliardga yaqin mablag' to'plangan. "Gap majlisida, – deb yozgan edi gazeta, – hozir bo'lman boshqa o'rtoqlardan ham yig'ib, shul mablag'ni o'rtoq Abuvahobning bir yillik ta'minotiga yetkazmakka bo'lindi. Shul maqsad bilan Eski shaharda adabiyot-tomosha kechasi yasamoq uchun kishilar belgilandi".

Oradan uch hafta o'tgach, shu gazetada M.Usmoniyning "Berlindagi talabalarga ko'mak" degan hisobot-maqolasi bosiladi. Unda bunday so'zlar yozilgan edi: "Toshkentda maorif-madaniyat ishlarida ishlaguvchi bir to'da yoshlarning tashabbusi bilan Berlin oliy ziroat madrasasida o'qig'uvchi talabamiz Abduvahob o'rtoqning ta'minoti uchun quyidagicha moddiy ko'mak yig'ildi:

Sayyid Nosir Mirjalil 20 000 so'm; Tolibjon Musa-boyev 10 000 so'm oltin; Abdulhamid Sulaymon 7 000; Najmiddin Sherahmedov 5 000; Hamidulla Orifjon ham Xolmuhammad Oxundiylar 4 000 so'mdan; Muhiddin Usmoniy, Munavvar qori, Zufar Usmoniy 3 500 so'mdan; Shokirjon Rahim, Abdunabi hoji o'g'li, Teshabek Otabekov, Muhammadjon qori Rahimiy va Asadulla Xo'jaxonovlar 2 500 so'mdan; Salimxon Tillaxonov 1 200 so'm.

6-dekabrda yasalgan adabiyot kechasidan sof foyda 75 000 so'm.

Barchasi: 139 700 so'm. Bu pullar tegishli yo'l bilan o'rtoq Abduvahobga yuborildi".

Turkistonning ilg'or jamoatchiligi mehr, shafqat va ko'mak kechalarini o'tkazish bilangina kifoyalanmadi. Shu gazetaning 1923-yil 15-aprel sonidan o'rin olgan o'sha muallifning "Chetda o'quvchilarni unutmaylik" degan eslatma-maqolasida bunday so'zlar yozilgan edi: "Turkiston, Buxorodan Berlinga o'qishga ketgan o'quvchilarning ko'plari turlik muassasalarning ko'magi bilan, ba'zilari, eng ko'p bo'lganda, bir yillik ta'minotlariga yetarlik narsa bilan ketganlar. Ba'zi bir talabalar juda oz aqcha, hatto quruq "tavakkal" yo'li bilan borib qolganlar". Maqola muallifi nafaqat talabalar holi, balki Birinchi jahon urushidan chiqqan Germaniyadagi og'ir ahvolni ham unutmay, bunday davom etgan: "Ma'lumdirkim, Jahon urush natijasi Germaniyaning iqtisodiy ahvolini juda izdan chiqarib yubordi. U yerda ham bizdagidek soat sari bozor baholari ko'tarilib, oqcha qadri kun sayin tushib boradir. Bu, albatta, o'quvchilarimizning turmushiga ta'sir etmay qolmaydir. Biz ul yerda o'quvchilarimizning muhtojlarini anglab olaylik, ularning holidan tez-tez xabar olib turaylik..."

Muallifning fikricha, talabalarning moddiy qiyinchilik orqasida o'qishni tashlab kelishlari Turkiston uchun, uning ziyolilari uchun, "mas'ul ishchilari" uchun xunuk hol, sharmandali voqea edi. Shuning uchun u vatandoshlarini mamlakat kelajagini o'ylash va shu yo'lda muruvvatli va hojatbaror insonlar bo'lishga chaqirdi: "Kelgusimizning mahkam ustuni bo'lgan chetdagi o'quvchilarimizni unutmasdan, har vaqt ularga yordam berish to'g'risida qayg'uraylik".

Agar shu yillarda Turkiston xalqining ham iqtisodiy qiyinchilik va mashaqqatlarni boshidan kechir-

ganini ko'z oldimizga keltirsak, Buxoro Xalq Sho'ro respublikasi va Turkiston avtonom respublikasining yetmishga yaqin yoki ortiq farzandlarini kuni kecha sovet davlatining dushmani bo'lgan Germaniyaga o'qishga yuborishi tarixiy jasorat, ziyolilarning ularni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi sa'y-harakatlari esa ma'naviy-ma'rifiy yuksaklik namunasi edi. Bularning hammasi zamirida milliy taraqqiyot va milliy istiqbolga erishish orzusi va maqsadi yotardi.

Gyote diyorida

Buxoro o'z mollari bilan jahon bozorini O'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga qaraganda ancha erta egallagan. Rossiyada bo'lganidek, Yevropada ham qishning qattiq kelishi va bir necha oyga cho'zilishi aholidan issiq kiyinishni taqozo etgan. Imkoniyati bor kishilar nafaqat issiq, balki qimmatbaho matolardan, mo'yna va terilardan tikilgan kiyim-boshlarni kiyishgan. Bu hol XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro qorako'lining Yevropa bozorini zabt etishiga sabab bo'ldi. Buxorolik qorako'l savdosi bilan shug'ullangan boylar Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarga borib, qorako'l savdosini yo'lga qo'yibgina qolmay, tushgan foyda evaziga shu shaharlardagi hashamatli uylar va univermaglarni sotib oldilar. Agar Oktyabr to'ntarishi ro'y berib, xorijdagi va mamlakat ichkarisidagi boylarga tegishli mol-mulk gado davlat foydasiga musodara etilmaganida ulardan o'nlab o'zbek va tojik Rokfellerlari chiqqan bo'lardi.

Germaniya shu yillarda ilm-fan, texnika va madaniyat jihatidan jahonning eng taraqqiy etgan mamlakati edi. Buxorolik va boshqa shaharlik savdogarlar Germaniyaga kamalak nurlari bilan tovlanuvchi mo'ynalarni olib borish bilangina kifoyalanmay, yengil mashinalarni, qishloq xo'jalik asbob-anjomlarini, tikuv mashinalari-uy uy-joy buyumlarini olib kelishdi. Turkistonda "Zinger" tikuv mashinasini ko'rmagan xonadon bo'lmadi.

Turkiston ziyolilari XX asr boshlarida xayriya jamiyatlarini ochib, agronomlar, injenerlar, shifokorlar, me'morlar, huquqshunoslar, konchilar va boshqa sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun yoshlarni xorijga yuborish masalasini ko'targanlarida, ular fikricha, talabalarni yuborish mumkin bo'lgan mamlakat faqat Germaniya edi.

Xullas, 1922-yildan boshlab yosh Turkiston respublikasi rahbarlari Buxoro respublikasi rahbarlari bilan birga Germaniyaga 70 ga yaqin yoki 70 dan ziyod yoshlarni o'qishga yuboradi. Bu raqam turli manbalarda turlicha qayd etilib keladi. 1923-yil sentyabrda talabalar ahvolini bilish va yaxshilash uchun Germaniyaga borgan Turor Risqulov "Germaniyadagi o'quvchilarimiz" ("Turkiston" gazetasi, 1923-yil 19-dekabr) maqolasida ular soni haqida bunday ma'lumotni bergan: "Turkiston o'quvchi-

lari 11, Buxoro o'quvchilari 47 kishidir. Turkistonliklarning 7 nafari o'zbek, 4 nafari qozoqdir. Ularning hammasi Turkiston sharoitiga to'g'ri keladigan maktablarda o'qiydilar. 4 nafar o'zbek texnika akademiyasida (bu maktab Germaniyada atoqli bo'lib, 4 yil nazariy va bir yil amaliy ish qilinadir), 2 nafar qirg'iz qishloq xo'jalik akademiyasida (3 yil o'qish va 1 yil amaliy ish), 2 qirg'iz ko'ncilik maktabida o'qiydir (Rustenburg'da 2 yil tajriba oladir), 2 o'zbek (biri qiz) gimnaziyada (1 yil o'qish, 3 yil tajriba), 1 o'zbek dorilfununda (tibbiyot shubasida, 3 yil o'qish, 1 yil tajriba) tahsil oladir".

Shu manbadan ma'lum bo'lishicha, buxoroliklar orasida 35 nafar o'zbek, 8 nafar tatar (bulardan 4 nafari qiz), 5 nafar turkman, 2 nafar qirg'iz va 1 nafar yahudiy bo'lgan. T.Risqulov bergan ma'lumotga qaraganda, Germaniyaga o'qishga borgan turkistonlik va buxoroliklarning umumiy soni 49 nafari bo'lgan. Ammo bu raqam ham haqiqiy ahvolni mutlaqo aks ettirmaydi. Bu boradagi izlanishlar shundan shahodat beradiki, 1922-yili Gyote diyoriga o'qishga borgan talabalarning umumiy soni 70 dan ortiq bo'lsa ortiqki, aslo oz emas.

Ushbu mavzuning ilk tadqiqotchisi, fidoyi olim Sherali Turdiyev "Ular Germaniyada o'qigan edilar" monografiyasining ikkinchi nashrida (Toshkent, 2006) vataniga qaytib kelgan talabalardan 12, qaytib kelmaganlardan esa 5 nafari haqida to'la ma'lumot berdi. U mazkur mavzu ustida ishlash jaray-



Germaniyaga o'qishga borgan turkistonlik talabalarning bir guruhi.

Birinchi qatorda (chapdan): Afzal Abusaid (Vensural), Ibrohim Orifxon (Yorqin), Saida Sherahmad qizi (O'ktoy), Mustafo Cho'qayev, Majiddiddin Dalil, Ahmadjon Ibrohim (O'koy). Ikkinchi qatorda: Saidali Xo'ja (Anqara) Ahmad Naim (O'ktoy), Abdulvahob Is'hoq o'g'li (O'ktoy), Sobir Ibrohim (Turkistonli). Berlin, 1923-yil 18-fevral.

Nº	Ism-sharifi	Qachon ketgan?	Qayerda o'qigan?	Keyingi taqdiri
1	Abdulahob Murodiy (1901-1938)	1921	Berlindagi Oliy qishloq xo'jalik maktabi	Vataniga qaytib, Shreder nomidagi Bog'dorchilik instituti va boshqa muassasalarda ishlagan. 1938-y. da otib tashlangan.
2	Solih Muhammad (1902-1938)	1922	Shtutgardagi Oliy qishloq xo'jalik maktabi	1927-y. vataniga yozgi ta'tilga kelgan. Qaytib ketishiga ruxsat berilmagan. Kattaqo'rg'on tajriba stansiyasi va boshqa joylarda ishlagan. 1938-y.da otib tashlangan.
3	To'lagan Mo'min (1902-1938)	1922	Berlindagi oliy texnika maktabi	1931-y. vataniga qaytib, elektr energiyasi sohasida bosh injener bo'lib ishlagan. 1938-y. da otib tashlangan.
4	Sulton Matqul (1902-1938)	1922	Berlindagi oliy texnika maktabi	1931-y. vataniga qaytib, Fan komitetida rais o'rinbosari bo'lib ishlagan. 1938-y.da otib tashlangan. U bilan birga qamalgan xotini Basya Raybman (Matqulova) 1939-y.da ozod qilingan.
5	Gulsum Rahimova (1902-1938)	1918	Drezdendagi qizlar gimnaziyasi	1925-y. O'zbekistonga qaytgach, Maorif xodimlari malakasini oshirish institutida ishlagan. 1937-y.da otib tashlangan.
6	Sattor Jabbor (1905-1938)	1922	Berlin universitetining kimyo fakulteti	1931-y. vataniga qaytib, Toshkent Tibbiyot institutida kimyo kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan. 1938-y. da otib tashlangan.
7	Xayriniso Majidxonova (1905-1938)	1922	Darmshtadtdagi gimnaziya; tibbiyot kurslari	1928-y. vataniga qaytib, O'qituvchilar uyida shifokor bo'lib ishlagan. 1938-y.da otib tashlangan.
8	Maryam Sultonmurodova (1905-1972)	1922	Darmshtadtdagi O'qituvchilar seminariysi	1928-y. vataniga qaytib, Eski shahardagi Kommunistik universitetda, keyin "Guliston" jurnalida ishlagan. 1937-y. qamoqqa olinib, 15 yil qamoq jabrini tortgan.
9	Ruqiya Xo'jayeva (Rahimova) (1908-1937)	1918	Drezdendagi maktabgacha ta'lim va tarbiya bilim yurti	1925-y. o'qishni tugatib, O'zbekistonga qaytgach, turli muassasalarda, jumladan, Samarqanddagi oliy pedagogika akademiyasida ishlagan. 1937-y.da otib tashlangan.

Qaytib kelmaganlar			
1	Sayyid Ali Usmoniy (Anqara)	1922	Berlindagi oliy muhandislik maktabining kimyo fakulteti
2	Afzal Abusaid (Vensurel)	1922	Berlindagi oliy texnika akademiyasining me'morlik fakulteti
3	Ahmadjon Ibrohimov (O'qoy)	1922	Berlindagi oliy texnika maktabining ma'danshunoslik fakulteti
4	Bilol Fathulla (Fatxullin)	1918	Berlindagi oliy texnika maktabi
5	Ataulla Sadridin	1922	Drezdendagi texnika maktabi
6	Shamsulbanot Idris	1922	Berlin universitetining tibbiyot fakulteti
7	Xayrinisa Ismoil	1922	Berlin universitetining tibbiyot fakulteti
8	Abdulahob Is'hoq o'g'li (O'qtov)	1922	Xaydelberg universitetining tibbiyot fakulteti
9	Bahoviddin Amin (Emin)	1922	Berlin universitetining tibbiyot fakulteti
10	Azimbek Berimjon	1922	Berlindagi oliy qishloq xo'jalik maktabi
11	Ahmad Naim Ashur o'g'li (O'ktam)	1922	Berlin universitetining siyosiy iqtisod fakulteti
12	Ahmad Shukriy	1922	Berlin universitetining falsafa va tarix fakulteti
13	Abdumajid Ibrohimov (O'qoy)	1922	Berlindagi Oliy qishloq xo'jalik maktabi
14	Tohir Shokir (Chig'atoy)	1922	Xaydelberg universitetining iqtisod fakulteti
15	Sobir Ibrohimov (Chig'atoy)	1922	Darmshtaddagi oliy texnika maktabining kimyo fakulteti
16	Vali Qayumxon	1922	Berlindagi qishloq xo'jalik maktabi
17	G'iyosiddinov Salohiddin	1922	AE elektrotexnik fabrika
18	Sadridin Ziyoviddin	1922	Freyburgdagi teri sozlash maktabi
19	Kivam Kiram ¹	1922	Leypsigdagi tipografiya
20	Abror Rashid	1922	Leypsigdagi tipografiya
29	Xait Abdusamat	1922	Golsterndagi mashinasozlik zavodi
30	Olimjon Qodiriy	1922	Vittengauzendagi qishloq xo'jalik maktabi
31	Abdulla Po'lat	1922	Qishloq xo'jalik maktabi
32	Izzatulla Emin	1922	Gelshtadt
33	Beknazar Abdulla	1922	-
34	Hamro Abdulla	1922	-
35	Omonulla Nusratulla	1922	Berlindagi Lyudvig Le mashinasozlik zavodi
36	Muhammad Xo'ja	1922	Berlindagi Real bilim yurti
37	Safar Hakim	1922	"Berdziger" elektrotexnik zavodi
38	Fidoi Bubinskiy	1922	Drezdendagi texnika maktabi
39	Mishel Ibragimov	1922	Niderzedlitsedagi "Zaxsenverk" fabrikasi
40	Normurod Murodov	1922	Golsterndagi mashinasozlik zavodi
41	Afzal Hakimjon	1922	Berlindagi oliy texnika maktabi
42	Temurbek Kazbekov	1922	Oliy tekstil bilim yurti
43	Domulla Bitleyev	1922	Ko'nychilik
44	Abdurahmon Munaitbasov	1922	Ko'nychilik
45	Ibrohim Orifxon (Yorqin)	1922	Berlindagi oliy qishloq xo'jalik akademiyasi
46	Fuzail Sherahmedov	1922	Shterlisdagi yo'l bilim yurti

¹Ushbu ism-sharif rus tilida shunday buzib yozilgan. Qiyomiddin Akrom bo'lishi mumkin.

onida Shokir Sulaymon, Turor Risqulov, Olimjon Idrisiylarning 20-yillar matbuotida chop etilgan maqolalarini, sobiq talabalarining oilaviy arxivlarida saqlangan hujjat va fotosuratlarini topib, e'lon qildi. Ularning keyingi ijtimoiy, ijodiy va pedagogik faoliyatini Davlat xavfsizlik xizmati arxivdagi "delo"lar asosida o'rganib, o'nlab maqolalar yozdi.

Sh.Turdiyevdan keyin shu masala bilan qiziqqan taniqli san'atshunos olim Sirojiddin Ahmedov ham davlat arxivlarida ishlashi jarayonida Germaniyada o'qigan yana 10 dan ziyod talabaning ism-sharifini aniqladi. Bu ikki tadqiqotchining izdoshi Bahrom Irzayev esa 10 dan ziyod talabaning hayoti va fojiali taqdiriga doir ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. U shu talabalar izidan tushib, ularning yaqin qarindoshlarini hamda xususiy va davlat arxivlarida saqlangan hujjatlar-u fotosuratlarini topib ommalashtirmoqda.

Shu vaqtga qadar mamlakatimizda olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlardan tashqari, xorijda ham o'tgan asrning 20-yillarida Germaniyaga o'qishga borgan talabalar taqdiri bilan qiziqqan olimlar yo'q emas. Ulardan biri xorijda Ahad Andijon (Andijoniy) nomi bilan tanilgan vatandoshimizdir. Uning yaqinda Toshkentda nashr etilgan "Turkiston uchun kurash" (T., 2017, 2-kitob) kitobida Turkistonda XX asr boshlaridan 50-yillargacha ro'y bergan tarixiy voqealar o'z tasviri va talqinini topgan.

Germaniyaga yuborilgan talabalar

1922-yilda o'zbekistonlik talabalarining Germaniyaga o'qishga yuborilishiga oid maqola va risolalarda ular soni, yuqorida aytilganidek, turlicha ko'rsatilib keladi. Taniqli jurnalist va yozuvchi Abduqahhor Ibrohimovning "Toshkentning bir yaprog'i" ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi (1993-yil 28-may) maqolasidan o'rin olgan amakisi Ahmadjon Ibrohimovning xotirasida esa shu haqda bunday ma'lumot berilgan: "1922-yilning oxiriga qadar Turkistondan chet ellarga turli-tuman yo'llar bilan 200 ga yaqin talaba o'qishga yuborildi. 5 talaba Turkiyaga, 25 talaba Ozabayjonga, Bokuga, 50 ga yaqin talaba Moskvaga va 74 talaba Olmoniyaga yuborildi (ta'kid bizniki – N.K.). Olmoniyaga yuborilgan talabalarining 56 tasi Buxoro jumhuriyatidan, 16 tasi Turkiston jumhuriyatidan va 2 talaba Xiva jumhuriyatidan edi".

47	Hamid Samadov	1922	Shterlisdagi mashinasozlik texnikumi
48	Xayriniso Ismoilova	1922	Berlin universitetining tibbiyot fakulteti
49	Rahmatjon Avezjonov	1922	Kyoslindagi davlat pedagogik tarbiya muassasasi
50	Muhammadjon Avezjonov	1922	-
51	Abdurahim Burhonov		-
52	Usmon Omon	1922	-
53	Isomiddin Alovuddin	1922	-
54	Abdulla Abdurahim	1922	-
55	Ochilbegi Bo'kon	1922	-
56	Xolmurod Xo'ja	1922	-
57	Iskandar Porso	1922	-
58	Ne'mat Narzulla	1922	-
59	Haratqul Ochil	1922	-
60	Beshim Solih	1922	-
61	Jo'ra Hamro	1922	-
62	Safar Halim	1922	-
63	Rahimqul Ro'zi	1922	-

Mazkur masala bilan qiziqqan Sherali Turdiyev “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” degan kitobi (T., 2006)ga 20-yillarda O‘zbekiston matbuotida, keyinchalik Turkiyada e‘lon qilingan maqola va xotiralarni ham ilova qilgan. Shu maqola va xotiralarda Germaniyadagi oliy texnika maktabida o‘qigan 8, dorilfununlarda tahsil olgan 5 (O.Idrisiy maqolasida), Germaniyadagi oliy o‘quv yurtlarini bitirgan 20 nafar (I.Yorqin xotirasida) talabaning ism-sharifi qayd etilgan. Keyinchalik bu ro‘yxat S.Ahmedov va B.Irziyev tomonidan to‘ldirib borildi. Shunga qaramay, mavjud ro‘yxatlarning chahaligi shubha uyg‘otmaydi.

Biz quyida yuqorida tilga olingan manbalar asosida 1921–1922-yillarda Germaniyaga yuborilgan talabalarning hozircha to‘la ro‘yxatini tuzishga va ular haqidagi asosiy ma‘lumotlarni berishga urinib ko‘ramiz.

O‘zbekiston Markaziy davlat arxivida Buxorodan borgan o‘quvchi va talabalarning Germaniyada bo‘lishiga oid ma‘lumotlar mavjud bo‘lgani holda, Turkistondan borgan o‘quvchi va talabalarga oid hujjatlar yetarli emas. Bizningcha,

Turkistondan ham Germaniyaga kamida 10-15 nafari o‘quvchi borgan bo‘lishi mumkin.

G‘oyaviy kurashlar girdobida

Sovet davlatining Lenin imzo chekkan birinchi deklaratsiyasi (1917)ga ko‘ra, Rossiya hududidagi xalqlarga o‘z taqdirini o‘zlari belgilash huquqi berilgan edi. Bu, bir tomondan, xorijiy davlatlarni chalg‘itish, ikkinchi tomondan esa, mustamlaka o‘lkalardagi istiqlolsevar kuchlarni aldash uchun chiqarilgan hujjat edi. Buni yaxshi bilgan Buxoro va Turkistonning o‘sha yillardagi rahbarlari taxminan yetmish nafar talabani Germaniyaga jo‘natishdan avval Moskva va Leningrad singari shaharlardagi o‘quv yurtlariga ham bir qancha talabalarni

yuborishga qaror qilishgan. Bu ularning, bir tomondan, sovet davlati rahbarlarida o‘zlariga nisbatan ishonch uyg‘otish, ikkinchi tomondan, xorij bilan Rossiyada ta‘lim olgan talabalarning bilim darajasini qiyoslash va xulosaga kelish uchun qilingan amal edi. Ammo sovet davlatining Turkiston va Buxorodagi ziyrak ko‘zlari xorijda ta‘lim ola boshlagan milliy kadrlarning “erkin dunyo” qadriyatlariga uchib, sovet davlatining ko‘r va kar fuqarolari bo‘lib shakllanmasligi mumkinligini sezganlar. Ular ta‘sirida bo‘lgan kishilardan biri esa 1923-yilda farg‘onalik yoshlarning xorijga otlanayotganlarini ko‘rib, bunday vovaylo qilgan edi: “Bu harakatda bo‘lg‘uvsi o‘rtoqlarimiz Rossiyaning bugungi kunda eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va har kim tushunarlik o‘rta va oliy maktablarini ko‘zlari ko‘rmayin, zagranitsadagi burjua, mazlumlar dunyosining oydin dushmani bo‘lgan oqsuyaklar ruhi, burjua ideologiyasi bilan tarbiya qiladigan maktablarni ko‘radirlar... O‘zining bilimi, hunari bilan elning xo‘jaligini, salomatligini, madaniyatini ko‘taradurgan yigitlarimiz faqat Rossiyada bo‘lgan o‘rta maktablar orqali tarbiyalanib, oliy maktablardan yetishishlari ochiqdan-ochiq ma‘lum bir narsadir”.

Qamchinbek (Aynullin)ning “Farg‘ona” gazetasi (1923-yil 8-iyun)da bosilgan bu maqolasiga qarshi Abu Tavfiq taxallusli noma‘lum muallif shu gazetaning 1-iyul sonida “Chet ellarga o‘quvchilar yuborilsin” degan maqola bilan chiqqan va sarlavhada



Ubaydulla Xo‘jayev (so‘lda) va Olimjon Idrisiy (o‘ngda) Germaniyaga o‘qishga borayotgan Saida Sherahmad qizi (O‘ktoy) hamda uning ukalari Fuzail va Nasriddinlar davrasida. Moskva, 1922-yil sentyabr – oktyabr oylari.

ifodalangan fikrini bunday misol bilan asoslashga intilgan: “Ko‘z oldimizga madaniylashgan Yaponiyani keltirganimizda juda kenglik va maorifga berilganin ko‘ramiz. Yaponiya, bir tomondan, Ovrupoga talaba yuborsa, ikkinchi tomondan, Amriqoga yubora boshladi. Yaponiya bu harakati bilan 1866-yilga kelganda Ovrupo va Amriqo mamlakatlari talabalar bilan to‘ldirib yubordi. Shundoq mutaassib majusiy bir mamlakat 1887-yilga kelganda Ovrupodagi millatlar qarshisida birinchi, Amriqo millatlari qarshisida ulug‘ darajali bo‘lib tanildi. Shu vaqtda Yaponiyada o‘quvchi o‘g‘illar 90 foizni tashkil etdi. 1905-yilga kelib, Yaponiyaning o‘qigan xalqi 100 foizga yetdi. ...yaponlar Ovruponi demadi, Amriqoni demadi. Har nima bo‘lsa bo‘lsun, o‘qisun, dedi”.

1924-yili Buxoro va Xorazm sho‘ro respublikalari hamda Turkiston avtonom respublikasi tugatilib, ular o‘rnida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi barpo etiladi. Bu O‘zbekistonda sovet davlat tuzumining mustahkamlanishini, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi rahbarlari huquqlarining esa cheklanishini anglatuvchi voqea edi.

Shu voqeadan bir muncha avval Germaniyaga o‘qishga yuborilgan yoshlar Turkiston Talabalar jamiyatini tashkil etgan va bu jamiyatga rais etib Abduvohob Murodiyini saylagan edilar. Bu jamiyatni tuzishdan maqsad, xorijda yashagan vatandoshimiz Ahad Andijonning yozishicha, “turkistonlik talabalarni bir tashkilot atrofida birlashtirish va Ovrupo ilm-u irfonini Turkistonga tanitishga, Turkistonning ijtimoiy hayotining, san’atining zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangilanishiga Turkiston xalqining kapitalistlar asoratidan qutulishiga xizmat qilishdan iborat bo‘lgan. Bu jamiyatning yana bir vazifasi Turkistondan Ovrupoga keladigan talabalarining qanday yo‘l bilan kelishidan qat’i nazar, doim qo‘llab-quvvatlash, yordam berish ekanligi ham ta’kidlangan¹”.

¹ Andijon A. Turkiston uchun kurash. Birinchi jild. – T., 2018. – B. 230.



Germaniyaga o‘qishga borgan talabalarning bir guruhi

1924-yil oxirlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat o‘zgarganidan so‘ng “O‘rta Osiyo milliy avomiy ihtilol jamiyatlari ittifoqi” (A.Andijon iborasi)ning Ovrupodagi yig‘ilishi o‘tkazilib, tashkilot nomi “Turkiston ozodlik jamiyati” deb o‘zgartiriladi. Talabalar jamiyati nomining bunday o‘zgartirilishi va jamiyatning o‘z oldiga ko‘lamli vazifalarni qo‘ygani sovet davlatining tegishli idoralarni o‘ylantirib va tashvishlantirib qo‘yadi. Shu yili (A.Andijon bergan ma’lumotga qaraganda, 1925-yili) O‘rta Osiyo davlat universiteti rektori Meyerson Berlinga borib, talabalarining qanday yashab va qanday ta’lim olayotgani masalasini o‘rganish o‘rniga, ularni vatanlariga qaytarish targ‘iboti bilan shug‘ullanadi.

“Meyerson ilk ishni, – yozadi A.Andijon, – Buxoro Xalq Jumhuriyatidan yuborilgan kichik yoshdagi o‘quvchilardan boshladi va ularni ta’lim olayotgan maktablardan chiqarib, barini to‘plab, orqaga (Buxoroga – N.K.) qaytarib yubordi. Ulardan atigi beshtasi Ahmad Naim (u shu

yillarda Turkiyaning Berlindagi elchixonasida tarjimon bo‘lib ishlagan) ning va Varshavadagi Turkiya elchixonasining sa’y-harakati tufayli Rigadan yana Olmoniyaga qaytarib olib kelindi. Keyinroq bu besh kishi turk elchisining yordami bilan Turkiyaga yuborildi va ular maktabni o‘sha yerda tugatishdi. Shu orada sovet hukumati Buxorodan kelgan talabalar uchun beriladigan mablag‘ning olmon banklaridagi hisob raqamlarini yoqtirib qo‘ydi. Ammo litsey yoki universitetlarning so‘ng bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar o‘z ta’lim dargohlari bilan aloqani uzmadilar. Endi ular – elchixona xodimlari – “o‘z istaklari bilan” sovetlar yurtiga qaytishlari uchun talabalarga zug‘um qila boshladilar...

Shundan so‘ng talabalarining bir qismi O‘zbekistonning Berlindagi vakolatxonasiga xat bilan murojaat etib, o‘qishlarini tugatmasdan orqaga qaytishlari katta isrofga sabab bo‘lishini va bu ish Turkistonning kelajagi uchun zarar ekanligini ta’kidlab, ta’lim olishda davom etishlariga yordam berishni so‘radi. Ammo ularning iltimosnomalari javobsiz qoldi. 1930-yili esa



Germaniyaga o'qishga borgan talabalarning bir guruhi.

milliy harakatlarga, bolsheviklarga qarshi guruhlar va sobiq jadidlarga aloqasi bor-yo'qligidan qat'i nazar, talabalarga berilayotgan stipendiyalar uzil-kesil to'xtatildi.

Natijada 20 ga yaqin talabagina Germaniyadagi oliy o'quv yurtlarini tugatib, stalinchi jallodlar qilich qayrab turgan vatanlariga oliy ma'lumot olganlari haqidagi diplom bilan kelishga muvaffaq bo'ldilar.

Ona vataniga qaytganlar va qaytmaganlar

B.Irzayevning "Turkiston jadidlarining "Ko'mak" tashkiloti" kito-

bidan o'rin olgan Sattor Jabborning "Germaniyada O'rta Osiyo talabalarining ikki yili" ("Turkiston", 1924-yil 2-sentyabr) degan maqolasida esa "Germaniyada O'rta Osiyo hisobidagi studentlar"ning quyidagi ro'yxati shu masala bilan shug'ullanuvchilar e'tiboriga havola qilindi:

Bu jadval 1922-yili Germaniyaga borib, turli shaharlardagi o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olgan talabalar to'g'risida mukammal tasavvur bermasa-da, biz O'zbekiston tarixining eng og'ir va mushkul yillarida Yevropaga o'qish istagi bilan

No	Oti	Maktabi	Sohasi	Vatani
1.	Abduvahbob Murodiy	Berlin oliy ziroat maktabi	Ziroatchi	Turkiston
2.	Azimjon Berimjon	Berlin oliy ziroat maktabi	Ziroatchi	Turkiston
3.	Solih Muhammad	Berlin oliy ziroat maktabi	Ziroatchi	Turkiston
4.	Temurbek Qozibek	Berlin oliy ziroat maktabi	Ziroatchi	Turkiston
5.	Sayyid Ali Xo'ja	Berlin oliy texnika maktabi	Kimyo	Turkiston
6.	Afzal Abdusaid	Berlin oliy ziroat maktabi	Arxitektor	Turkiston
7.	Ahmadjon Ibrohim	Berlin oliy texnika maktabi	Tog' muhandisi	Turkiston
8.	Sultonbek Matqul	Berlin oliy texnika maktabi	Elektr injener	Turkiston
9.	Bilol	Berlin oliy texnika maktabi	Mashinasozlik	Turkiston
10.	To'lagan Mo'min	Berlin oliy texnika maktabi	Elektr injener	Turkiston
11.	Orifxon Ibrohim	Bonn oliy ziroat maktabi	Suv muhandisi	Turkiston
12.	Sobir Ibrohim	Darmshtadt oliy texnika maktabi	Kimyo	Turkiston
13.	Atoullo	Drezden oliy texnika maktabi	Mashinasoz	Turkiston
14.	Ahmad Shukuriy	Berlin dorilfununi	Tarix-falsafa	Turkiston
15.	Ahmad Naim	Berlin dorilfununi	Tibbiyot	Turkiston
16.	Tohir Shokir	Xeydelberg dorilfununi	Iqtisod	Turkiston
17.	Abduvahbob Is'hoq	Xeydelberg dorilfununi	Tibbiyot	Turkiston
18.	Shamsulbanot	Berlin dorilfununi	Tibbiyot	Turkiston
19.	Gulsum Muzaffar	Berlin dorilfununi	Muallim	Turkiston

borgan yetmishga yaqin yoki yetmishdan ortiq ota-onalarimiz jasorati haqida ozmi-ko'pmi tasavvur hosil qilamiz. Ayni paytda endigina chor mustamlakachiligi kishanlaridan qutulgan Buxoro respublikasi va Turkiston avtonom respublikasi rahbarlari "qizil saltanat"ning qarshiligiga qaramay, yosh yigit va qizlarni Yevropaga o'qishga yuborib, ulug' tarixiy ishni amalga oshirganlarki, bundan hayratga tushamiz.

Maqola muallifi shu jadvalni gazetxonlar e'tiboriga havola qilgan ekan, quyidagi so'zlarni g'urur bilan yozgan: "1924-yil bundagi turkistonliklar uchun baxtlik yillardan ekan. Student va o'quvchilarimizning bosgan qadamlari uzoqlarga tushdi. Berlin oliy ziroat maktabida Abduvahbob Murodiy va oliy texnika maktabida Bilol kabi yigitlarimiz maktablarida eng muhim sinovlardan bo'lgan birinchi imtihonlarini (vorigsamen) va Ahmadjon Ibrohimov ham oliy texnika maktabi tomonidan talab qilingan imtihonni yaxshi darajalar bilan bitirib qutuldilar. Bilol va Murodiy o'rtoqlar bir yildan so'ng maktablarini bitirsalar kerak. Ahmadjon katta imtihonga tayyorlanib turadir. Boshqa studentlarimiz ham maktablarga imtihonlarni berishga tayyorlanib turibdirlar. Dorilfunun professorlari Turkiston studentlaridan xursanddirlar²".

Sattor Jabbor, bir tomondan, Germaniyadagi hayotni, iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotni, nemislarning olis Osiyodan kelgan "qora ko'zlar"ga bo'lgan samimiy munosabatlarini ko'rib, ikkinchi tomondan, o'pkalanib yozgan: "Ovrupe va Amriqo bilan yurtimizni solishtirsak, Turkiston motamxonadan iboratdir. Kun-

² Ko'chirma quyidagi manbadan olindi: Irzayev B. Turkiston jadidlarining "Ko'mak" tashkiloti. - T., 2016. - B.93-94.

botarliklar tabiatni o'yunchoq qilganlar. Biz esa tabiatga o'yunchoq. Elimiz oxirat dardi bilan ovvora, ya'ni tirikligimizdan o'limimiz hokim (ta'kid bizniki – N.K.). Ovrupoliklar esa istiqbolda yashash uchun hozirlanmoqdalar. Mana, biz, turkistonliklarning yangi dunyodan ajralib qolishimiz. Ochibroq aytganda, ajratgan narsa mashina davridan uzoqqa tushganimizdir. Shuni ko'zda tutib, ko'p o'quvchilar mashina, to'qimachilik, ko'nchilik, boqcha, ziroat va matbaachilik kabi o'rta sanoat maktablariga kirdilar. Germaniya o'rta sanoat maktablariga kirgan o'quvchilarning bir to'dasi 1925-yilda maktablarini bitirsa kerak³.

Kamina o'zbekistonlik yoshlarning Germaniyada tahsil olishi masalasi bilan uzoq yillardan beri qiziqib kelayotganim uchun S.Jabborning bu so'zlarini o'qib, ularning o'z hayotlarini qanchalik yuksak orzu va maqsadga bag'ishlaganlaridan, shu orzu va maqsadga erishish yo'lida birlarining halok etilganlari, boshqalarining esa xorijda qolib ketishga majbur bo'lganlarini eslab, larzaga tushaman.

Agar Germaniyaga o'qishga borgan o'quvchi va talabalar Vatanga qaytib kelib, ilm-fan, sanoat va qishloq xo'jaligining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borganida taraqqiy etgan O'zbekiston sovet davlatining hamma yog'i zanjirlangan hududlaridan chiqib keta olgan bo'larmidi? Aslo, chiqib keta olmas edi. Buni sovet davlati yaxshi bilardi. Ammo u O'zbekiston uchun yuqori malakali milliy kadrlarning tayyorlanishidan manfaatdor emas edi. Uning uchun O'zbekiston umrining oxirigacha sovet davlatining sog'in sigiri, xomashyo makoni, tekin ishchilar bozori bo'lib qolishi lozim edi. Shunga qaramay, Germaniyaga borgan talabalar butun kuchlarini bilim olishga qaratishlari zarur edi. S.Jabbor buni tushunib ulgurmanmi yo yo'qmi, har holda u shu masalaga oydinlik kiritishga uringan. "Yaqin zamonlardan beri, – deb yozgan u, – Turkiston Respublikasi va Sho'rolar Russiyasida: "Talabalar Ovruponing buzuq kishilari ta'sirida. Ularni qaytarib olmoq lozim. Yo'qsa, bir kun boshimizga balo bo'lur..." kabi bo'lmagan gaplar tug'ilganini eshitib, hayron qolmoqdamiz. Hammaga ma'lumki, Turkiston talabalari Ovrupoga siyosatga aralashmoq uchun kelmadilar. Germaniyaga kelganimizga ikki yil bo'ldi. Shu vaqtgacha oramizdan biror kimsa siyosat bilan shug'ullanmadi. Talabalar o'qishidan bo'shamaydir⁴.

S.Jabborning bu so'zlaridan ayon bo'ladiki, Germaniyaga borishlaridan avval talabalarga siyosatga aralashmaslik, nemis tilini o'rganib, zamonaviy fan va texnika asoslarini egallash, O'zbekistonga eng muhim va eng zarur sohalar bo'yicha yuqori darajadagi mutaxassislar bo'lib kelish lozimligini qayta-qayta aytganlar.

³ O'sha manba. – B. 95.

⁴ O'sha manba. – B.97.

A.Andijonning yozishicha, S.Jabbor Germaniyada o'qib yurgan vaqtida Berlindagi sovet muassasalari bilan aloqada bo'lgan. Shu hol tufayli talabalar orasida "Sattor Jabbor – "bolsheviklar josusi" degan gap tarqalgan. "Aslida, – deb yozadi A.Andijon, – u xorijdagi ta'limning ilk yillaridan faol, qobiliyatli talaba o'laroq tanilgandi. Fors tilini ham bilardi, adabiyotni sevardi. Litseyini bitirganidan keyin Berlin universitetining kimyo fakultetiga kirdi. 1927-yilda Solih Muhammad va Nasriddin Sherahmad degan tengdoshlari bilan yurtga ta'tilga kelishdi. Ta'til muddati tugab, Olmoniyaga faqat Sattor Jabbor qaytdi, anovi ikki o'quvchiga esa Ovrupoga qaytishga izn berilmadi. Bu voqea yoshlar orasida Sattor Jabborga nisbatan turli shubhalarning yoyilishiga sabab bo'ldi... Bu "mish-mish"larga, xo'rlanishlarga qaramasdan, Sattor Jabborning o'qishini davom ettirgani, olmonlar bilan ham, muhojirotdagi taniqli shaxslar bilan ham yaxshi munosabatda bo'lgani ma'lum⁵.

Shu manbaga qaraganda, S.Jabbor Zakiy Validiyning bir maqolasini nemischaga o'girib, "Deutsche Rundschau" jurnalida nashr ettirgan. Mustaf Cho'qayga yo'llagan bir maktubida esa, "Das Staat" degan gazetada Bender ismli bir do'sti ishlashini, ikkisi birlikda Turkiston haqida maqolalar yozayotgani, agarda Cho'qay istasa, uning ham maqolalarini olmonchaga o'girib, nashr etishlari mumkinligini bildirgan.

Boshqa talabalar bilan o'zi o'rtasidagi samimiyat daraxtining barglari sarg'ayib, orada bo'shliq paydo bo'lganini sezgan S.Jabbor hayotida bir voqea ro'y bergan. U Berlin universitetida tahsil olayotgan turkiyalik talaba Hodi To'qay bilan tanishib qolgan. Milliy ildizning mushtarakligi ham, hayotga qarashlari-yu insoniy tabiatlari ham ularning o'zaro do'stlashishiga sabab bo'lgan. Xullas, ular bir-birlari bilan tez uchrashib, Berlinning diqqatga sazovor joylarida uchrashadigan, gurungashadigan bo'lishgan. 1929-yili stipendiyasi to'xtatib qo'yilganidan so'ng, S.Jabbor nemis gazetalariga turli taxalluslar bilan O'zbekiston, o'zbek xalqi va uning adabiyoti to'g'risida maqolalar yozib, shu maqolalardan tushgan qalam haqi evaziga turmush kechirgan. S.Jabborning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotini yaxshi bilganini ko'rgan, uning Fitrat va Cho'lponlar haqidagi suhbatlarini eshitgan H.To'qay do'stiga o'zbek adabiyotining shu va boshqa namoyandalari haqida kitob yozishni, shu kitobdan tushajak qalam haqi hisobiga yaxshiroq yashashni taklif qilgan. Shundan keyin S.Jabbor bilan H.To'qay tahsil va mutolaadan xoli soatlarda universitet yaqinidagi qahvaxonalardan birida uchrashib, biri shu kitobdan o'rin olajak maqolalarni aytib turgan, ikkinchisi esa tezkorlik bilan yozgan. "Qutulish yo'lida"

⁵ Andijon A.Turkiston uchun kurash. 1-jild. – T., 2017. – B. 239.

deb nomlangan qo'lyozma kitobning bir nusxasi S. Jabbor qamoqqa olinganida NKVD xodimlari tomondan olib ketilib, yondirib yuborilgan, ikkinchi nusxasi esa, baxtimizga, Turkiyada, H.To'qay arxivida saqlanib qolgan va bu kitob 2000-yili nemis va turk olimlari ko'magida nashr etilgan.

Yana S.Jabbor bilan o'zbekistonlik ayrim talabalar o'rtasida tushgan sovuqlik masalasiga kelsak. "Xuddi ana shu paytda, – davom etib yozadi A.Andijon, – boshqa bir talabaga bog'liq o'laroq yuz bergan bir shov-shuv hodisa Sattor Jabbor haqidagi shubhalar oloviga yog' quyganday bo'ldi. Aniqlanishicha, talabalardan Afzal Abusaid pasport muddatini uzaytirish bahonasida sovet elchixonasiga chaqirilgan va unga pul berib, maxfiy ravishda ayg'oqchilik bilan shug'ullanishni taklif etishgan. Abusaid bu taklifni ikkilanmay rad qilgani barobarida, elchixonadan qaytgach, butun bo'lgan gaplarni tengdoshlariga aytib bergan. Afzal Abusaidga oid bu hodisa haqida avval fransuzlarning "Le Matin" gazetasida maqola chiqqan. Sal keyinroq olmonlarning "Das 12 Uhrblatt", "Deutsche Zeitung", "Kreuz Zeitung" gazetalarida bu mavzuda maqolalar bosilgan⁶. Bu shov-shuvli voqeaning bu qadar jiddiy siyosiy janjalga aylanib borayotganidan tashvishga tushgan sovet hukumati Afzal Abusaidga josuslikni taklif qilgan elchixonadagi CHK xodimi Mixaylovskiyning Moskvaga chaqirib olishga majbur bo'lgan⁷".

Bir tomondan, stipendiyasi to'xtatilib, og'ir moddiy ahvolda qolgan, ikkinchi tomondan, tengdoshlarining noo'rin shubhalari va sovuq munosabatlarini ko'rgan S.Jabbor iztirob chekadi. Dardini kimga aytishni bilmay, Mustafo Cho'qayevga yo'llagan xatlaridan birida qalb jarohatlarini ochib yozadi: "Tengdoshlarim ham, Siz ham menikiga kam kelib-ketadigan bo'lib qoldinglar. Ba'zi do'stlarim meni bolshevik josusi deya qoralaganlarini yaqinda bilib qoldim, dudoqlarimni tishladim, ko'zim qonga to'ldi... Yaqindan beri chekayotgan azob-u xo'rlikni tangri boshqa bir turkistonlikning boshiga solmasin... G'aribligim yetmaganday, ustiga-ustak bu tuhmatlar... Berlin kutubxonasidagi bir nashrdan Olmoniyadagi rus muhojirlariga nisbatan "Bir-birlarining etini yegan yovvoyilar", degan bir narsani o'qigandim. Bir kun haqiqatni bilgan biror turkistonlik o'rtaga chiqar va bizni bundan-da og'ir so'zlar-la ta'rif etishi mumkin...⁸"

Bir tomondan, S.Jabbor, ikkinchi tomondan, A.Abusaid nomi bilan bog'liq voqealar, kaminadan yana bir

⁶ Ibrohim Orifxon tomonidan 1930-yil 13-fevralda Mustafo Cho'qayevga yozilgan maktubdan. Maktub A.Andijon arxivida saqlanadi.

⁷ Andijon A. O'sha manba. – B. 240. Muallif ushbu ma'lumotni M.Cho'qayevning "Yosh Turkiston" jurnali (1930-yil, 7 – 8-son, 56-bet) da bosilgan maqolasidan olgan.

⁸ S.Jabborning 1930-yil 16-sentyabrda M.Cho'qayevga yozgan xatidan. Yarim o'zbekcha, yarim turkcha yozilgan xat turk tilidan tarjima qilingan. Xat Andijon arxivida saqlanadi.

masalaga oydinlik kiritishimni taqozo etadi. Sir emas, maxsus xizmat xodimlari boshqa bir mamlakatda yashayotgan, tahsil olayotgan, xizmat vazifasini ado etayotgan fuqarolarini aldash, qo'rqitish, sotib olish yo'li bilan o'z davlatlari foydasiga josuslik qilishga undaydilar. Sovet davlatining qudratli GPU, OGPU degan siyosiy idoralari ham bu amaliyotdan samarali foydalangan. Bu tashkilotlarning Germaniyadagi vakillarining ham bundan hazar qilmagani shubhasiz.

Kamina 2000-yili bo'lsa kerak, Germaniyada ilmiy safarda bo'lgan vaqtimda o'zbekistonlik talabalarning Germaniyada o'qishi masalasi bilan shug'ullangan yosh nemis olimasi bilan uchrashgan va u menga o'zbekistonlik bir necha talabaga oid arxiv hujjatlarini lutfan taqdim etgan edi. Shu hujjatlardan biri Zuhra Kashayevaga oid edi.

1922-yili Germaniyaga borgan, Germaniyaning turli shaharlaridagi boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan vatandoshlarimizning bir necha ro'yxatlari bo'lgani holda ularning birortasida Zuhra Kashayevaning nomi uchramaydi. Ammo u Sherahmedovlar oilasida yashagan hamda shu oilaning Nasriddin va Saida degan farzandlari bilan birga Germaniyaga borib, o'sha yerda o'qigan. Davlat xavfsizligi xizmati arxividagi hujjatlardan birida uning Berlinda yashagan vaqtida hind yigiti bilan tanishib, unga turmushga chiqqani aytilgan. Uning shundan oldingi va keyingi hayoti biz uchun qorong'i. Kamina siyosiy idoralarning o'sha yillardagi faoliyatiga oid kitoblarni o'qiganim uchun Zuhra Kashayevani elchixonadagi GPU xodimlari yordamida hind yigiti bilan tanishib va unga turmushga chiqib, Hindistonga yoki boshqa biror mamlakatga yuborilgan bo'lsa kerak, deb o'ylar edim. Ammo, kutilmaganda, A.Andijonning kitobida uning shaxsiga oid bir ma'lumot chiqib qoldi.

Shu kitobning "Yurtga qaytmagan talabalar" bobida bunday so'zlar yozilgan: "Abdulahob Is'hoq o'g'li (O'qtov)⁹ va Tohir Shokir (Chig'atov) kabi talabalar 1929-yildan Mustafo Cho'qay bilan birgalikda "Yosh Turkiston" majmuasini chiqara boshladilar. Sobir Ibrohim (Turkistonli) va Abdulahob O'qtov, uning xotini Saida Sherahmad qizi ham shu guruh ichida jurnal faoliyatida qatnashganlar. Bu insonlar Ikkinchi jahon urushi boshlangungacha Olmoniyada yashab, "Yosh Turkiston"ning har oyda chiqib turishida jonbozlik ko'rsatdilar. Urush muhitida bu ishlar to'xtarkan, Turkiyaga ko'chib kelishgan. Tohir Chig'atov Anqara universitetida professor o'laroq, Abdulahob O'qtov esa Istambuldagi Xasaki kasalxonasida xizmat qildi. Olmoniyada o'qigan turkistonliklardan Zahro Qo'shoy Haydelberg universiteti tibbiyot fakultetini bitirgani-dan keyin yurtga qaytmagan. Shtutgart shahrida

⁹ Qavs ichida berilgan ismlar ushbu shaxslarning taxalluslari hisoblanadi.

ishlagan. Afsuski, u o'qishini tamomlaganidan bir oz muddat o'tgach, yomon kasallikka chalingan va 1931-yilda Olmoniyada vafot etgan¹⁰.

A.Andijonning bu so'zlaridan ayon bo'lishicha, Zuhra Kashayeva (Zahro Qo'shoy) o'qishni tugatganidan so'ng sirli ravishda g'oyib bo'lmay, aksincha, kasallikka chalib, o'n gulidan bir guli ochilmay vafot etgan. Afsuski, biz shu vaqtgacha u haqida biror ma'lumotga ega bo'lmay, hatto Germaniyaga o'qishga borgan talabalar ro'yxatiga ham kiritmay keldik.

Germaniyaga o'qishga borgan talabalar to'g'risida so'z borar ekan, yana Sayyid Ali Xo'ja, Tohir Chig'atoy singari taniqli shaxslar to'g'risida bir-ikki so'z aytish taqozo etiladi. Lekin Vataniga qaytib kelmagan vatandoshlarimiz haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaganimiz uchun bu masalani chetlab o'tishga majburmiz. Ammo ulardan biri bizni uzoq vaqtdan beri qiziqtirib kelayotgani tasodif emas. Bu Sayyid Ali Xo'ja bo'lib, uning kaminani "uzoq vaqtdan beri qiziqtirib kelayotgani"ning sababi shundaki, biz bu nom bilan ilk bor Cho'lpon she'rlari orqali tanishganmiz.

Cho'lpon adabiy merosini to'plash va nashr etish ishiga kirishgan yillarimizda bir jumboq bizni o'ylantirib qo'ygan. Shoirning 1920-yil 29-aprelda yozilgan va ilk bor "O'zbek yosh shoirlari" to'plamida chop etilgan "Tabiatga" degan she'rida "Saidalixojaga bag'ishlov" so'zlari ilova etilgan, lekin biz Saidalixojaning kimligini aniqlay olmasdan kelardik. She'r esa bunday satrlar bilan boshlangan edi:

*Kel, malak, kel, kel, pari, kel, kel, o'pay bir erkalab,
Kel, quyosh chiqquncha o'ptir...
Kel, kel, o'pay bir ertalab.*

Bu inja she'r bag'ishlangan Saidalixojaga kim bo'ldi ekan? Bu ism Cho'lponning boshqa biror asarida uchramaydi. Uning zamondoshlari va ilk tadqiqotchilari ham bu masalaga oydinlik kiritishmagan. Keyinchalik o'zbek matbuotining fidoyi tarixchisi Boybo'ta Do'stqora tufayli ma'lum bo'ldiki, u ustoz Oybek bilan birga Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qigan va texnikumning Oybek muharrirlik qilgan "Tong yulduzi" devoriy gazetasida maqolasi bilan qatnashgan ekan. Xullas, shu ma'lumot asosida biz Cho'lponning to'rt jildlik "Tanlangan asarlar"idan o'rin olgan she'rga quyidagicha izoh berdik: "Saidalixon (Saidalixojaga) – Cho'lponning toshkentlik do'stlaridan biri. Adabiyotshunos Boybo'ta Do'stqorayevning guvohlik berishicha, uning taxalluslashgan familiyasi Normuhammadiy bo'lib, 1925-yilda Eski shahardagi ta'lim va tarbiya texnikumining "Tong yulduzi" devoriy gazetasida "Maktabimizda tashkilot ishlari" degan maqolasi bosilgan. Agar shu ma'lumot haqiqatga yaqin bo'lsa, u 20-yillarning boshlarida dastlab Eson

¹⁰ Andijon A. Turkiston uchun kurash. 1-jild. – T., 2017. – B. 244.

afandi Musayev rahbarlik qilgan ta'lim va tarbiya texnikumida Oybek, Mirkarim Osim, Subutoy Dolimov singari talabalar bilan birga o'qigan bo'lib chiqadi. Ayrim manbalarga qaraganda, u o'sha yillarda xorijiy mamlakatlardan biriga qochib ketgan. Uning keyingi taqdiri to'g'risida aniq ma'lumot yo'q¹¹.

Keyingi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, Cho'lpon she'ri bag'ishlangan "Saidalixojaga" 1922-yili Germaniyaga o'qishga borgan va Vataniga qaytish imkoniyati bo'lmagani uchun xorijda qolib, "Sayyid Ali Xo'ja" ismi bilan faoliyat olib borgan.

Talabalarni boshqa shahar va mamlakatlarga yuborish masalasi bilan Toshkentda tashkil etilgan "Ko'mak" jamiyati shug'ullangan: "Ko'mak" jamiyatining yuzaga kelishida, – deb yozadi B.Irzayev, – Maorif komissariati O'zbek bilim hay'at qoshida o'rta, oliy maktablarda o'quvchi o'zbek yoshlarining "Adabiyot to'garagi" asos bo'lib xizmat qildi¹². Bu to'garak tomonidan 1922-yil 8-aprelda "Armug'on" nomli bir martalik jurnal chop etildi. To'plamda Avloniy, Cho'lpon, Botu, Oybekning she'r va hikoyalari bilan birga "keyinchalik Germaniyada tahsilini davom ettirgan Sattor Jabborning "O'ksiz ruhim", Sayyid Alixo'janing "Tabiatga javob" maqolalari" (B.Irzayev) ham bosilgan.

Agar Saidalixojaga bag'ishlangan Cho'lpon she'rining "Tabiatga" deb nomlanganini eslasak, Sayyid Ali Xo'janing "Tabiatga javob" maqolasi o'z-o'zidan Cho'lpon she'riga yozilgan javob bo'lib chiqadi.

Saidalixojaning Cho'lpon she'riga maqola bilan javob bergani uning she'riyatning sehrli olamidani uzoq bo'lganini mutlaqo anglatmaydi. Aksincha, u, "Ko'mak"da chop etilgan she'rlariga qaraganda, nozikta'b shoir bo'lgan. Uning "Tabiatdan javob"ini ham "maqola" deb emas, "nasriy she'r" deyish to'g'ri bo'ladi.

Ahmadjon Ibrohimning "Turkiston" gazetasi (1923-yil 14-mart)da bosilgan "Ko'mak uyushmasidagi o'rtoqlarimga" maqolasidan ma'lum bo'lishicha, o'sha yilning mart oyida "Ko'mak" jamiyatining Berlin bo'limi ochilgan va unga Saidalixojaga rahbar etib saylangan. Ushbu jamiyat (uyushma) "Ko'mak" jurnalining Saidalixojaga muharrirlikida nishona sonini chiqarishga muvaffaq bo'lgan. Jurnal Berlindagi "Ozod Sharq" bosmaxonada nashr etilgan. Afsuski, A.Andijon Saidalixojaning ham, boshqa turkistonlik talabalarining ham keyingi taqdiri to'g'risida boshqa biror ma'lumot bermagan. Demak, bu masala maxsus o'rganishni taqozo etadi.

¹¹ Ch o' l p o n. Asarlar. To'rt jildlik, 1-jild. She'rlar. Mansuralar. She'riy xatlar. – T.: Akademnashr, 2018. – B. 51.

¹² O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. Muallif B.Irzayev. – T., 2018. – B.11.



Ozoda BEKMURODOVA

Yuksalib ketaman yonish chog'ida...

O'z yurtimning tuprog'i...

Yot ellarning bog'i bilan bog'chasi,
O'z yurtining yantog'icha bo'lolmas.

Maxtunquli

O'zga yurtning
gullar o'pgan ko'chasi.
Dengizlari,
nilufari, g'unchasi.
Daryolari,
yuzlab, minglab nechasi.
Ko'kni quchgan
mojizasi, barchasi.
O'z yurtimning
tuprog'icha bo'lolmas.
Yot ellarda
Ko'nglim
yashnab kulolmas.
Garchi uchdim,
yulduzlarning qanotida,
Nasim bo'ldim
sog'inchlarning sirotida.
Moviy, alvon
jilvalarga maftun bo'ldim,
Ruh bermadim
ruhsizlarning hayotiga.
Menga hech kim
O'z elimdek bo'lolmas.
Yot ellarda
ko'nglim yashnab kulolmas.
Nurlar ko'rdim,
Osmon bilan bo'ylashgan,
Sirlar ko'rdim
Sinoatdan so'ylashgan,
Uchayotgan turnalarni
Tinglasam,

Oshiyonining sevgisidan
Kuylashgan.
Yot ellarda
ko'nglim yashnab kulolmas.
Dil dardimni
marvaridlar ololmas.
Yantog'gullar –
bolaligim bayrog'i,
Xor-u xasi,
o'lanlari, yaprog'i.
Jonga malham
Qushlarining sayrog'i.
Ko'zlarimga to'tiyo
itlarining tirnog'i.
O'z yurtimda raqib
Sochim silolmas
Yot ellarda
ko'nglim yashnab kulolmas.
El hajrini
g'aribalar biladi...
Yurt ishqida
sarg'ayadi so'ladi...
Ko'kka boqsam
yuksalaman, o'saman
Nafas olsam
Olamlarim to'ladi!
Yuragimni
Zeb-u zarlar ololmas,
Yot ellarda
ko'nglim yashnab kulolmas.

* * *

Sizdan menga nurlar kelar osmon-osmon,
Yuragimda shodliklarim xirmon-xirmon.
Hayotimning ma'nosini topgandayman,
Ishq ahlining sharobidan totgandayman.

Ey, qalbimning bu dunyoda yorug' kuyi,
Balki sizni izlaganman umrim bo'yi,
Sizni ko'rgan ro'yolarni, o'pib suyib,
Tirikchilik dunyosidan o'tgandayman...

Past-u baland ko'chalarda zor-u sarson,
O'tgan ketgan nechalarga bo'lib hayron,
Yig'lab ketdi mendan, qancha davr-u davron,
Yashamasdan, bu kunlarni kutgandayman!

Sizni ko'rgan lahzalarim afsonadur,
Ismingizning shu'lasidan mastonadur,
(Menam dildor, bir soyladim Sultonimga)
Ikki dunyo bu so'zlarim yagonadur!

Sizdan menga nurlar kelar osmon-osmon,
Yuragimda shodliklarim xirmon-xirmon.
Hayotimning ma'nosini topgandayman,
Ishq ahlining sharobidan totgandayman...

* * *

Ul ko'ngli qattig'dan adashtir meni,
Nuri oshiyonimga gardi tushmasin...
Sevgisiz sayrdan asragil meni,
Maysalar yo'limga mehr to'shasin.

Mendan ayro tushsin nigohi muzlik.
Yo'lmdan ayrilsin nursiz yo'llari.
O'ldirsa, o'ldirar meni hissizlik,
Bog'imga kelmasin sovuq yellari

Bir boqsam toshlarni sel qiladurmen,
Uning tun bag'rini eritolmadim.
Men axir orzudan yaralgan gulmen,
Dildorlik shavqini his etolmadim.

Ul qahhor qatlidan omonlik bergil,
Dilimda o'stirgan dunyolar haqqi,
Men faqat ayolmas...
Onaman axir!
Asragil, asralgan xoslaring yanglig'...

Evrilish

Dunyo bilan,
Ishim yo'q mening.
Dunyo menga qilmaydi karam.
Sukunat va moviylik aro,
Yashayapman,
Yashil
va ko'rkam...
Derazamni chertmaydi osmon,
O'zim qarab qo'yaman gohi.
Borlig'imni o'rtaydi hamon,
Naysonlarning yoshli nigohi...
Ko'ksim to'la
Sevgi va orzu
O, kimnidir
sog'indim behad...
Cheksizlikda
yashindek chaq nab,
Intizormi,
Meni kutgan baxt!
Tosh yo'llardan jimgina o'tib,
Yuragimni quchaman
sokin.
Faqat seni,
Bir seni kutdim...

O, tushundim,
Istiqbol yaqin!

* * *

Ko'zingga tik qarab yashadim...
So'nmadim,
to so'nggi gavharim qadar...
Har neki, uchrasa arzon va nursiz,
Boqmadim
bebahra qolsam-da agar.
Egmadim ko'nglimning qanotlarini,
Har bir siniqlarim qilichga do'ndi.
Yoqmadim xiyonat maktublarini...
Zulmat qanday cho'ksa,
intizor ko'ndim...
Muqaddas va porloq umidim haqqi,
Shunchaki farahga ko'nmadim.
Saharlar ifori kelarkan toki,
Toki falaklarga yetarkan dodim!
O'tkinchi nigohlar o'yingohida,
Makkor tilsimlarni yechib tashladim.
Yuksalib ketaman, yonish chog'ida...
Ko'zinga tik qarab yashadim
Qismat!

Ilhom faqat ish vaqtida keladi

Gabriel Garsia Marques hikmatlaridan



Atrofimizda shunday ajoyib, fantastik narsalar bor. Yozuvchilar esa ahamiyatsiz, kundalik voqealarni behuda tasvirlab o'tirishadi.

Baxt davolashi mumkin bo'lgan narsani davolaydigan dori yo'q.

Jilmay! Tashvish-mashaqqatlar rohatlanishiga yo'l qo'yma.

Uzoq kutayotgan yana ozgina kutishi mumkin.

Men boy emasman. Men puli bor kambag'alman. Ikkalasi boshqa-boshqa tushuncha.

Odam bir martagina dunyoga kelmaydi, hayot uni qayta-qayta yangidan tug'ilishga majbur etadi.

Odamning urushdagi hislarini tasvirlashga birgina "qo'rquv" so'zi yetarli bo'lib turganda, shuncha so'zni uvol qilishning nima keragi bor?

Oilaviy hayotda mayda g'idi-bidilardan ko'ra katta halokatlardan qutulish osonroq.

Hamma narsaning joni bor. Faqat uning qalbini uyg'otish kerak, xolos.

Yaxshi ishtaha uchun yomon ovqat yo'q.

Ilhom faqat ish vaqtida keladi.

Kerak bo'lmay qolgan vaqtdagina bilim va aql bizni yo'qlab keladi.

O'tgan baxtli kunlar haqida alam va afsuslanishlarsiz o'ylay olish – juda g'alati xususiyat.

Orif TOLIB tarjimasi

Nazar EShONQUL:

ADABIYOT – MILLAT KO'NGLIDIR

*Yangilanayotgan dunyo
– poklanayotgan dunyodir.
Yangi adabiyot – yangi so‘z,
yangi til deganigina emas,
balki yangi dunyo, yangi
iztirob, yangi tafakkur, yangi
yuksaklik degani hamdir.*



...Go‘zallikni qabul qilish, zavqlanish har qanday hayrati so‘nmagan odamning qo‘lidan keladi, go‘zallik hamma-ni hayratga solishi mumkin, biroq uni yaratish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi.

“

O‘ziga ishonmagan odam yoxud “Men”i shakllanmagan odam – ichkarisi zabt etilgan, hech bo‘lmasa, zabt etilishi arafasidagi odamdir. Ichki dunyoning mustamlakasi qullikning, nari borsa mutelikning ichki ko‘rinishidir. Shuning uchun “Men” va mustamlaka, “Men” va totalitarizm, “Men” va yolg‘on kelisha olmaydi. Faqat mustahkam “Men”gina millat va vatan uchun bugun va ertaga ham o‘qiladigan, kuylanadigan, sharaflanadigan So‘z yarata oladi, ko‘z oldidagi voqelikni ijodkor olami bilan bog‘lay oladi.

Millatning estetik saviyasi, didi davlat chegarasi kabi qattiq himoya qilinishi shart bo‘lgan hudud deb o‘layman. Shu jumladan, bugungi kitobxonning ham didini o‘ldirmaslik, uni bestsellerga o‘rgatmaslik, ermak uchun o‘qiydigan kitobxonga aylantirmaslik lozim.

“*...Muhabbat yo‘q joyda tubanlikka yo‘l ochiq, jaholat sevgi daraxtida emas, adovat butog‘ida yetishadi.*



Adabiyot – millat ko‘nglidir. U ana shu katta ko‘ngilda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni bilishi, anglashi, og‘rishi, zavqlanishi, kuyinishi, talvasaga tushishi kerak. Ana shu anglash jarayoni turlicha kechadi.

Adabiyot – shafqatsiz. U bag‘ri-da tomlar bitganni emas, yuksak badiiy talabga javob beradigan haqiqiy bitta jumla yozganni ham olib qoladi.

Adabiyotning azaliy mavzusi inson. To‘g‘ri, u qahramon qilib olgan inson Zamon bilan, uning muammolari bilan yuzma-yuz turgan shaxs. Adib insonni yuzida va qalbida balqib turgan zamon bilan yaxlit holda, zamon bilan munosabatga kirishgan holatda, davr bilan ma‘naviy-ruhiy tippa-tiklikda tasvirlasa ham, baribir, kundalik mavzularning izidan quvib yurishi shart emas.



Haqiqiy san‘at o‘rnini shou-biznes tafakkur tarzi egallab oldi. Yengil-yelpilikka asoslangan, saviyasiz olomonga mo‘ljallangan, ko‘proq pul to‘plashdan boshqa hech qanday niyati bo‘lmagan bu “madaniyat” shu paytgacha shakllangan, ajdodlarimiz zeb bergan didimizni xatar ostiga qo‘yayotgani ham rost.





Tuyg'ularni soldim qiynoqqa...

Alisher BOYMURODOV

1993-yili tug'ilgan.

Respublika yosh ijodkorlarining

Zomin seminari ishtirokchisi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Birinci kitobim" rukni-da "Soyabon" nomli she'riy to'plami chop etilgan.

Kuzatuv

Yuragingni avrasang bazo'r,
Tuyg'ularni cho'ktirolsang tiz.
Yomon bo'lar o'tsa yoningdan
Seni yaxshi ko'rmaydigan qiz.

Isyon qilar yurak daf'atan,
Zanjirlarni parchalar tuyg'u.
Yonginangdan o'tar-u lekin
Seni yaxshi ko'rmaydi-da u.

Zohiringda sipo va mayin,
Jilmayasan o'lib-tirilib.
Seni yaxshi ko'rmaydigan qiz
Muyilishdan ketar burilib.

Ozroq yerga qaraysan keyin,
Ko'kka qadab tutasan ko'zni.
Ammo ko'rging kelaveradi
Seni yaxshi ko'rmagan qizni.

Bilib qo'ying

Dashtda yurgan toshbaqa yanglig',
Ninachiday qo'nib qiyoqqa.
Qarmoqdagi baliq singari
Tuyg'ularni soldim qiynoqqa.

Oqqushlarni haydagan ko'lday,
Kalamushday teshib kemani.
Molga o'xshab podadan ayri
Tuyg'ularni yuldim, yemadim.

Toshning nusxi urdi yuzimga,
So'nib qoldi, ko'zlarim – Orol.
Manglayidan sho'rladi sevgi
Men yashadim chanqab, bemalol.

Sipqorilgan, so'ngra hijronda,
Suv qo'shilgan obi zam-zamman.
Natijada bilib-bilmasdan
Sizga o'xshab qoldim – odamman.



Shahzod ShOMANSUROV

1986-yili tug'ilgan.
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn
institutini tamomlagan.

Kungaboqar

(Novella)

I

Keng dala, sokin shabada esmoqda. Atrofda odam bo'yi kungaboqarlar osmonga intilgan-cha cho'zilib turibdi. Dala o'rtasida yam-yashil yolg'iz daraxt. Faqat shu daraxtning ostigina keng daladagi yagona soya joy. Shamolda kungaboqarlar asta tebranadi. Ajib shitirlagan tovush butun kengni tutadi. Shunda ulardan qandaydir o'zgacha hid taraladi. Bu yerda daraxtga suyangancha achchiq sigareta tutatishning zavqi boshqacha. Jimgina atrofni kuzatasan, shamol esadi. Kenglikni sirli tovush qamrab oladi. O'simlik barglari shitirlaydi. Uzoq-uzoqlardan nimalardir ko'rinib turadi. Tutunni ichga chuqur tortganча o'sha miltirab turgan nuqtalarga termilasan. Shunda o'zing ham shu dala ichida qolib ketasan. Go'yo mangulikka singasan...

II

Achchiq qora qahva odamni tetiklashtiradi. U teran fikrlashga yordam beradi. Qahvada aldamchi ta'm yo'q. Ko'zlar katta ochiladi. Miya ham tez ishlay boshlaydi. Katta maydon. Atrofda sayyor rassomlar, musiqachilar o'z

san'ati bilan, odamlar gullar savdosi bilan band. Tosh terilgan bu katta maydon o'n sakkizinchi asrdan beri odamlar bilan gavjum. Aylana favvoradan suv otilib turadi. Ba'zan quyosh nurlarida tomchilar kamalak hosil qiladi. Favvora ortida esa allaqanday otlıq haykali ko'rinib turadi. Bu yerga san'atga oshufta kishilar yig'iladi. Kimdir o'z sur'atini ishlatadi. Boshqa bиров antikvar buyum qidiradi. Ba'zilar oddiy maydonni shunchaki aylanib yuradi. Menga doim rassomlik yoqqan. Bolaligimda qora qalamda nimalardir chizardim. Ustidan qizilni yurgazardim. Bu ikki rang o'zaro uyg'unlashadi. Biroq rassom bo'la olmadim. Hozir esa chizishga xohish yo'q. Atrofga boqar ekanman, kungaboqar dalasi aks etgan rasmga ko'zim tushdi. Rassomlar kenglikni ko'p tasvirlashadi. Van Gog ham kungaboqarlarni bir necha bor chizgan. Ammo bu kartina mutlaqo boshqacha. U xayolan chizilmagan. Uni tasvirlash uchun dalada soatlab etyud qilish kerak. Bu aynan o'sha dala – men doimo bir odamni kutadigan joy. Shamolda tebranayotgan o'sha kungaboqarlar, o'sha qizg'ish, qonayotgan shafaq, zaminga bosh qo'yayotgan quyosh.

III

Uch kundan beri shu minoradan turib o'sha suratni kuzataman. Uni qaysi rassom chizgani ni menga ma'lum. O'shanda u navqiron edi. Yoqimsiz iljayar, rang qo'yishida ham o'zgacha uslub bor edi. Uning harbiycha kiyingan qi-yofasini hech qachon unutmayman. Kartina hamon maydonda turibdi. U favqulodda iqtidor bilan ishlangan. Odamlar unga beparvo o'tib ketishlari mumkin. Biroq haqiqiy san'atni ajrata oladigan kishi uchun bu shoh asar. Uni har kuni yosh yigit olib keladi. Bir-ikki xaridor so'rashini aytmasa, bu asar bilan hech kim qiziqmaydi. Kech tushgach, yigit asarni qo'ltiqlagan qayergadir yo'l oladi. Albatta, uning qo'lida yana bir nechta boshqa manzaralar ham bor. Ammo eng katta kartinasi shu: kungaboqar dalasi. Asar-ku shu yerda, lekin musavvirning o'zi qani? Nega asaridan xabar olgani kelmaydi? Kartinaga zimdan nazar tashlayman. Dala xuddi o'sha rakursdan chizilgan. O'sha balandlikdagi daraxt yonida turib sharqqa yuzlanib ishlangan. Uni faqat birgina odam shunaqa qilib chiza oladi. Tirqirab oqayotgan qondek shafaqda oddiy ranglar yo'q. Maktabda rassomlar haqida ko'p kitoblar o'qirdim. Ularni "boshqacha" odam bo'ladi, deyishardi. Bir rus rassomi askar bo'lgan. U ko'p odamlarni o'ldirgan. Keyin o'sha odamlar jasadi tepasida soatlab turib qoralamalar qilgan. Verishiyaginni shu sabab "qo'li qonga botgan rassom" deyishgan. Leonardo da Vinchi ham jon berayotgan odamlarni tasvirlagan. Dorga osilgan odamlarni ko'p kuzatgan. Lekin o'zi odam o'ldirmagan. U faqat chizgan. Odam o'ldirish bilan o'lgan odamni chizishning farqi katta. Birinchi marotaba qo'limga pichoq olib tobi qochgan buvim uchun tovuq so'yib bermoqchi bo'lganman. Albatta, onamning qistovi bilan. Dadamdek har narsani bilgim kelardi o'shanda. Biroq tovuqni so'ya olmadi. Har safar qo'lim titrab pichoq tushib ketaverdi. Bu holatni kuzatgan o'rtoqlarim rosa mazax qilishgandi. Bugun ularni ko'rmaganimga ham chamasi o'ttiz yil bo'ldi. Yo undan ko'p... Men o'shanda ulardan qattiq nafratlangandim. O'g'il bola o'zini ojiz sezishidan og'irroq alam yo'q. Bola bo'lsam-da, ularga o'xshamasligimdan uyalardim. Men faqat chizardim. Tengdoshlarim esa har safar meni uchratishganda mazax qilishdan to'xtashmasdi. Bugun ular meni ko'rishganda edi, uyalib qolisharmidi balki? Yo, menimcha, qo'rqanlaridan jim bo'lib qolishardi.

IV

Urush boshlanganda hali go'dak edim. Mo'ylabi endi sabza urayotgan o'spirin. O'n besh yoshga kirgandim. Uyimizda ajoyib radio bo'lardi. Dasturxoniga qo'l cho'zganimda... oraga jimlik cho'kdi. Hamma radioni tinglardi. Yevropada Ikkinchi jahon urushi boshlangani xabari barchani esankiratib qo'ydi. Urush xuddi jahannam olovidek kengayib borayotgandi. Bobom: "Urush kimlargadir kulfat, kimlargadir baxt olib keladi" deb aytardilar. Urush bizga kulfat keltirdi. Esimda, qishlog'imizdagi qaysidir bolakay ikki tengdoshini o'roq bilan o'ldirgani haqidagi mish-mish hammada qo'rquv uyg'otgandi. U, aslida, bo'lganmi-yo'qmi bilmadim-ku, ammo men ham o'sha bola bilan ro'baro' kelishga cho'chirdim. Go'yo u meni ham o'roq bilan quvadigandek. Yaxshiki, uni qamab qo'yishgan. Balki bu voqea umuman bo'lmagandir. Biz kabi quloqsiz bolalarni qo'rqitish uchun atayin o'ylab topilgan to'qimadir? Har holda o'sha vaqtda bu hikoya biz eshitgan eng qo'rqinchli hodisa edi. Tasavvurimda u paxmoq sochli, yuzlariga sepkil toshgan, qotmadan kelgan chayir o'ris bola gavdalanardi. U men kabi qo'rqoq bo'lmagani aniq. Bo'lmasam, odamlarga o'roq bilan tashlanarmidi? Bolaligimda u haqda eslagim kelmasdi. Bu qo'rqinchli tasavvurlarni uyg'otadi. Go'yo u bug`doyzordan qo'lida o'roq bilan chiqib keladi-yu, o'sha bolalar kabi meni ham quvib ketadi.

V

1942-yili Stalingraddan poyezd yo'lga tushdi. Otam va uning kichik singlisi, men unda qayergadir qochib borardik. Urush talato'pi odamlarni bir-biridan ayirgan dahshatli davrlar edi.

Yarim tun. Dabdurustdan o'q ovozlari eshitildi. Poyezd to'xtadi. Hamma birin-ketin vagonlardan olib tushildi. O'shanda nemis tilini bilmasdim. Faqat qo'rquvdan titrardim. Atrofga alanglardim. Otam qo'limni mahkam ushlab olgandi. Shu tobda u singlisining qo'lini ham qattiq tutgandi. Askarlar odamlarni juft-juft qilib bog'lashdi. Ko'prikka olib chiqib ulardan bittasini otib tashlashardi. Ikkinchi odam ham u bilan daryoga qulardi. Katta daryoda esa tirik qolgan sherigi ham cho'kib olardi. Oramizda ba'zilar dod solar, boshqalar esa o'limga tik boqardi. Fashistlarda o'q yetarlicha edi. Odamlarni otib o'ldirish uchun ularni daryo ustidagi ko'prikka olib kelish ham shart emasdi. Ammo ular shunday qilishardi. Balki bunda qandaydir

g'ayrinsoniy lazzat bo'lgandir? Ba'zi odamlar o'zganing azobidan zavqlanadi. Hammani ikkita-ikkita qilib, ba'zi bolalarni onasiga qo'shib bog'lashardi. Otamni alohida, ammam va meni birga bandi qilishdi. Keyin arqonlarni bir-biriga chirmab tashlashdi. Askarlar bizni turtib temir yo'l o'tgan ko'priikka boshlashdi. Ko'prik baland edi. Ostida oqayotgan suv ham juda vahimali ko'rinardi. Suv loyqa, atrofdan porox hidi anqib turardi. Uzoqdan daryoda o'liklar oqib borayotgani ko'rinib turardi. Oldimizda bir necha odamlar. Ortimizda ham qo'llari bog'liq holda boshqalar kelardi. Endi qo'rquv yurakka g'ulg'ula solar, odamlar qanday dod solayotganini eshitmasdim ham. Bir askar yonimizga yaqinlashdi. Uning ko'zlarida na qo'rquv va na rahm-shafqat bor edi. U endigina o'n to'qqizga kirgan ammamning peshonasiga qurol tiradi. Kiprik ham qoqmay uni otib tashladi. Biz daryoga quladik. Otam bilan men tirik edik. Go'yo vaqt to'xtab qolgandek. Otam nimalardir deb menga qichqirdi. Men hech nimani eshitmadim. Ko'z oldim qorong'ulashib ketdi. Bir zumga xayolimda bolalik onlarim jonlandi. Pechda pishgan issiq kulcha. Kulchadan murabbo hidi kelib turardi. Bu yoqimli is ochiq derazadan atrofga taralar, o'shanda o'yinni tashlab uyga chopardim. Qo'llarimni ham yuvmasdan dasturxonaga yaqinlashardim. Onamning kinoyali nigohi doimo meni to'xtatib qolardi. Qo'l yuvmasdan dasturxonaga o'tirishim unga yoqmasdi. Ko'zlarim yumuq, yuzim bilan yaxdek suvga urildim. Hech qachon suzishni o'rgana olmaganman. Bu mening eng zaif tomonim. Suvga tushdim deguncha qo'l-oyoqlarim betartib harakatga keladi. Suzish o'rniga cho'ka boshlayman. Daryo tez oqardi. Quloqlarimga g'urillagan ovoz keldi. Butun badanim muzlay boshladi. Ko'zimni bazo'r ochdim. Suv ostida hech nima ko'rinmasdi. Daryo bizni o'z domiga tortardi. Nafasim ichimga qayta boshladi. Ortiq bu holda tura olmasdim. Og'zimni beixtiyor ochib yubordim. Og'zimga suv kirib, ko'nglim ag'darilib ketdi. Nimadir meni yuqoriga tortardi. Hushimni yo'qota boshladim. Birdan suv yuzasiga qalqib chiqdim. Otam tirik, u meni tortqilaganicha suzardi. Yana hushimni yo'qotdim. Birdan o'zimga keldim. Suvga qusib yubordim chog'i, ko'nglim ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Ichagim buralib qalqib, qattiq-qattiq yo'talardim. Ko'z oldim xiralashar, faqat suv yuzasidagi o'liklarni elas-elas anglardim. Ko'prikdan uzoqlasharkanmiz, u yerdan esa

hamon achchiq yig'i, o'qlar ovozi eshitilardi. Artofni tutun, qo'rg'oshin hidi tutgandi. Bir uyum o'lik oqimida otam ikkimiz hayot uchun talpinardik. Otam juda matonatli odam edi. U o'shanda ikkimizni qutqarib qolgandi. Hozir esa bu kartinaga qarab hayotimdagi eng mudhish kun, o'sha yaxdek daryoda chalajon oqqanim emas, balki kungaboqarlar o'sgan daladagi voqea ekanligini his etaman.

VI

Bugun yomg'ir yog'di. Xiyobonda odam kam. Hali maydon qurib ulgurmagan. Odamlar ham g'alati bo'ladi. Shu salqinda ham muzqaymoq yeguvchilar topiladi. Ikki sevishgan qo'ltiqlashib o'tib ketdi. Ertalabdan yomg'ir yoqqan bo'lsa-da, favvoradan suv otilib turibdi. Suv marjondek atrofga sachramoqda. Men esa hamon minorada qurolimni tutganicha atrofni kuzatayapman. Balki aynan bugun nishonim aniq bo'lar? Sukunat. Odamlar orasida qandaydir paxmoqsoch, yuzlarini sepkil bosgan bola suvga angarayib qarab turibdi. U biram bechora ko'rinardi. Balki tilanchidir? U men eshitgan dahshatli hikoyadagi o'sha o'roq tutgan bolaga o'xshardi. Faqat qo'lida o'rog'i yo'q. Peshonamdan sovuq ter chiqdi. Yuragim tez urib ketdi. Bugun maydonga suratlar sotadigan yigit chiqmadi. Uni bir necha soat kutdim. Balki, ertaga kelar...

VII

Biz omon qoldik. Otam ikkimiz urushda birga xizmat qildik. Hali bola bo'lsam-da, qo'limga qurol tutishdi. Merganlik san'atini o'zlashtirdim. Birinchi bor odam o'ldirganimda qo'llarim titragandi. Qurolni to'g'ri ushlab tura olmasdim. Lekin yig'lamaganman. O'shanda mendagi ikkinchi iqtidor ochilgandi. Aytishlaricha, ajoyib nafas olarkanman. Bu merganlik uchun ayni muddao. Soatlab bir joyda jim yotganicha kerakli nuqtadan ko'z uzmay sabr bilan kutish go'yo o'yinga o'xshardi. Boshingni ko'tarsang – yutqazasan. Keyin boshqa bunaqa o'yin bo'lmaydi. Men partizanlar orasida afsonaga aylandim. Bir nuqtadan turib ba'zan yettitagacha askarni otardim. Odam o'ldirish menga zavq bermasdi. Lekin ikki ko'zning ortasini nishonga olish o'zgacha ish edi. Sen o'q tekkan askarni bir lahzada ko'zlari xiyol tepaga ketayotganini ko'rasan. Ba'zan odamlar juda xunuk o'lim topadi. Hali joni uzilmasdan chakaklari osila boshlaydi. Kalovlanib yiqiladi. Gohida jon talvasasida tipirchilaydi. O'q bilan

jonni olish mumkin. Lekin bu shu onning o'zi-dayoq o'ladi degani emas. O'q yeganlar orasida bir necha daqiqa alanglab yotaveradiganlari ham bo'ladi. Bulutli kun quyuq o'rmonzorda bittasini otdim. Avval nishonni doimgidek ikki ko'zning o'rtasiga oldim. Bu mening uslubim edi. Keyin o'q uzdim. Askar boshi chayqalib, ortidagi daraxtga borib urildi. Biroq joni uzilmadi. Qon peshonadan sizib chiqar, bazo'r nafas olardi. Men atayin qayta o'q uzmadim. Uni diqqat bilan kuzata boshladim. U na tirik edi, na o'lik. Barmoqlari titrab harakatlanar, og'zi yopilmasdi. Og'zidan qon oqardi. Ko'zlari men tomon yo'nalgandi. U go'yo meni ko'rib turardi. Ko'zlari moviy edi. Menga boqib "Men hammasini ko'rdim, bu sen..." deyayotgandek edi. Men ancha uzoqda, quyuq butalar ostida yotibman. Qay burchakda pisib yotganimni hech kim bilmaydi. Lekin u menga boqib turardi. Nazarimda, bu inson ko'zlari emas. Boshqacha ko'zlar... O'lgan odam yig'laganini o'shanda ko'rganman. Uning ko'zlaridan yosh sizib chiqardi. Biroq nafas olishdan to'xtagandi. Atrofimizda bir necha askar bor. Barchasi bizni izlar, butazorda esa uchta mergan yotibmiz. Boshqalarni otmadim. Men o'z nishonimni kuzatardim. U nimagadir yetisha olmay armon bilan ko'z yosh to'kar shu bilan birga, go'dakka o'xshardi. Biroz o'tib ko'zlari qotdi. Joni uzildi. Shundagina u boshqa murdalardek tinchib qoldi.

Merganlik tug'ma bo'ladi, deyishadi. Bu haqda biror nima deya olmayman. Men faqat otishni bilaman. Ko'zlarim nishonni izlayotganda boshqa odamga aylanaman. Bu go'yo ishqibozlar o'yinidek. O'zgacha shiddat va lahzalik lazzatlanish. Shunchaki o'lim o'yini. Undagi lazzat aniqlik hamda murakkablikda. Bir safar haqiqiy merganni ham otdim. Uni partizanlar Shlosnberg deyishgandi. Yuzga yaqin kishini o'ldirganmish. U bilan o'ynashish menga yoqdi. Bu odam boshqalarga o'xshamasdi. Unda o'ziga xos taktika bor edi. Men qadimiy afsonadagi qahramon kabi labirintdagi Minotavrni har burchakdan izlardim. Bunaqa vaqtlarda uni qay tomondan chiqib kelishini bashorat qilish qiyin. Xarobazorga aylangan shaharda teshiklar, pastqamlar ko'p. Aynan qay biridan Minotavr meni kuzatyapti? Uni qonga to'lgan ko'zlarini izlardim. Tavakkal qila olmayman. Faqat nishon, yo o'lim. Ko'zlarimni zumga yumdim. Chang ko'tarilgan, atrofni o'q ovozlari tutgan, qora tutunga burkangan xarobazorni keng, ochiq daladek tasavvur qildim. Faqat ich-

ki ovozinga quloq tutardim. Ayni damda men uni allaqanday ichki ishonch bilan qayerda pusib yotganini sezgandim. Ana u, o'sha Minotavr! Qizil, qonga to'lgan ko'zlari bilan menga qarab turibdi. Ko'zimni ochdim-u, chaproqqa burilib birinchi yarqiragan nuqtaga o'q uzdim. Chamamda, janggohda uch soatlar yotdik. Tanim beton siniqlari ustida momataloq bo'lib ketgandi. Kech tushgach dushman ham mavhumlikka kirib ketdi. Biz chumolilardek g'imiray boshladik. Albatta, nishon tomon shoshardim. O'q unga tegdimi yo boshqaga, shunisiga qiziqardim. Beton ostida Shlosnberg yotardi. O'ng ko'zini aniq nishonga olibman. Uning o'limi xabari tez tarqadi. Suratini gazeta-da ham bosishdi. O'shanda quvonchdan o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Bugun bu quvonchdan asar ham yo'q. Ichimda qandaydir g'alayon, achchiq alam, qasos hissi cho'g'dek ko'ksimni kuydiryapti. Shu la'nati minoradan turib men har kuni o'sha qo'li qonga botgan rassom ishini kuzataman. Buni qanchalar og'ir ekanligini tasvirlab berolmayman. Men uning kelishiga ishonaman. Albatta, shu minoradan turib uni naq ikki ko'zi o'rtasiga o'q joylayman. U boshqalardek o'lmaydi. Yerga yiqiladi. Qoni tirqirab joni uzilmay qiynaladi. Alanglab, jon hovuchlab favvora oldigacha sudralib kelar... Aytishlaricha, jon halqumga kelganda odamning tomog'i qaqrarkan. U ham o'lardek chanqasa kerak. Kaftini ochib suv ichishga urinadi. Qo'llari titrab suv to'kilib ketadi. Titrayotgan lablari bilan suv tekkan qo'llarini yalaydi. Men uni shu minoradan turib kuzataman. U osonlikcha jon bermaydi. Axir u qotil... Uni qanday o'lishini ming marotaba tasavvur qilib ko'rgandim.

VIII

Odamlar haqida bir nima deyish qiyin. Bir ruhoniyni cherkovda osishganini ko'rganman. Gunohi og'ir edimi, ko'zlari o'yib olingandi. Yuzini qon yuvgan, panjalariga mix qoqilgan. Balki uni avval xochlashgandir. O'shanda birinchi bor tamaki tortgandim. Cherkov vayronasiga suyanganicha osilgan ruhoniyning suratini qoralardim. U shamolda xiyol tebranib turardi. Qalamimning uchi sinib ketdi. Tamakini chuqur tortganicha ruhoniyya tikildim. Tamakini tortganimda ko'pincha osmonga qarardim. Bizning ishda bulutlarga ko'pam angrayish yaramaydi. Aslida, merganlar umuman chekishi mumkin emas. Seni o'qqa yo sigareta cho'g'i, yo undan chiqayotgan tutun tutib beradi.

Nima ham qilardim. Bu bir ermak. Bolalik degani butazorda, yomg'irlar ostida, ustiga-ustak urushda o'tayotgandan keyin yana nima ham qilardim. Birdan bir ovunchog'im shu – tamaki. Uni ham hadeganda topib bo'lmazdi. Chekmasang ham bo'lmaydi.

IX

O'sha rassom kungaboqar dalasida nimanidir qoralardi. Qurolimning durbinidan kartinaga boqdim. Kungaboqarlarni chizayotgan ekan. Unda sokin shamol, tebranayotgan kungaboqarlar, botayotgan quyosh tasvirlanayotgan edi. Rassom harbiycha kiyingan, "SS" armiyasining xos zobitlaridan. Bu iqtidor bilan u yaxshi rassom bo'la olardi. Uning ishini uzoq kuzatdim. Kungaboqarlar xuddi jonlidek tasvirlangandi. Ranglar bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Kartinadan hatto shamolni his etish mumkin edi. Balki u rassomlik akademiyasining talabasi bo'lgandir. Har holda oddiy ishqi-boz bunchalik mukammal asar yarata olmaydi. Rasmdagi osmon, botayotgan quyoshga nima dir yetishmasdi. Ranglari tirik emasdi. Hali yakuniga yetmagan asar bir qarashda odamga osoyishtalik berardi. U, haqiqatan ham, iqtidorli edi. Kartina ranglarini Renuarning qaysidir ishiga o'xshatib yubordim. Qiziqish ustun kelib ishni kuzatishda davom etardim. Qo'limga palitrani tutib, shu dalani judayam chizgim keldi. Kungaboqarlarni tasvirlayotib, uning ortidan siniq quyosh nurlarini chiqarardim. Ranglar shiddati shunda seziladi. Orqa fon kenglikdan ufqqa ulanib ketsa, ranglardagi sezilar-sezilmas kontrast kishini asarga tortib ketaveradi. Shu payt qandaydir ovozlari eshitila boshladi. Uzoqdan askarlar rassom oldiga ikki kishini boshlab kelishardi. Zobit ularga yuzlandi. Birdan g'alati iljaydi. Chamamda ishiga xalaqit qilishgani unga yoqmadi. Yoki kartinasiga qandaydir yangilik topgandi. Shu tobda uni qanday kayfiyatda ekanligini anglash qiyin edi. U ikki tutqunga bejo boqdi. Sekingina ularga yaqinlashib, tutqunlardan biriga pichoq sanchidi. U yerga yiqildi. Darhol mo'ljalga oldim. Qurolimda o'q qolmabdi. O'qsiz mergan tishi yo'q bo'riga o'xshaydi. Asablarim qaynab ketdi. Zobit esa ikkinchi tutqunning, bo'yniga pichoq tortib yubordi. U men tomonga tisarildi, yiqilayotib, yuzi menga burilgandagina uni tanidim. Bu otam edi. Bo'g'zimga achchiq nimadir tiqildi. Otam yerda jon talvasasida yotardi. Kungaboqarlar shamolda tebranar, tepalikda

– daraxt ostida esa otam jon berayotgandi. U bu dunyo bilan vidolashmoqda. Mening esa shu onda ko'zlarimda yosh tirqiragancha uning ayanchli holatini kuzatishdan boshqa choram yo'q. Ovozim xirillar, lablarim titrar, otamning ko'zlarini kuzatayotgandim. U men tomonga qaragancha "Xayr, o'g'lim. Alvido, bolajonim..." deyayotgandek edi. U shu alfozda bir necha daqiqa yotdi. Atrofda askarlar sergak turar, men na qochishni va na shu yerda yotishni bilardim. Otam esa menga termilgancha nimalardir demoqda... Boyagi rassom esa bamaylixotir kartinasi ustida ishlar, osmonga, botayotgan quyoshga qarab-qarab qo'yardi. U birdan moybo'yog'ini otamning bo'yniga botirgancha kartinasi chizishda davom etdi. Endi rasmda shafaq qizarib qonayotgandi. U bo'yoqda emas, otam qonidan chizilayotgandi. Zobit esa iljayib ishidan zavqqa to'lardi.

X

Qishloq yaqinidagi qahvaxonadan chiqar ekanman sigareta tutatdim. Mayin shamol esmoqda. Uzun yo'lka bo'ylab o'sha kungaboqarlar o'sib yotgan keng dalaga yo'l oldim. Dala o'rtasidan kesib chiqib, yolg'iz daraxt oldiga



boryapman. Atrof sokin. Rassom bo'lganimda shu dalani chizardim, har faslda uni tasvirlardim. Kenglikka shu daraxtgina o'zga cha kayfiyat berib turadi. Ba'zan uni yoqib yuborgim keladi. Gohida esa suyanib to'yguncha yig'lardim... U ham men kabi yolg'iz. Bolalikni xotirlayman. Onamning shirin kulchalari. Muraboli kulchalar... Shu onda o'sha qo'rqinchli bolakay qo'lida o'roq bilan kungaboqarlar orasidan chiqib kelganda-mi. Balki undan nega bunday qilganini so'ragan bo'lar midim? Yoki ikkimiz jimgina shamolda kungaboqarlarning tebranishini kuzatib o'tirarmidik. Har holda u ham bola bo'lgan-ku... Odamning aytadigan so'zi qolmasa, jimgina sigareta tutatishga hech nima yetmaydi. Daraxtga bosh qo'ydim. Qiziq, bu daraxtning yoshi nechada ekan? Yuzmi, yo undan ortiq? Bir chetidagi shoxlari quriy boshlabdi. Urushdan bus-butun chiqish hamma daraxtlarga ham nasib etmagan. U esa hamon o'shandagidek. Keng dalada kungaboqarlar o'rtasida vazmin qad rostlab turibdi.

XI

Kulbam binoning tomida joylashgan. Yomg'ir yoqqanida tomchilarning tiqir-tiqiri odamni allalaydi. Avvallari yomg'ir ostida soatlab yotardim. Ko'zlarim bir nuqtaga termilaverib tinib ketardi. Ust-boshim shalabbo bo'lsa-da jim yotaverardim. Bahorda ba'zan yomg'ir yoqqanidan suv dahangacha kelardi. Loyqadan g'alati hid anqiydi – tiriklik isi. Bu o'sha mash'um daryoga o'xshamaydi. Hozir yomg'irdan uyqu keladi. Beton ustida to'shakda jim yotibman. O'ylab qaragam, mening hech qachon karavotim bo'lmagan. Faqat bolaligimda, olti yoshgacha kichkina yog'och karavotda yotganman. Yog'och chetlari naqshinkor edi. Keyin umuman boshim yostiqlik ko'rmadi. Osmonga qarab yotaverardim. Uyqu ham kelmasdi. Ba'zan tush ko'raman. Unda o'roq ko'tarib yurgan sochlari paxmoq malla bola kungaboqarlar osib yotgan dala ichiga kirib ketadi. Uning ortidan yuraman. U esa har gal meni adashtirib ketadi. Aylanib yana yakka daraxt oldidan chiqaman. Daraxt oldida kichik molbert ustida o'sha mudhish kartina. Osmon esa qonamoqda... Birdan o'q ovozlari. Askarlar hayqirig'i. O'layotgan askarlar qiyofasi. Bolalarning alamli yig'isi. Moviyko'z askar "Men hammasini ko'rdim, bu sen..." deydi. Nazarimda, u o'lmagan.

XII

Maydonda o'sha kartina ko'rinmay qoldi. Sigareta tutatganicha maydonda aylanib yurdim. Uni kim sotib olgani haqida o'ylardim? Menga o'sha rassom kerak. U tirik. Qayergadir yashirib olgan. Meni, albatta, izlab kelishimni bilgan. Rassomlar o'zi telbanamo bo'ladi. Ularning o'z olami bor. Men rasm chizganimda otam ko'p urishardi. U bolalar bilan ko'cha changitishimni xohlardi. Yuz-ko'zim ko'karib yursa ham, kiyimlarim kir bo'lsa ham, o'ynab yurishimni istardi. U rassomlarni yoqtirmasdi. Ijodkorlarni telba der, ularni hecham xushlamasdi. Balki rassomlikka mehrimni otam sindirgandir? Bir safar oddiy qora qalamda daraxt chizdim. Yonida sigir. Bolakay esa yerni supurmoqda. O'shanda otam rasmga qarab "O'g'il bola ham yer supuradimi?" deya jahl qilgandi. So'ng qog'ozni yirtib tashlagan. Bilmasam, balki otam haq bo'lgandir. Balki qo'limga qalam tutmaganimda tovuqni so'ya olarmidim? Bolalar ustimdan mazax qilishmasmidi? Yo'q, unda paxmoq sochli anavi bolakay kabi vahshiy bo'lib ketardim. Otam meni kim bo'lishimni istardi? U bu haqda hech gapirmagan. Shu xayollar bilan maydondan uzoqlashdim.

XIII

Uzoqdan nimadir ko'rinib turibdi. Daraxt oldida turgan nima bo'lishi mumkin. Tezlik bilan kungaboqarlar orasiga yashirindim. Bu yerda kimdir bor. Qandaydir ichki hissiyot bilan qurolimni yig'a boshladim. Bir zumga xuddi urushdagi kabi sokinlik qa'riga cho'mdim. Durbin orqali atrofni kuzata boshladim. Daraxt oldida molbert. Unda allaqanday kartina turibdi. Daraxtni aylanib o'tdim. Surat xuddi kaftdek ko'rinib turardi. Bu o'sha asar! Kungaboqarlar chizilgan, qonayotgan shafaq aks etgan kartina. Atrofdan hech kim yo'q. Kim bu asarni shu yerga qo'yib ketdi? Boyagi rassommi? Men uni izlayotganimni bilar ekan-da? Shu yerda uchrashmoqchimi? Qiziq, o'zi qani? Rassomlar telbanamo bo'ladi deganlari tog'ri-da. Bo'lmasa, oldimga o'z o'limini so'rab kelarmidi? Biroq daraxt ostida faqat molbertda kartina turibdi. Atrofdan hech zog' yo'q. Asarga yaqinlashdim. Go'yo oyoqlarim titrardi. Ko'zimga yosh quyilib kelardi. Axir unda otamning qoni bor. Qonayotgan shafaq bo'yoq emas. Otamning joni...

Kartinaga yaqin keldim. Unda avval sezma-gan jihatini ko'rdim. Asar chetida yozuv bor ekan. Kichik harflarda "Konstantin. M". Bu

rassomning imzosi. Uning ismi Konstantin. Mana otamning qotili, qo'li qonga botgan rassomning ismi kim ekanligini bilib oldim. Kartina g'alati kayfiyat bor edi. Unga o'sha marshumlar ruhi singib ketgandek. Tebranyotgan kungaboqarlar orasidan soyadek sokin boqib turgandek. Ba'zan asarda odam aks etmagan bo'lsa ham, uning ruhi bo'ladi. Holat kayfiyati seziladi. Shamollar shitiri bilan bo'yniga pichoq tortilgan odamning xirillab nafas olishi eshityotgandek. Asarda urush hidi sezilib turibdi. Qo'rg'oshinning tomoq qirar isi...

XIV

Dala sokin. Qurolimni daraxtga suyab qo'yib cho'ntagimdan sigareta chiqarib tutata boshladim. Shamol tutunni yuzimga urardi. Men uni bu safar ham qo'ldan chiqardim. Telba rassom asarni menga tashlab qochib qoldi. Ustimdan mazax qilgandek ismini ham o'chirmabdi. Odamning ustidan kula boshlashingiz bilan uning g'azabi qaynaydi. Miyamda fikrlar g'ujg'on o'ynamoqda. Afsus, shu onda achchiq qahva yo'q-da. Kallamga birorta ham aniq fikr kelmayapti. Asabim qaqshab, ich-ichimdan g'azabga to'lyapman. Faqat hozirgina o'sha qotil bolakayning holatini his qilyapman. U ham bekorga o'roq bilan ikki tengdoshini boshiga yetmagan. G'azabda bo'lgan. Ustimdan mazax qilishgandir. Balki u ham mendek tovuq so'ya olmagandir? Rassom-chi? Shuncha yil qayerlarda yashirinib yurdi? Meni bu yerga kelishimni u qanday bildi? Kimlardir meni kuzatganmikin? Har xil fikrlar ustma-ust kela boshladi. Jin ursin bu telba rassomlarni! Shu payt bo'ynimga nimadir sanchildi. Ko'z oldim qorong'ilashdi. Ortga burilib qurolimga talpindim. Ammo qadam tashlashga ham ulgurmadim. Yerga quladim.

XV

Ko'zimni ochganimda qo'lim kishanlangan, nim qorong'i xonada o'tirardim. Boshim qattiq og'rirdi. Nima bo'lganini anglay olmasdim. Oldimga qalin jild tashlashdi. Jildda yuz betdan ortiq qog'ozda allanimalar yozilgandi. Uni ochib, sekin ko'z yugurtirdim.

"53-ish.

To'liq ism-sharifi: Konstantin Mixaylov Dmitriyevich

Tug'ilgan yili: 1926-yil 7-oktyabr

Tug'ilgan joyi: Sovet Sotsialistik Ittifoqi Respublikasi. Stalingrad shahri.

Birinchi tashxis: 1941-yil. Qotillik. Kuchli ruhiy zo'riqish. Stalingrad "K.Marks nomidagi markaziy klinika"

Tashxis: shizofreniya

Uslubi: o'tkir buyumlar bilan chala so'yish, vintovka yordamida o'qqa tutish.

O'ziga xosligi: o'zini uch va undan ortiq kishi deb hisoblaydi. Aksar holatlarda davlatning maxsus xizmatchisi deya o'ylaydi.

1941-yil Konstantin Mixaylov Dmitriyevich o'n uch yoshida kuchli ruhiy zo'riqish oqibatida ikki tengdoshini o'roq bilan o'ldirgan. Germaniya Sovet Ittifoqiga hujum qilgach, shoshilinch ravishda oddiy poliklinikaga o'tqazilgan. 1942-yilgi Stalingrad qamalida u maxsus qarorga muvofiq oddiy askar sifatida Sovet askarlari safiga kiritilgan. Stalingrad janrlarida merganlar safiga xizmat qilgan. Polsha, Fransiya o'rmonlarida partizanlar safiga mergan bo'lgan. Yuzga yaqin askar va yuqori lavozimli harbiylarni yo'q qilgan. Parij yaqinidagi kenglikda otasi va vzvod komandirini so'yib tashlagan. Shundan so'ng 1944-yili harbiy tribunal tomonidan hibsga olingan. O'sha yili qishda kasalxonadan qochib ketgan. 1967-yilga qadar turli jinoiy to'dalar safiga mergan sifatida faoliyat yuritgan. Yuz va undan ortiq kishining o'limida gumon qilinadi.

Konstantin Mixaylov Dmitriyevich bir necha yillar davomida qotillik bilan shug'ullangan. U qidiruvdagi xavfli jinoyatchi bo'lib...

Bu satrlarning so'ngi yo'qday edi. Ko'zim tinib ketdi. Oxirgi varoqda esa **1969-yil. Parij.** deb yozilgandi. Nima, bu yangi topshiriqmi? Odatda, ishlar bunday buyurilmasdi? Surat va manzili. Bugun esa umuman boshqacha yondashishmoqda. Nega men hibsdaman? Nahot, shunchalar jiddiy topshiriq bo'lsa? Shu onda shakarsiz qahva ichib, burqsitib sigareta tutatgim keldi. Miyamda bir savol aylanardi. Tanish ism... Konstantin deganlari kim edi? Jildning so'nggi beti: surat. Mening suratim... Yalt etib to'g'ringa qaradim. Ro'paramda boyagi askar. U moviy ko'zlari bilan hamon menga tikilardi. Go'yo mening ichimga kirishga urinayotgandek. Men uni qachonlardir ko'rgandim. Nahot, bu o'sha? Jin ursin! Ha, u o'sha joni halqumiga kelib qolgan, jon talvasasida yotgan askar... U moviy ko'zlari bilan menga qarab, go'yo "Men hammasini ko'rganman, bu sen.." deyayotgandek edi.



Dilmurod QURONOV,
filologiya fanlari
doktori, professor

“O‘TGAN KUNLAR” DA XON VA XONLIK HAQIDA

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”ida qalamga olingan davrni “tariximizning eng qora, kirlik kunlari” deya ta’riflagani ma’lum-u mashhur. Hukmga shoshgan odam romanda tasvirlangan “keyingi xon zamonlari”ning bunday ta’riflanishida adibning “zamonasozlik” qilgani yoxud “sho‘ro mafkurasi ta’sirini” ko‘rsa, ehtimol. Holbuki, bunda na zamonasozlik, na sho‘ro mafkurasi ta’siri bor – Abdulla Qodiriy mansub taraqqiyparvar ziyolilar avlodi mazkur zamonga shunday munosabatda bo‘lgan. Jumladan, Cho‘lponning “So‘ng davrda yo‘qsil Sharqning tarixi bir bet bo‘lsin, oq satrni ko‘rmadi” degani, “El va yurtni saqlar uchun so‘ng xonlar tuzukkina chora, tadbir qilma-gan”idan yozg‘irgani ham Abdulla Qodiriy ta’rifini quvvatlab tushadi. Yana bir muhim jihati, adibning o‘zi tasvirlashga chog‘langan davr hayotiga oid turfa materiallarni qunt bilan o‘rganganini ham nazardan qochirmaslik kerak. Sirasi, Abdulla Qodiriy “keyin-

gi xon zamonlari”ga oid materiallarni butun ijodiy faoliyati davomida to‘plab-o‘rgandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi: yigit yoshida “O‘tgan kunlar” munosabati bilan, so‘ng “Mehrobdan chayon” tufayli, nihoyat, ro‘yobga chiqmay qolgan “Amir Umarxon kanizi” romaniga tayyorgarlik davomida. Aytmoqchimizki, uning yuqoridagicha munosabatida zamonasozlik yo ko‘pchilik fikriga ergashishdan ko‘ra anglanganlik jihati ustuvordir.

“O‘tgan kunlar”da Otabek tilidan “idora usuli”ning eskirgani haqida aytiladi, xonlikning nosozligi beklar va amaldorlarning nopokligi-yu manfaatparastligida, deya talqin qilinadi. Roman voqealarida Xudoyorxon ishtiroki haminqadar: “birinchi xonlik davri”da uning Musulmonqul qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lgani ta’kidlanadi, tarixiy haqiqatga sodiq qolinadi. Buni adib o‘quvchiga xonni ilk bor taqdim etgani-dayoq – holat tasvirining o‘zida ta’kidlab ko‘rsatadi. Holat esa shundayki, “marmardan yasalg‘an taxt ustida... o‘n sakkiz yoshlar chamaliq ... xon o‘lturar”, sal naridagi kursida esa “Musulmonqul o‘lturar va hozirg‘ina hudaychi tarafidan o‘ziga topshirilg‘an ariza va maktublardan ochib o‘qur edi”. Ya’ni shohona liboslarga burkangan Xudoyorxon taxtda shunchaki savlat bo‘lib o‘tiradi-da, davlat ishlari bilan Musulmonqul shug‘ullanadi. Ariza va maktublar “padari arusi shahanshoh”ga murojaat bilan boshlanishi ham shuni tasdiqlaydi. Yana bir detal – Musulmonqulning “o‘qub turg‘an ariza”ni ahamiyatsiz deb hisoblagani uchun xonga aytib-netmasdanoq “qog‘ozni ikkiga yirtib oyog‘i ostig‘a tashlashi” yosh xonga biyligi qay darajadiligini namoyon etadi. Xudoyorxonning qayin otasi O‘tabboy qushbegining “xiyonati” haqida aytgan



gapiga munosabati ham shunga muvofiq: “O‘z saltanatiga raxna solishdan iborat bo‘lg‘an bu xabarlar-dan Xudoyorxonning muta-assir bo‘lg‘anlig‘i belgusiz, ul bu gapni eshitmasdan ilgari qanday bo‘lsa, hozirda ham shu holda o‘zgarishsiz edi. Musulmonqulning yonib turg‘an, o‘tdek tu-toqib so‘zlag‘an gapini sukut bilan kechirmaslik uchungina bo‘lsa kerak quruq va shirasiz qilib:

– Hammadan ham O‘taboyni aytingiz, ablah bir odam ekan, – dedi, – meni siylamag‘an-da ham sizni rioya qilsa kerak edi”. Albatta, ko‘p o‘tmay Musulmonqulning hokimiyatdan chetlashtirili-shi xonning bu tarz befarq o‘tirishida “arqonni uzun tashlash” hiylasi bor edi deyishga ham izn beradi. Biroq, mabodo shunday bo‘lganida ham, qayin otasida shubha uyg‘on-masin uchun u o‘zini har doimgidek – “qo‘g‘irchoq” maqomida tutishi kerak bo‘lar edi. Otabek xon huzurida mahkamaga tortilganida ham tashab-bus butkul Musulmonqul qo‘lida bo‘ladi, Xudoyor esa “taxt ustiga qo‘ndi-rilg‘an jonlik haykal” maqomida. Bu haykalga faqat mahkama nihoyasida – Musulmonqul endigina o‘zining jon dushma-ni bilib turgan mah-kumiga “oqsoqlanib, o‘z qo‘li bilan zarrin to‘n kiy-guzar ekan” jon kiradi: “Xudoyorxon ham yirtqich qayin otasining chan-galidan qutilg‘anini tab-rik qilg‘andek Otabekka kulib boqdi”.


Yuzaki qaraganda A.Qodi-riy xonlikdagi zulm va yovuz-liklar manshaini Musulmonqul bilangina bog‘lab talqin qilayotgandek ko‘rinsa-da, aslida, adib masalaga ancha teran nazar soladi. To‘g‘ri, adib “Musulmonqulning aholi ustiga bo‘lg‘an jabr-u zulmi haddan tashqari ket-gani”ni aytadi, shu bilan uning zulmi ortidan manfaat ko‘ruv-chilar borligini ham nazardan qochirmaydi. Masalan, Musul-monqul “arzimagan sabablar bilan qora chopon beklarni os-dirib, kesdirib” turishini aytish bilan birga “atrof shahar va qishloq beklari ham qipchoq-lardan” ekanini ta‘kidlab o‘tadi. Ya‘ni Musulmonqulning zulmi yakka shaxs emas, bu-

Mohiyatga boqqan o‘quv-chi Xudoyorxon taxt uchun ku-rashda qo‘lla-gan taktika bi-lan zamonaviy saylovoldi kampaniyalari yoxud hokimi-yat bilan ziyoli qatlam muno-sabatlari orasi-dagi ko‘plab mushtarak nuqtalarni ko‘ra oladi.

tun bir urug‘ – qipchoqlar manfaatiga xizmat qiladi. Uning “o‘z kayficha oyda emas, haftada solib turg‘an soliqlari” ham o‘sha qora cho-pon beklar o‘rnini egallagan Musulmonqul “odamlari” cho‘ntagini qappaytiradi. Qisqasi, tanish manzara: hokimiyat uchun hamisha to‘dalar – urug‘lar, firqalar, sinflar, klanlar kurashadi va qaysisining toleyi kulib, hokimi-yat jilovini qo‘lga olsayoq, ariqni o‘zi tomon buradi... Eng qizig‘i, har qanday mustabid kabi zolim Musulmonqul ham “ulamo orqa-liq o‘z zulmini mashru’ bir tuska qo‘yg‘an, o‘zi uchun zararlik unsurlarni yo‘qotishda shu ulamolardan “ululamirga bog‘iyliq” degan fat-voni olishni unutmag‘an edi”. Xullasi kalom, ziyrak o‘quvchi keyingi tarixni mushohada qilib ko‘rsayoq, shubhasiz, barcha davrlar siyosatida talay o‘xshashliklar topadi. Tabiiyki, shunda u yo adibni bir bashoratgo‘y, xalq ta‘biricha, “yetishib qolgan” odam ekan deb tanishi va unga tasannolar aytishi, yoki, agar falsafaga oshnoroq bo‘lsa, siyosat deganining shakli o‘zgaraverar ekan-u, mohiyati qiyomat-gacha o‘zgarishsiz qolaverar ekan-da, degan to‘xtamga kelishi muqarrar. Faqat, noumid shayton deydilar, odam bolasi hamisha tole kulishini kutib navbatda turganlarga umidvor qarayveradi – xuddi ish boshiga shu kelsayoq, olam guliston bo‘ladiganday. Xudoyorxonning mahkama chog‘idagi hola-tini eslang: allaqanday sirli, qayin otasining qilmishlarini yoqlamayotgandek, biroq u ham chorasiz-da... Qipchoq to‘dasi yeb, o‘zi quruq qolayotganidan zada bo‘lgan to‘da, tabiiy, yosh xonda o‘zining qismatdoshini va najotini ko‘radi, uning qabatiga kiradi – hammasi yana boshidan boshlanadi. Ya‘ni qoniqma-gan manfaatlar birlashdi-da, qipchoq to‘dasi manfaatlar bilan to‘qnashdi, shugina xolos. Darvoqe, “Musulmonqulg‘a yaqinlasha ol-mag‘an, ya‘ni uning xizmat va marhamatidan chetda qolg‘an “nimcha” ulamolar ham yo‘q emas edilar”ki, xon ularni “qayin otasi bilan kurashda o‘ziga birinchi istinodgoh qilib” oldi. Istiqboldagi “in‘om va ehsonlar, beriladigan mansablar” ilinji kuchli emasmi, Musulmon-qulga tarafdor ulamolar uning siyosatini “shari‘atqa qancha mutobiq ko‘rsatib kelgan bo‘lsalar”, keyingi toifa “o‘shancha xilo-fi shar‘iy ekanligining isbotiga kirishdilar”. Adib bunda ham umumiy bir qonuniyat ko‘ra-di: podshoh faqat qilichigagina tayana olmay-di, hukmronligi bardavom bo‘lishi uchun rai-

yat ongida o'zining ustida aynan shu odam hukm yur-gizishga haqli va munosib, u yuritayotgan siyosat adl-u insofga tayanadi va umummanfaatlariga mos degan fikr o'rinlashmog'i kerak. Mohiyatga boqqan o'quvchi Xudoyorxon taxt uchun kurashda qo'llagan taktika bilan zamonaviy saylovoldi kampaniyalari yoxud hokimiyat bilan ziyoli qatlam munosabatlari orasi-dagi ko'plab mushtarak nuqtalarni ko'ra oladi.

Qipchoq qirg'ini ham mohiyatan manfaatlar to'qnashuvining oqibatidan boshqa emas. Shu ma'noda Otabekning otasiga bergan "Yirtqichlarning bu qirg'indan qanday muddaolari hosil bo'larkin?" degan savoli yarim ritorik tabiatga ega. Negaki, uning zamirida "bu ish hech bir foydasiz-ku, bekor qon to'kilgani qoladi, xolos!" qabilidagi ishonch-e'tiroz yotadi. Aksincha, "ko'b umrini shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilgan" Yusufbek hoji qirg'inning asl manshaini yaxshi biladi: "bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o'rnig'a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmonqulg'a bo'lg'an adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi". Albatta, Yusufbek hojidek odamning gapiga katta qimmat beriladi, biroq buni aynan, ya'ni xon Musulmonquldan alamini olmoq uchungina qipchoqqa qatliom buyurdi, deb tushunish xato bo'lur edi. Zero, qirg'in zamirida uning ham jiddiy manfaati



bor. Xudoyorxonning Toshkent beklariga yuborilgan yorlig'i "Biz Turkiston mamlakatining xoni o'z qalamravimiz va saltanatimiz uchun qipchoq toifasini muzir deb bildik" deb boshlangani ham shunga dalolat qiladi. Xo'sh, qipchoq toifasi nimasi bilan Xudoyorxon saltanatiga "muzir" – zararli edi? Gap shundaki, muallif avvalroq aytganidek, Musulmonqul davrida "atrof shahar va qishloq beklari ham qipchoqlardan" bo'lib ulgurgan, ya'ni hokimiyatni "uning odamlari" egallagan edi. Xudoyorxon nazdida bu odamlar valine'matlari Musulmonqulga ich-ichlarida sadoqat saqlaydilar, hukmdorga esa faqat o'ziga sadoqatli – yonida o'zi ko'targan, o'zi qo'ygan odamlar, zamonaviy til bilan aytsak, "o'z komandasi" bo'lgani ma'qul. Shu jihatdan qipchoq qirg'ini – ehtimoldagi g'animlarining barini birakayiga oradan ko'tarish imkoni

Xudoyorxon uchun ham ayni muddao edi. Buni Niyoz qushbегining shu mudhish ish rejalashtirilgan majlisda aytgan mana bu gapi ham tasdiqlaydi: "Men xonni Toshkandan jo'natish oldida uning xoli vaqtini topib, bu fikrimni bir daraja arz qilib o'tkan edim, bu fikrim xonga juda ma'qul tushkan bo'lsa kerak, so'zimni e'tibor bilan tinglab turdi va javobida: "Yaxshi. O'ylashib, tadbirlari bilan menga fikringizni yozing, men ham o'ylab ko'rarman", dedi. Menga qolsa bu to'g'rida bizdan xabar kutib xonning uyqusi ham kelmay yotqandir: bizga faqat ishning o'naqayini topib xondan tasdiq etdirishgina qolgan". Qushbegi tilidan jonlantirilayotgan holat shundayki, Xudoyorxon yosh bo'lsa-da ichidagini sirtiga chiqarmaslikka harakat qilgan, shunga qaramay suhbatdoshi "xon ko'ngan hisob" degan aniq ishonchda qolgan. Sababi ko'pni ko'rgan Niyoz qushbegi xon sirtiga chiqarmagan istakni teran his qiladi, chunki hokimiyat tabiatini, uni o'z qo'lida saqlash va kuchaytirish shartlarini juda yaxshi biladi. Xudoyorxon yosh bo'lgani bilan xon saroyidagi oshkor-u pinxon kurashlar qozonida obdon qaynagan, shu bois qushbегining taklifiga munosabatini oshkor etmasdan, yana arqonni uzun tashlaydi-da, quyidan tashabbus qilinishini kutadi. Ertami-kech bunday tashabbusning ko'tarilishiga esa imoni komil, chunki vaziyatga to'g'ri baho bera oladi, Musulmonqul davrida "katta oxur"dan uzoqlab qolganlarning endi unga yaqinlashish payida bo'lishlari

muqarrar ekaniga ishonadi. Zero, ularning ko'pchiligi Niyoz qushbegi kabi "hali biz sahroyi qipchoq elidan uzil-kesil qutilg'animiz yo'q... Musulmonqul bo'lmasa, boshqa Alimqulning bosh ko'tarishi aniq" deb o'ylashlarini yaxshi biladi. Haqiqatan ham, qushbegi qora chopon og'aynilar haqida qayg'urayotgandek esa-da, aslida, bu gaplari zamirida manfaati shaxsiya yotadi. Niyoz qushbegi Musulmonqulni ag'darish ishiga faol bosh qo'shgan-u, to'ntarish natijalari ko'nglidagidek bo'lmagan: "Normuhammadning ra'yini deb, hamma ixtiyor o'z qo'limizda bo'lgani holda, O'tabboyni mingboshi belgulab yuborduq... Bu ham o'zimizning eng katta xatolarimizdin. Men o'sha kundan beri o'z-o'zimdanda bo'g'ilib yuriyman: Musulmonqulning iti bo'lmasa, o'zimizdan mingboshi bo'larliq odam qurib qoluvdimi, deyman. Yo'q, og'alar, temirni qizig'ida suqib qolish kerak!" Ko'ramizki, qushbegini mingboshi masnadiga minolmagani o'rtaydi, hali ham bo'lsa "qipchoqlar zulmi"ga qarshi kurashni bayroq qilib maqsadiga erishmoqchi. Aytmoqchimizki, ongi hokimiyat uchun, amal-mansab uchun ayovsiz kurashlar kechuvchi saroy muhitida shakllangan Xudoyorxon voqealar ayni shu tarz kechishini bilgan, shu sababli ham Niyoz qushbegi taklifiga munosabat bildirishga shoshmagan. Fursat yetib, o'sha taklifni bemaol amalga oshirish imkoni tug'ilganida Niyoz qushbegidan foydalangan. Tabiiyki, bu o'ringa Niyoz qushbegi deganimiz umumlashma ma'no kasb etib, "niyozqushbegilar" ma'nosini anglatadi.

“Musulmonqul balosidan uni najotka chiqarg'uchilarning bittasi” bo'lgani holda, ululamirning u bilan kengashishni unutganiga o'kinadi.

Yusufbek hoji ham to'ntarish natijalaridan qoniqmagan, "ulul-amir bo'lg'an kishi" Niyoz qushbegi kabi "manfaat-parastlarning xarob fikrlariga quloq berib" yurganiga afsuslanadi; o'zining ham "Musulmonqul balosidan uni najotka chiqarg'uchilarning bittasi" bo'lgani holda, ululamirning u bilan kengashishni unutganiga o'kinadi. Yusufbek hojining o'kinishiga qaraganda, u xonga kengash beruvchilar insof-u diyonatli kishilar bo'lsayoq, olam guliston bo'lishiga ishonadigan. Ya'ni sodir etilgan xunrezlikda u niyozqushbegilar ni ayblaydi, aslo xonning o'zini emas (darvoqe, xonning o'zini yuqoridagicha tutishi yusufbekhojilar uchun). Albatta, uzoq yillik xizmatlari davomida ko'ngliga ishtiboh ingan damlar ham bo'lgandir, biroq hojining o'z nazdida ululamirni ezgulik tomonida ko'rgani va shu ezgulikka xizmat qilgani ham shubhasiz. Romandagi Yusufbek hoji liniyasining kulminatsion nuqtasi – mehmonxonadagi suhbat asnosida mehmonlariga xizmatlari qadrlanmaganidan shikoyatlanarkan, "Yunus Muhammad oxund uning so'zini bo'ldi:

– Ey hoji, – dedi, – hamma fasod ululamir, agar ululamir durust odam bo'lsa, uch-to'rtta muttahaarning yomonlig'i hech qayerga bormas va buncha gunohsiz bechoraning qoni o'rinsiz to'kilmas edi". Oxundning "ey hoji" deya ta'kidlab, xonadon sohibining gapini bo'lib, "hamma fasod ululamir" deyishi qat'iy hukm kabi yangraydi. Albatta, bu qadar qat'iyat bejiz emas, oxund aytmishiga hujjat – hadis keltiradiki, ma'nosi "agar bir qavmning ishi noahl odamga topshirilg'an bo'lsa, o'shal qavmning qiyomatini yaqin bil". Javoban Yusufbek hojining sidqidildan "Saddaqa yo rasululloh" degan xitobiyu beixtiyor hadisni takrorlashi, buning ortidanoq "voy bo'lsin biz badbaxtlarning holiga" deyishida ululamir haqidagi fikri tugallik kasb etganiga dalolat bordek ko'rinadi bizga. Jumladan, hojining "shu kungacha bo'lmag'anlarga bo'lishmoqchi bo'lib umrimning nihoyatiga yetib qoldim" degan e'tirofidagi "bo'lmag'anlar" o'z ichiga "ululamir"ni ham olishiga hech bir shubha qolmaydi.

Xulosa qilsak, "O'tgan kunlar" romandagi Xudoyorxon obrazi, asar syujetidagi ijtimoiy-tarixiy chiziq voqealari A.Qodiriyning hukmdor, hokimiyat haqidagi badiiy konsepsiyasini ifoda etadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, birinchidan, turli davrlardagi hokimiyat tizimining mavjudligi va amal qilishida umumiy qonuniyatlar kuzatiladi; ikkinchidan, shaxsiy, guruhiy hamda umummanfaatlari nisbati va o'zaro munosabatlarining to'g'ri belgilanishi tizimning barqarorligini ta'minlaydi; uchinchi, "adolatli xon" (podshoh) haqidagi orzu ham, "xon hazratlari jamiyat hayotdagi nohaqlik-u adolatsizliklardan bexabar, uni atrofidagi maslahatchilar chalg'itadi"qabilidagi qarashlar ham cho'pchakdan boshqa emasdir.



Orif TO'XTASH

Men qadrimni topganman, O'zbeklar o'lkasida...

Sichqonning bolasiga nasihati

– Men seni boqolmayman,
O'zing yasha kemirib.
Lek nafsingni ozroq tiy,
Ketma uncha semirib.

Oqibat qorning shishib,
Sig'may qolsang teshikka.
Yem bo'lasan, qolasan,
Uying kuygur mushukka!

K e t m o n

– Men qadrimni topganman,
O'zbeklar o'lkasida.
Chunki olib yurishar
Hamisha yelkasida.

Mehr-la yer chopaman,
Tushsam qadoq qo'llarga.
Dehqon zahmati ila
Hayot kirar cho'llarga.

Ammo bir kam dunyoda
Yurak nedir tusaydi:
Qabarmagan qo'llar ham
Meni bir bor tutsaydi!

Itning bolasiga nasihati

– Bolajonim, kundan-kun
Erka bo'lib boryapsan.
Senga tushunmay qoldim,
Kimdan o'rnak olyapsan?

Bu odatni tashlagin,
Sen shu bugundan buyon.
It bo'lsang xonadonga –
Keltirma aslo ziyon.

Yoki or qilyapsanmi
Uyni qo'rib turishga?
Odamlar it saqlamas,
Faqat hurib turishga.

Shuning uchun Qoravoy,
Erkalikni yig'ishtir.
Bilsang, uy qorovullik –
Bizga oid yumushdir.

Xizmating evaziga,
Halol yesang oshingni.
Biqiningga tepmasdan,
Silab qo'yar boshingni!

Deraza

– Endi aytmasam bo'lmas,
Oshib ketdi hasratim.
Hanuzgacha shu so'zni
Hiqildoqda asradim.

Oshnaginam deyinmi,
Yoki deymi birodar?!
Siz ko'chada tepgan to'p –
Yuragim zirqiratar.

Bitta iltimosim bor,
Nasihat, deb o'ylamang.
Muddaoyim shu faqat
Yo'lda koptok o'ynamang!

Unasangiz bo'ldi, bas,
Boshqa hech so'z demasman.
Kechirasiz... men raqib –
Darvozasi emasman!

Mixning bolg'aga yozgani

– Men seni do'st deb yursam,
Nomard ekansan bolg'a!
Boshimdan uraverib,
Keltirding qanday holga?

Umidlarim ko'p edi,
Barini to'kib ketding.
Mador bo'lish o'rniga,
Belimni bukib ketding.

O'ylab ko'rsam, vazifang
Birgina "to'q-to'q" ekan.
Do'stman, deganing bilan
Oqibating yo'q ekan.

Endi mening hayotim
Barbod bo'lgani tayin.
Shu holdan kelib chiqib,
Senga bir so'z aytayin.

Nasihatmas, bu – niyat:
Doim ishi olg'a bo'l!
Har zarbda ham do'st boshin
O'pib qaytgan bolg'a bo'l.

Xo'rozning chuvalchangga yozgani

– Mening arzimni eshit,
Go'ng titishga yo'q mazam.
Yer chopilgan kezlarda
Chiqib qolasan ba'zan.


Boshqa vaqtlar chiqmaysan
Sira yerning yuziga.
Loy kechamiz kunma-kun,
Rahming kelsin-da bizga.

Jojalar nima yeydi,
Ko'klam ham keldi sovuq?!
– Ota bo'lsang oziq top! –
Deb janjal qilar tovuq.


Men nima ham qilayin,
Hech ish kelmas qo'limdan.
Muhimi, asrash kerak
Jojalarni o'limdan!

Egam bo'lmish faqirning
Tugaganmish doni ham.
O'zi kasalxonada,
Emishmi-yey "qoni kam"?..

Xullas, shunaqa gaplar,
Kayfiyatim yo'q biroz.
Seni sog'inib, xatni
Yerga ko'mguvchi – xo'roz.



ShUNChAKI YOZISHGA



Javlon JOVLIYEV

Bolalikda bir kun kelib kitob chiqarishni o'ylamaganman. Bu qandaydir boshqacha, sirli va og'ir "ish" bo'lib tuyilardi. Shu sabab orzu ham qil-maganman. Yozar va faqat uni o'zim o'qirdim. Shu paytgacha boshqa birov

ilk "toy-toy"larim bilan tanish emas. Yozishning o'zi katta baxt, kuch va kayfiyat berardi. Sirli daftarni birov topib olmasin, deb qalin jun gilam, kigizlar tagiga bekitar, so'ng o'zim ham topolmay yurardim. Ko'proq xatimning xunukligimas, ishoralarimning birovga ma'lum bo'lib qolishi meni cho'chitardi. Bu qo'rquv sevgani yo'lini yillab poylab, unga duch kelganda tosh qotib qoluvchi o'smir harakati kabi tushuniksiz, qolibsiz tuyg'u edi. Shuning uchun bo'yalgan qog'ozlarimni hatto yaqinlarim ham ko'rmagan...

Mana, bir paytlar "sirli va katta ish" deb bilganim – kitobim chiqdi. Iste'dodli do'stlarim qatorida meniki ham bor... Hozircha hech qanday katta o'zgarishni tuyganimcha yo'q, ammo bir narsa bor – Erishish tuyg'usi! Insonga xos kechinma ... Erish... sen yaqinlaringni olib ketayotgan kema qirg'oqqa yetib borishiga, sahroning vodiyya ulanishi, hijronning intihosi visolga tutashishiga umid va ishonch bog'lash kabi munis va oniy lahzalarda hayoting uchun juda zarur bo'lgan tuyg'udir... Shu tuyg'u otamsiz huvillab qolgan uyning kitob sandig'ini-da boyitdi. Muhimi, bu sandiq enam uchun hech kimga ishonmaydigan sehrli qutiga aylangani.



Zulxumor ORIFJONOVA

Kutganlarimiz hamisha qadrli bo'ladi. "Birinchi kitobim"ning qadri ham har bir yosh ijodkor uchun o'zgacha... Chindan ilk mashqlar to'plamingni kimningdir qo'lida ko'rsang, sevinasan.

Ayniqsa, bu e'tibor Yozuvchilar uyushmasi tomonidan, ustozlar tavsiyasi bilan berilgan bo'lsa.

Ijodkor uchun kuz har doim baxtiyorliklar olib kelgan, chunki ijodning eng qaynoq pallasi shu faslda. Bu yil esa qo'limizga ilk kitoblarimizni oldik, o'zimiz uchun qoralaganlarimiz, tuyg'ularimizdan yaralgan yoziqlar kitob holidan nashr etildi. Zominda har yili yangi buloqlar ko'z ochishi bejizmas. Bugun ilk to'plamlari chop etilganlar, o'sha ko'z ochgan buloqlar orasida ekanligimiz quvontiradi bizni.

Har bir davrda adabiyotga yangi ruh bilan kirib keladigan yangi avlod kutilgan. Ijodni anglaydigan, chin so'zning mas'uliyati bor bu yerda. "Birinchi kitob" bizni ana shu yo'lga kuzatib qo'ydi. Endi shunchaki yozishga bizning haqqimiz yo'qligini yaxshiroq his qilamiz.

Balki hozir yozganlarimiz ijod olamining kaftini to'ldirmas, ammo ortimizda ishonch borligidan, bizni suyaydigan adabiyot borligidan qo'limizdagi qalamni qattiqroq tutgimiz keladi.

HAQQIMIZ YO‘Q



Bashorat OTAJONOVA

"Birinci kitobim" loyihasi nizomiga ko‘ra, dastlab mualliflarning yoshi 30 gacha deb belgilangandi. Biroq bu yildan e‘tiboran 35 yoshgacha o‘zgartirildi. Bu biz kabi 30dan

o‘tgan ijodkorlarga yaxshi imkoniyat bo‘ldi. Ayrim tengdoshlarim, hali mashqlarim "pishmagan" deb, ba‘zilar harakat qilmay kitoblari chiqmay qolib ketadi. To‘g‘risi, men she‘rlarni jamlab, kitob qilishga hafsala qilmagan edim. Hafsala qilganimda esa mablag‘ sarflagim kelmadi. "Birinci kitobim" loyihasiga topshiray desam, yosh masalasi oldimda ko‘ndalang edi. Xullas, rizqimiz qo‘shilgan ekan, kitob bu yil dunyo yuzini ko‘rdi.

Kitob chiqqach undagi ayrim she‘rlarni o‘qib, bunday qilib to‘g‘rilasam bo‘lar ekan, degan o‘y kechyapti xayolimdan. Kelasi kitob tayyorlanayotganida bu borada puxtaroq bo‘laman. "Birinci kitob" bahonasida barchamizda tajriba ham to‘plandi.



Shavkat DO‘STMUHAMMAD

Kitobdan miriqib ssenariy o‘qiyotgan odamni kam ko‘rganman. (Pyesa bundan mustasno) Ssenariyni adabiyot emas, loyiha ham deyishadi. Ammo chin dildan umid qilamanki, texnologiyadan bezor

bo‘lgan avlod yoppasiga kitobga "tashlangan" mahalda bugungi kun kinosiga, multfilmiga xizmat qilgan ssenariylar, teatrlarda talash bo‘lgan pesalar loyiha deb qaralib kitob holida kam chop etilganiga afsus qilinadi. Nima bo‘lganda ham, "Birinci kitobim" turkumida nashr etilgan dramatik asarlar bu yo‘lda qilingan eng katta ishlardan biri bo‘lib qolishiga ishonaman.

Qolaversa, teatr san‘atida faol tomoshabin degan tushuncha bor. Uning oddiy tomoshabinidan farqi – pyesa bilan avvaldan tanish bo‘ladi u. Demak, bu kitoblar eng kamida faol tomoshabinini shakllantiradi. Saviyasiz asarlarni siqib chiqarishga faol tomoshabinninggina qurbi yetadi.

Demak, bu borada ham xayrli ishga bosh qo‘shilganini anglash mumkin.

Albatta, tashkilotchilar va o‘z hissasini aymagan ustozlarga minnatdorlik bildiraman.

Epik teatr asoschisi Bertold Brext "Ko‘z tashlash ko‘rish degani emas", degan edi. O‘quvchilarni bu kitoblarga qaysidir ma‘noda "ko‘z tashlashga", teatrga esa chin ma‘noda "ko‘rishga" taklif qilamiz...





Sherzod ORTIQOV

1985-yili tug'ilgan.
Farg'ona Politehnika institutini
tamomlagan.

To'rtinchi qavatdagi xonadon

(Hikoya)

Bugun operatsiyam yo'qligi uchun kechki ko'rikni o'tkazganimdan so'ng ishlarni navbatchi hamkasbimga topshirib ko'chaga chiqdim. Yomg'ir yog'ayotganini ko'rib, "esiz, kechagina o'rik gullagandi-ya", degan xayolga bordim. Yomg'irning maydalab yog'ishi kaminaning g'ashini keltirardi. Yuzingni qay tomonga burma, mayin tomchilar urilib, dilda tushunib bo'lmas bir sokinlik uyg'otardi. Taksiga minganimda orqa eshik oynasining ochiqligini

ko'rib darrov ko'tarib qo'ydim. Sovuqdan junjilib, qo'llarimni cho'ntagimga tiqdim. Shunda cho'ntagimdagi qog'ozga qo'lim tegdi-yu, yana hammasi esimga tushdi. Uni asabiy tarzda ezg'ilay boshladim. Yo'l bo'yi shu bilan mashg'ul bo'ldim. Manzilga yetganimda allaqachon qog'oz kaftim orasida maydalanib yotardi.

Uyim besh qavatli binoning to'rtinchi qavatida. Lift tomon yurgim kelmadi. Zinadan ko'tarildim. Birinchi, ikkinchi, uchinchi va nihoyat, to'rtinchi qavatga ham yetdim. Ichkariga kirarkanman pianinoning bo'g'i q ovozidan Betxovenning tanish sonatasi taralardi. Kuyni eshitib, yo'lakda to'xtab qoldim. Hatto quloqlarimni berkitib olgim keldi. Buning o'rniga esa qo'limdagi bir dunyo qog'ozlarga to'la portfelimni yo'lakning oxiridagi javonning chetiga qo'ydim-da, kuy yangrayotgan xonaga kirdim.

Nargiza dastlab meni payqamadi. U pianinoning oldida o'tirganicha barmoqlarini klavishlar ustida tez-tez qimirlatib kuy ijro etardi. Bugun kechagidan ham, hatto ilgarigi kundan ham asabiy ko'rinardi. Meni ostonada ko'rib, yana ham tez harakat qila boshladi. Sekin yurib, yonidan o'tdim. U esa kuyni chalishda davom etdi. Pianinoning narirog'ida joylashgan ish stolim turgan xonaga kirdim. Kursiga behol cho'kib, chetidagi chiroqni yoqdim. Shu alfozda ancha o'tirdim. Bu orada Betxovenning mashhur sonatasi takror va takror eshitildi. Men bu kuyni yoddan bilganim uchun Nargiza uni besh-olti marta qaytadan chalganini sezdim. U to'xtashni xayoliga ham keltirmasdi. Men bunga e'tibor bermaslikka urinib, stol ustida kecha qolib ketgan qog'ozlarimni chiroqning yorug'ida tartibga keltirish uchun chog'landim. Bular asosan travmatologiyaga oid ilmiy ishim borasidagi ma'lumotlar edi.

– Bas, yetar! – dedi shu payt Nargiza kuyni chalishdan to'xtab baqirganicha.

Pianinoning ovozi yana-da bo'g'ilib, xuddi tomog'i qattiq og'rigan bemordek beo'xshov eshitildi. Biroz o'tib Nargiza klavishlardan qo'lini olib, uning qopqog'ini sharaqlatib yopdi.

– Bunday jim o'tirishni bas qiling, – dedi shundan so'ng men tomonga o'girilib asabiy ohangda. – Bir og'iz bo'lsa ham gapirsangiz-chi. Uch kundan beri shu ahvol.

Qog'ozlardan boshimni ko'tarib unga bir muddat tikilib qoldim. Asabiylashganidan lablari titrardi.



– Gapiring, iltimos sizdan. U qarshimda tik turgancha iltijo qilgandek mendan ko‘zini uzmasdi. Oxiri, hiqillab yig‘lashga tushdi.

– Sizga kecha ham ilgari kuni ham aytdim, – dedi bir qo‘li bilan pianinoga suyanganча boyagidek nigohda. – Mendan ko‘nglingiz to‘lmayotgan bo‘lsa, ro‘y-rost ayting, xohlaganinigizcha ayblang, xohlasangiz, ajrashish uchun ariza bering, faqat Xudo haqi, gapirmasdan odamni ezishni bas qiling. Iltimos, bas qiling.

Men cho‘ntagimdagi qog‘oz bo‘laklarini battar changalladim. Xuddi shu paytda kimdir yuragimni shu qog‘ozdek ezg‘ilashga tushgandek bo‘ldi. Nargiza ko‘p o‘tmay yig‘lab xonadan chiqib ketdi. Eshik ochiq qoldi. Men o‘rnimdan turib uni yopdim-da, qaytib joyimga o‘tirdim. Allaqachon pianinoning bo‘g‘iq ovozi ham, Betxovenning sonatasi ham tingandi. Men negadir ilmiy ishimga diqqatimni qaratishni maqsad qildim-u, lekin buning o‘rniga cho‘ntagimdagi qog‘oz bo‘laklarini olib stol ustiga qo‘ydim. Ularning har biri g‘ijimlanib ketganidan deyarli o‘qib bo‘lmas holatga kelgandi. Shunday

bo‘lsa-da, stol chetida turgan yelim yordamida ularni bir-biriga yopishtirishga harakat qildim va qog‘ozni tiklash uchun ancha ter to‘kdim. Bo‘laklar birlashib yana o‘z shakliga keldi. Natijada men aji-buji holda bo‘lsa-da, bus-butun holga kelgan sahifaga ko‘zlarimni tikib o‘tirdim. Xayolimga beixtiyor uch kun oldingi voqealar ketdi. Hammasini eslashga urinib ko‘rdim. Operatsiya paytida oyog‘imning son qismida boshlangan og‘riq, holsizlanish, terlash, jarrohlik amaliyotini bir amallab o‘tkazib, xonamda bukchayib yotganim va shundan so‘ng hamkasbim urolog Rauf Muxtorovichning ko‘rigida bo‘lganim – hamma-hammasi ko‘z oldimda birma-bir gavdalandi. Bular xuddi dahshatli tragediyaning debochasidek edi go‘yo. Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, keyingi voqealarni ham esladim. Meni tekshirib tahlil natijasini qo‘liga olgach hamkasbim rangi oqarib ketgani, meni qahva ichishga taklif qilgani va u yerda derazaning shundoq yonida gullagan o‘rikka qarab turib tashxis natijasini tutilib-tutilib aytgandi. Undan tekshiruv natijasi aks etgan qog‘ozni

olgach, “bunday bo’lishi mumkin emas” – deb bir qog’ozga, bir unga qaradim. So’ng asabiy kulganxa xonamga kirdim. Kursida o’tirib o’yga cho’mdim. Bularning bekordek edi tasavvurimda. Axir, endi o’ttiz yoshga to’lgandim. Menga tirkalayotgan bu kasallik, odatda, ellik yoshdan o’tgan erkaklarda uch-rardi. Yo’q, men sog’lom edim, hech qanaqasi-ga kasal emasdim, xastalik boshlangani ham, nazarimda, safsatadan boshqa narsa emas, prostata raki bo’lishi mumkin emas! Bunga sira ishonmasdim, lekin tahlil natijalari aks etgan varaqqa qararkanman nafratim jo’shib stolni qattiq-qattiq mushtlardim.

Mana oradan uch kun o’tdi. Sirdan qaraganda, bu kunlar odatdagidek kechdi. O’sha tanish tong otdi, kun yorishdi, ko’cha-ko’ya hayot davom etdi, goh quyosh chiqdi, goh yomg’ir yog’di, kech tushdi... Ammo men shu uch kun ichida ancha o’zgardim. Yaxshi tomonga emas, albatta. Bir lahzada hayot-ga tashna insondan tushkun qiyofadagi, ichimdagini top qabilidagi odamga aylanib qoldim. Qandaydir xavf ta’qib qilayotgandek menda jonsarak va bezovta yurish odati pay-do bo’ldi. Kun bo’yi turli xayollar charx urar, ba’zida xonamda u yoqdan bu yoqqa yurar-kanman o’zimni hammasi joyida ekanligiga ishonitirishga urinar, lekin bu qo’limdan kel-may asabiylashardim. Hatto muloqot ham og’irlik qilardi. Faqat bitta narsani o’ylardim, ya’ni endi buyog’i nima bo’lishini.

Stol ustidagi chiroq ko’zimni og’rita bosh-lagandi, holsiz o’rnimdan turdim. Sekin yu-rib pianinoning oldiga keldim. Uni to’q qizil rangdagi yaltiroq, tekis ustki qismida qo’lla-rimni yurgiza boshladim. Keyin diqqatimni uning yonidagi javon va u yerdagi o’zim va Nargizaning kitoblarini ko’rdim. Ularni birin-ketin qo’limga olib, varaqlay boshdim. Shundan so’ng xonani ko’zdan kechirdim, uyim haqida o’yladim. Pianino, kitob javoni va mana shu uy meni o’tmish sari yetaklab ketdi.

Bir paytlar bu uyni kreditga olganim-da judayam xursand bo’lgandim. Nihoyat, ijarama-ijara yurish balosidan qutulgandim. O’zimning uyim bo’lgandi – orzum ushalgan-di. Hech qancha o’tmay bu tushunarsiz ha-yotda Nargizani uchratdim. U bilan turmush qurdim. Oilaviy hayotim yo’lga qo’yilgach,

asta-sekinlik bilan uyni jihozlash boshlandi. Mana shu pianino va kitob javonini sotib ol-dim. Pianino hech qancha o’tmay Nargizaning sevimli hamrohiga aylandi, buning natijasida kechqurunlari butun uy bo’ylab Betxovenning sonatalari yoki Shopenning prelyudiyalari tinmaydigan bo’lib qoldi. Kitob javonini ham Nargiza badiiy kitoblar bilan to’ldirib tashladi. Mening tibbiyotga oid kitoblarim ozchilikni tashkil qilardi.

O’tmish xotiralari bilan biroz ovungach rovonga chiqdim. Yomg’ir haliyam tinmagan-di. Aksincha, endi kuchli shamol esib, yomg’ir shiddatini kuchaytirgandi. Buni ko’rib rovon-ning qiya ochiq holda qolib g’ichirlay boshlagan eshigini yopib qo’ydim va tashqarida turgan-cha atrofni ko’zdan kechirdim. Ko’chada hayot davom etar, haliyam odamlar ko’p edi. Atrofi-dagi ko’p qavatli uylarda ham chiroqlar yoniq, turmush qaynardi. Shu holatda tevarakni ancha kuzatgach birdan dunyo ko’zimga chiroyli ko’rinib ketdi, yashashdan hali sira to’ymaga-nimni his qildim. Boshqa tomondan esa o’lim haqida o’yladim. Birinchi marta jiddiy o’yladim.

Ha, odamning ishongisi kelmaydi. U tug’ila-di, yashaydi va qanchalik achinarli, dahshatli bo’lmasin, o’ladi. Kimdir tug’ilgan, kimdir ayni yoshlik paytida, boshqasi esa yoshini yashab, keksalik gashtini surib olamdan o’tadi. Hamma uchun bitta qismat – tug’ilish, yashash va o’lish. Bu oddiy formulaga o’xshaydi. Biroq buning zamirida qanchalar chuqur dard, og’ir musibat, insonning ko’nikishi qiyin bo’lgan falsafa yot-ganini ko’pchilik tasavvur qilavermaydi. Inson tug’ilib, ham jismonan, ham ruhan ulg’ayib, o’qib-o’rganib, jamiyatda o’z o’rnini topib, orzular qilib, sevib-sevilib, oila qurib, farzandlar voyaga yetkazib, so’ngra bularning barchasini bir kuni tashlab ketadi. Nima uchun shundayligini hech kim tushunmaydi va aniqki, tushuntirib ham berolmaydi. Bu savolga hatto maktab tizimida qoniqarsiz balga tortadigan javob ham be-rilmaydi, shunchaki, katta-yu kichik yelkalar qisiladi-da, boshlar chayqaladi. Bu esa biz ang-lab yetish va javob berish uchun o’zlik qilamiz, degan ma’noni bildiradi.

O’limni tasavvur qilish qiyin. Ammo men ayni lahzada uni ming chandon yaxshi tasavvur qildim. U tafakkurimda meni hamma narsadan ayiruvchi kuch bo’lib gavdalandi. Ya’ni u bir kun kelib xohlaymanmi, yo’qmi meni bag’rikeng

osmondan, atrofga tinmay yog'ayotgan yomg'irdan, yuzimga urilayotgan shamoldan ayirib, noma'lum tomonlarga olib ketadi.

U tufayli bir kuni mening tinmay urayotgan yuragim to'xtaydi, ko'zlarim yumilib boshqa ochilmaydi, oyoq-qo'llarim tarashadek qotib qoladi, lablarim qimirlamaydi, quloqlarim eshitmaydi, burnim hid bilmay qoladi. U tufayli men bir kun kelib soatni, vaqtni, o'tayotgan lahzalarni, tong otgach yorishadigan kun bilan qosh qoraygach tushadigan tunni, issiq bilan sovuqni, daraxtlar ko'm-ko'k bo'lib gullaydigan bahorni, mevalar g'arq pishadigan yozni, seryomg'ir, tumani ko'zni shamg'alat qiladigan, xazonrezgi kuz va qor yog'ib qablarni poklovchi kumush qishni farqiga borolmay qolaman.

U tufayli bir kun kelib, nufuzli tibbiyot oliygohini tamomlagan, o'z vaqtida yuzlab badiiy va ilmiy asarlarni mutolaa qilgan, aytaylik chang'i uchishni, mashina haydashni, qo'shiq kuylashni, rasm chizishni, radiopriyomnik tuzatishni yoki odamlarni, qornini yorib operatsiya qilishni biladigan insondan faqat bir uyum tuproq qoladi.

Olislarga uchib ketgan o'y-xayollarim hali beri qaytib kelmaydigandek edi. Boshqa tomondan o'lim haqidagi sovuq mulohazalar tanamni ivitib tashlagan yomg'ir tomchilarini savalashiga hamohang bo'lib, meni bir zumda ruhan ezib qo'ydi. Ayni paytda yomg'irli oqshomning past haroratli ob-havosidan emas, aynan o'lim to'grisidagi sovuq mulohazalardan sovuqotib yengilgina dir-dir titrardim. Shu payt rovon eshigining ochilishi meni o'zimga keltirdi. Eribgina u tomonga qaradim va ko'zlarim eshik oldida tungi ko'ylakda turgan Nargizaning ko'zlari bilan to'qnashdi. Shunda birdan u endi hammasini biladi degan taxmin o'tdi xayolimdanda. Biroz o'tib bu taxminim o'z tasdig'ini topdi.

– Menga bu haqda aytishingiz kerak edi – dedi zo'rg'a ovozi chiqib.

Uning qiyofasida norozilikdan ko'ra achinish va hamdardlik hissi aks etib turardi. Men unga qaramaslikka harakat qilib ko'zlarimni olib qochdim.

– Koshki, bu aytadigan gap bo'lsa ekan.

Nargiza gaplarimni eshitib-eshitmay sizni qarang-u, degandek boshini chayqagancha oldimga keldi va yelkamdan mahkam quchib oldi.

– Hammasi yaxshi bo'ladi, – dedi keyin o'zini tetik tutishga urinsa-da, yig'lamsirab. – Biz birga kurashamiz. Hozir tibbiyot rivojlangan. O'zingiz ham yaxshi bilasiz buni. Axir, doktorsiz. Davosi yo'q kasallikning o'zi qolmagan. Uni davolasa bo'ladi, iloji bor. Bizda bo'lmasa, chet elda chorasi bor. Jin ursin, bor, bor, bor!!!

U boshqa gapirmadi. Ortimdan meni quchganicha ancha vaqt indamay turdi. Tanasining iliq harorati shiddatli yomg'ir va sovuq mulohazalar ta'sirida muzlab ulgurgan tanamga ko'chib o'tib, uni iltidi, hamda faqat o'zigagina xos bo'lgan, bir paytlar meni ipsiz bog'lab, maftun qilgan uzun sochlarining yoqimli isi dimog'imga urildi. Shuurim-u borlig'imni oniy fursat egallagan umidsizlik va uning gardanidagi mulohazalar chekindi. Shu tobda yana yashagim kelib ketdi, kuyibyonib yashagim keldi, hayotning barcha g'am-shodliklarini his qilib yashagim keldi, orzu qilib yashagim keldi, mana shu to'rtinchi qavatdagi Betxoven va Shopenning asarlari ijro etilaverib tinmaydigan pianino bilan tibbiyotga oid-u badiiy kitoblarga to'la javonni o'z ichiga olgan qadrdon xonadonimda, meni ehtimol yolg'iz u chin dildan yaxshi ko'radigan ayolim bilan yashagim keldi.

Yomg'ir sabab ravonda ko'p turib bo'lmasdi. Men ko'p turganim bois boya aytganimdek deyarli ivib, suvga bo'kkan mushukdan farqim qolmagandi. Nargiza ham hech bilintirmasa-da, tungi ko'ylakda sovuqota boshlagandi. Uyga kirish ayni lahzalarda ikkimiz uchun ham zarar qilmasdi.

– Ichkariga kiraylik, – dedim shu maqsadda ortimga o'girilib. – Yomg'irda ivib ketdim.

Nargiza xo'p degandek bosh irg'ab qo'ydi va sekin boshini ko'tarib bir mingga, bir ustimdagi namiqqan kostyumimga qaradi.

– Kirib kiyimingizni almashtiring. Men hozir qahva damlayman.



Qush tilida soʻzlar koʻzlarim...

Feruza XAYRULLAYEVA

1993-yili tugʻilgan.

Respublika yosh ijodkorlarining

Zomin seminari ishtirokchisi.

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyush-
masi tomonidan "Birinci kitobim"
ruknida "Qaqnus parvozi" nomli
she'riy to'plami chop etilgan.

* * *

Har kechada kechikmas udum –
uyqusidan uygʻonadi tun.
Ruhim tinmay potirlar hozir,
Yolgʻizlikka yasalmish yakun.

Derazani egallaydi oy,
Devor esa tislana ortga.
Koʻk chayqalar, goʻyoki kimdir
Yelkasiga dunyoni ortgan!

Yel keltirar osmon atrini,
Koʻzim toʻqnash kelar farahga.
Yuragimda aylangan kalom
talaffuzda aylana baxtga...

Va peshonam yozigʻi bilan
Imzolayman – yer yuzi guvoh!
Lablarimdan sirgʻalib ketar
Koʻzlarimga koʻmilgan gunoh!

* * *

Har kun...
Chiqillaydi soat boricha,
Yasolmaydi oʻzidan baxtni.
Irgʻitaman oʻrgimchak kabi
Bilagimga ilashgan vaqtini.

Xayolimga choʻkaman ogʻir,
Kuragimga savol botadi.
Tiz choʻkaman yurakka oxir
Va koʻksimdan tonglar otadi.

Qush tilida soʻzlar koʻzlarim,
Hovuchimga toʻladi isming.
Koʻzyoshimga inadi titroq,
Yoʻlga doʻnar savdoyi jismim...

Shunda gullar oynning nigohi,
Devorlarga zabon bitadi.
Va daraxtlar uyqu aralash
Koʻzlarimga kirib ketadi.
Har tun...

* * *

Yaxshiki, xotirang bor,
Unda sen baxtli –
Mendan ayamaysan shirin soʻzingni.
Va haddim sigʻadi har kuni tongda
suratingga kulib salom bergani...

Ovozing axtarib qolgan shu kunlarimda
moychechak ifori yoqadi menga.
balki bu ifordan yaralgandir
sening ovozing!?

Toshkent avaylaydi hatto meni ham,
Bagʻritosh deganlar biroz yolgʻonchi,
Axir, asrayapti bagʻrida seni...

Har kech tushlarimda yigʻlasam,
moychechak ifori taralar.
Baribir uygʻongim keladi tongda,
Sen mavjud Toshkentni koʻrgani...



**Shahnoza
ESHMIRZAYEVA**

1990-yili tugʻilgan.

“Oq qushlar qoʻshigʻi”, “Osmon bir dunyo”, “Qalbidagi samo” va “Maktub” nomli kitoblari nashr etilgan.

* * *

Maylimi?..

Maylimi

Yashasam uzo-oqda,
Qadaming yetmasa men tomon?
Va sira qilmasang bezovta,
Qaytmasang hech, toki bor jahon...

Maylimi,

Oʻchirsam xotirni,
Boqmasam sen ketgan makonga?
Baxt tilab yogʻilgan yomgʻirni
Qaytarib yuborsam osmonga?
Maylimi,
Koʻnglimga yutkazgan

Kunlarim umrimga joylansa?

Sen bilan baxtiyor oʻtkazgan
Soatlar ortiga aylansa?

Maylimi,

Hech kimsa tushunmas
Orzuim armonga qistasam?
Yoʻq, seni...
Unutish uchunmas,
Tanimay oʻtmoqni istasam?..
Maylimi?..

Uzoqda yashasam...

Koʻnglim bilan oʻynaysan xoʻp...

Oʻrtamizda togʻlar bordir...

Koʻchamdan bir oʻtsang ekan, tutib olsam, yor boʻl, desam,
Yo sandiqda oqsang ekan – tutib qolsam, yor boʻl, desam,
Baxtni topmoq qiyin boʻlsa,
Taqdir shunday oʻyin boʻlsa –
“Gartkam” deya oshiq otsam, yutib olsam, yor boʻl, desam...

Majnuntolning novdasidan suvga boqib, oʻtar umrim,
Tepabogʻning olmasiday suvda oqib oʻtar umrim.
Majnuntolday, koʻzyoshlarim daryolarga sim-sim toʻldi,
Tushlarimga kirgin, debon, sogʻinch-la tun koʻzni yumdim...


Yuragimda yaram bordir – qoʻllaringda tuzlar bordir,
Umrinning fasli bahordir, koʻzlaringda kuzlar bordir.
Oʻrtamizda biron nima yoʻq, deysan-u, koʻraman men –
Oʻrtamizda togʻlar bordir...
yoʻllar bordir...
qizlar bordir...

Qirqin qizga labin burgan osmonbegi shahzodasan,
Goh hurga soʻz otasan, goh osmonga yulduz otasan.
Koʻnglim bilan oʻynaysan xoʻp, rashking bilan qiynaysan koʻp,
Uvolimga qopketmasang... hech yoʻq gunohga botasan...

Makr-hiyla koʻchasini bir kunda ming bor kezaman,
Senga qoʻl choʻzgan umidlardan koʻkka yulduz chizaman.
Yana bir oz olov boʻlsa, hislarimga qalov boʻlsa,
Seni tutmoq uchun bir kun koʻchamdan bir oʻtkizaman!..



№9 2019 (340)



Nataniel GOTORN,
Amerika yozuvchisi

SOYABON OSTIDA

(Hikoya)

Qishning yomg'irli kunida issiq uyda o'tirish qanchalar rohat! Bunday farahbaxsh kunda eng yaxshi ermak – yo kitob o'qish – aytaylik, u turli sarguzashtlar to'g'risidagi biron-bir qiziq asar bo'la qolsin; yoki shundoqqina derazang yoniga chordona qurgancha tashqarini tomosha qilib o'tirish. Men buni necha martalab o'zimdada sinab ko'rganman, go'yoki yozuvchi bir parcha oq qog'ozini oldiga yoyadi-yu, qahrabodek so'zlarning billur tomchilari kabi sahifa betiga sehrlangandek birma-bir tomib tushishini o'z ko'zlari bilan ko'rib, hadsiz huzurlanadi. Sizga qadrdon xonaning tanish devorlari bo'ylab g'alati sharpalar izg'iy boshlaydi, ular negadir issiqqina pechning peshonasiga urilgudek bo'lib tentiydilar, bu biram g'alatiki! Xosxonamning sahni tor bo'lsa-da, lekin bag'ri judayam keng, hatto butun boshli ummonni, butun bir Arab sahrosini o'ziga jo etib yuborgudek, ana, sahroning uzun karvonlaridan qolgan, chuqur-chuqur iz tushgan shamolli qumlari, holdan toygan safarchi tuyalarning oftob tig'ida abjirona lo'killashlari kino tasmalaridek ko'z oldimdan bir-bir o'tadi. Qolaversa, bo'linmamning shifti ham unchalik baland emas, biroq u Markaziy Osiyo tog'larining cho'qqilari bilan bo'ylashgudek doim mag'rurona ko'krak kerib turadi. Qisqasi, turar joyimdan noligulik yerim yo'q. Bozor ham

bir qadam. Hadesa, qo'limni oyog'imga olib, u avtobusdan bunisiga yuguravermayman, bu tomondan xotirim jam. Ammo Yangi Angliya shaharchasining shunday osoyish ko'chalari-dan birida ham hamisha transport ot-ulovlari-ning ovozi aks-sado berib turadi, har yoqdan ularning guvillagan va chinqirgan tovushlari quloqni qomatga keltiradi. Oradan biroz vaqt o'tgach, bu lavhalar birin-ketin g'oyib bo'ladi, shaharchaga tun cho'kadi. Keyin mening ham botinimda xuddi tun singari tushkun, qorong'i, o'ksik bir kechinma qanotlana boshlaydi, u uchib-uchib bor ruhiyatimni o'z domiga tortadi, shunda men ko'ksimda potirlagan qushcham – qalbimni xotirjam qilish uchun, soat millari yotar mahalga zang chalishidan avval kun bo'yi xayolimni parmalagan ko'lankali tasavvurlarimni yoritib olish umidida ko'cha tomon yo'rg'alab ketaman. Xayolparast o'z xayollari ichida juda uzoq yashashi mumkindir, biroq butun qismatni sarobga boy berib qo'yish ham adolatdan bo'lmaydi.

Ketish oldidan, hurpaygan yomg'irpo'shim tugmalarini mahkam qilib qadarkanman, gumbazdek keng yoyiluvchi soyabonimni ham unutmadi, uni ko'tarishim hamon yomg'ir tomchilarining og'ir xo'rsiniqlarini eshitgandek bo'ldim. Nochorgina bo'sag'am ustida bir nafasga to'xtadim, o'sha yerdan xonam ichidagi eng qadrli joyim – otashnafas pech va uning biqinidagi oromijon kursimga mehr bilan nazar tashladim, bu kursi qanchadan-qancha shodlik

va dardlarimni men bilan birgalikda baham ko'rgandi. Hozir negadir son-sanoqsiz tomchilar qurshoviga tushishim bilan qo'rqinchli tasvirlar hadik-siragan tasavvurimni zumda o'z qa'riga tortib ketdi. Yo'q, men erkak kishiman, bunaqa ikir-chikirlar ta'sirida sirayam o'zimni yo'qotib qo'ymayman, hoziroq yana ortimga qaytib, sevikli kursichamga tirsaklarimni tiragancha, yaxshi ko'rgan kitoblarimdan birini varaqlagancha kunni kech qilish menga cho't emas. Ammo kurrayi zaminni bearmon kezib chiqqan jahongashtaning ham o'zi hali to'kis ishonmagan, hamon unga sirli-sehrli bo'lib ko'rinadigan nimalaridir, albatta, mavjud bo'ladi. Hatto kulbasi tomon eltuvchi so'qmoqchada qolgan so'nggi izlaridayam qandaydir qonmagan ishtiyoq, ajib olamga tashnalik hislari ufurib yotadi.

O'z-o'zimning o'ylashimcha, chorasiz inson tabiatida goho xavotirlar to'lgini-da mavjlanib turadi. Boshimni ko'tarib, ko'kka qaradim, ko'zim hech qanday osmonni ilg'amadi, uning o'rnida bo'g'ilgan, yorib bo'lsayam ich-ichiga kirib bo'lmaydigan zim-ziyolik dengizini payqadim. U shunday zimistonlik ediki, bamisoli jumlai jahon cheksiz motam qo'ynida azador, to'p-to'p bulutlar o'sha qazoga jafo chekib yum-yum yosh to'kayotgan qiyofadek edilar. Ularning ko'z yoshlari mening yonog'imga ham tomdi, nigohimni yerga qadadim, biroq tuproqda ham dardimga taskin berguvchi hech nimani topolmadim. Uzoqroq muyulishda xira chiroq miltillab turibdi, ammo uning ojiz shu'lasini ko'cha yuzini yoritishga yetib boryapti, xolos, hartugul oldimdagi yo'lakda qadamlarimni qanday xavf-

xatar kutayotganidan ogoh etib turishga qurbi yetyapti bechoraning. Yo'lim chetida loy aralash, isqirtlangan qor uyumi do'ppayib yotibdi, lekin ular martning so'nggi kunlarigacha yashashga qodir, chog'i. Uning ortida dilxastalik so'ziga o'xshab ketadigan, balchiq aralash qalin chang-to'zon qoplagan yana nimadir yoyilib ketgan. Aftidan, u rosayam chuqur, avvaliga to'pig'ing, keyin oyoqlaring, asta-sekin bo'yning botib boraveradi bu balchiq ichiga, o'shanda bu halokatni muyulishdagi ojiz chiroq ham namoyish etolmaydi, ammo ko'zlarim bilan uning bor dahshatini xayolan kuzatyapman. Bordi-yu, shunday ofat yuz berib qolsa, jonni o'pqon og'ziga shartta qurbon qilish yoki Yer tomon qo'l cho'zib, kurashish kerakmikin? Oh, Xudoyim! Tobora xiralashayotgan muyulish chirog'i kabi bu qadar aljirab ketmasam! Mana, qarshimdan yomg'ir ko'lob qilgan halqob chiqib qoldi. Sel shunchalik shiddat bilan quyganmikan, shunchalik ham ulkan ko'lmak bo'ladimi?! Shu payt xuddi bolalik chog'larimdagidek oyog'im ostidagi ko'lmak ustidan shartta bosib o'tgim, botinkamni shalabbo qilib, shimimning pochasini shilta ho'l qilgim keldi.

Bo'rondek betizgin o'ylarim domida qancha ko'p qolsam, o'shancha ko'p ular bilan yoqalashyapman go'yo. Qani, endi hayot manzaralari tomon olg'a bosamiz! Buning yorqin isboti sifatida yomg'ir tomchisini kaftingda tut, ko'lmak suv sachratgan loyni shiming etagida asrab qol, chap botinkangga ilashgan muz parchasini esa yulib tashlamay tur, aynan shu alpozda ko'chaning oxirigacha yurib boraver! Chorasiz chiroq bor kuchini to'plab, atro-

figa nurli doira hosil qildi hamda u burchakdan bu burchakka ko'z qisgancha g'alati yarqiray boshladi, men uni xuddi yo'limni yoritguvchi ajib mayoqqa o'xshatdim, biroq bu savobgo'y baribir bulutli qish oqshomida mayus tortgan ko'nglimni yoritolmasdi. Hatto ko'zlarinigizni qattiq yumib, izg'irin shiddatiga qarshi boraman desangiz ham, qahraton ayozi vujud-vujudingizni ayamay tilkalay boshlaydi. To'xtovsiz yomg'ir tomchilari naq sizning boshingiz ustidan qamchilab savalayotganga o'xshaydi. Shamolning siyrak tutuni ko'chaning har tarafidan menga tomon hamla qilishga shay bo'lib turgandek, nazarimda. Shuni payqadimki, ko'cha burchaklari bunday daydi shamollar uchun baayni mos, ular shunday yerlarni o'zlari uchun ermak qilib oladi. Ular bunda o'zlarining bor to'polon-u sho'xliklarini qilishga tayyor. Qarang, u yo'l yoqasidan qunishib o'tib borayotgan faqirgina bir ayolga qanday hamla qildi, bir changali bilan ayolning soyabonini tortib olishga chiransa, boshqasi bilan boyoqishning namiqqan paltosini yulib olishga jahd qilganday! Bir daqiqayam ko'z ochirgani qo'ymaydi-ya. Yaxshiyamki, xonimning sabr kosasi kattaroq ekan, har qancha jafolarini ko'tardi sho'rlik, shamol zo'rvonlari uni naq uchirib yuborgudek rosa jahl qilishdi-da.

Bu yerdan to'g'ri shaharcha markazi tomon

boshlovchi yo'lak ustiga o'tdim. Endi mutlaqo o'zga manzara istiqbolimga chiqardi. Butun yo'l bo'ylab oynasi naq yerga tekkudek qilib qurilgan qator do'konlar rastasi qad rostlab borar, ular yonma-yon qo'l ushlab turgan aka-ukalardek mamnun kulib sizni oldinga kuzatib qo'yardi. Oqshomgi yog'dular shu'lasida silliq asfalt yo'lak yanayam yarqiroq jilo sochar, yomg'ir yoqqanidan so'ng u yanayam silliqlashib, tozarib ketgan kabi ko'rinar edi. Go'yokim osmondan butun zaminga faqat nur yog'ilardi. Shunday manzaralar oqimida yana xayollarim pardek uchib-to'zg'irkan, o'z-o'zidan miyamga odamzod – o'lajak foniy, bir kunmas bir kun, albatta, dorilbaqoga rihlat etadi, ammo mana bu lahzalar – qor, nur, tomchilar, izg'irin, ho'l yomg'irpo'sh-u ivigan oyoq kiyim – bular ham oniy ehsonlar emasmikin, degan hushyorlik keldi. Hammadan ham bu lazzatni faqatgina darbadarlar his eta olsalar kerak, deb o'yladim, ular o'zlari bilan tanho yashovchi jonlar, g'amgin qish kechalarida yanayam o'z siyratlariga mahv bo'ladilar...

Ro'paramdan chehrasi va ovoziyam nihoyatda tanish bir kishi chiqib qoladi, bir-birimizni aniq eslay olmasak ham, do'stona salomlashdik:

– Qalaysan, og'ayni? Bekorchilikmi, deyman?

E-haa, bu anavi iste'fodagi dengiz kapitani edi-ku, sal bo'lmasa, xayolimdan faromush bo'lay debdi. Bir paytlar dengizning qaysar shiddatiga qarshi bor quvvatini ishga solib bo'lsayam o'z maqsadlariga erishgan matonatli zobit edi u. O'ziga o'xshagan jasur dengiz itlari ekipaji har safar unga hamroh bo'lardi. Navbatdagi tanishim yomg'irpo'shini shoshilganча yelkalari osha o'rab-chirmab olgan, goh shamol ta'qibidan qochib, goh yana jala ostida yugurgilab borayotgan o'rta yoshlardagi bir janob bo'ldi. U bilan gaplasholmadik. Boyoqish xuddi isitma ichida alahlaganча shafqatli birorta doktorni qidirib, yelib ketayotgan holi tang bemorga o'xshardi. Ba'zan yomg'ir zabtidan qochib, do'kon derazasi pinjiga kelib tiqilar, aftidan uning tabiatida bunaqa romantik ob-havoga sirayam hafsalasi yo'qdek edi.

Mana bu yerda esa endi juda ajoyib, ko'zni quvontiradigan go'zal manzara yuzaga chiqadi. Yosh yigit chiroyli qiz bilan birga, issiq paltolariga o'ranganча, ixcham soyabon bag'riga berkinib, yengil qadam tashlab borishadi. Qiz jajjigina, rezina etik kiyib olgan,



yigitchaning oyog'ida bo'lsa rosmana kirza etik, ko'rib havasing ketadi. Shashtlaridan ayonki, ular aniq biron-bir ziyofat yoki tantanadan qaytishmoqda, yengil taom bilan salqin ichimlik hidlari havoda anqib yuribdi. Birgina shu ikki yoshga izg'irin nafasi kor qilmay turibdi, ular hali-hamon bayram shukuhi ichida, yuzlari baxtdan gul-gul ochilganча, shodon ketib borishmoqda.

Ammo...Eh! Shu payt kutilmagan ko'ngilsizlik sodir bo'ldi. Ko'zlarini quvonch-u masrurlik pardasi qoplagan yoshlarning yo'lidan naq ko'ldek keladigan halqob ulkan to'g'ondek bo'lib chiqib qoldi. Bu shundoqqina ikki ko'cha orasidagi chorrahada – yo'lning ayni qoq o'rtasida hosil bo'lgan suvli jarlik edi. Sho'rlik sevishganlar! Shugina xavfdan ogoh bo'lganimda edi, darhol sizni boshqa ko'chaga jo'natib yuborgan bo'lardim-a! Hikoyamning yurakni eng ezadigan lavhasi shu bo'ldimi, deyman. Lekin yoshlar o'zlarini yo'qotib qo'yishmadi, dadil harakat qilib ketishdi, ular bir-birlarining qo'llaridan mahkam tutdilar-da, tobora kattayib borayotgan ko'lmak ustidan bir zarbada sakrab o'tdilar. Muhabbatdek isyonkor olov ko'ngilni yondirib turgan bunday chog'da, ishq-Wdan o't bo'lib turgan bu ikki qalbga qahraton-

ning keskir ayozi nima degan gap axir? Izg'irin endi ularning yuz va quloqlarini ko'kishtob qilib yuborgan, qizartirib, sovuqdan achishtirgan-u biroq ular xuddi kuchli g'animni yenggan qahramonlardek behad xursand va yanada baxtiyor edilar, ikkovlon o'z uylari tomon miso-li qushdek yengil uchib borishar edi.

Men ham yo'limda asta davom etarkanman, nur tushib turgan derazalar yonidan qalbim surgurga, umidga to'lib o'tsa, nogoh darpardalari zich yopilib, qoraygan darichalar oldida g'amga botganча turib qoldim. Shunday turfa ruhiyat va kayfiyat ichida darbadarona kezib borayapman. Endi qarshimdan eng og'ir ko'chalar-dan – boylar va g'ariblar istiqomat qiladigan go'shalar chiqib keladi. Bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi, ziddiyatli, yurakni bo'laklab-bo'laklab tashlaydigan achinarli lavhalar jonlanadi. Boylik va qashshoqlik aralashgan bu makonda fikrlarim avj bilan g'ujg'on o'ynay boshlaydi. Mana, ko'rimsiz deraza ortidan oddiy bir oila davrasining kechki dasturxonini namoyon bo'ladi, hammasi juda oddiy, odamlari oddiy, so'zlari, qarashlari oddiy. Ota-ona, bolalar, shamdondagi shamning omonatgina pirillab yonishi, pechdagi o'tinning qarsillagan tovushi, hatto bo'g'otga asta urilayotgan yomg'ir tomchilarigacha hammasi judayam oddiy. Axir bunday qishki yomg'irda issiqqina uyda o'tirish qanchalar rohat!

Uzoq vaqt adashgan qismatim kaftida aldangan yosh boladek giryon aylanaman, har devorga bosh urib o'zimni topib olgim, so'qqabosh va darveshona hayotimga tezroq xotima yasagim keladi. Yo Tangrim, noshukrlik qilmay, o'zing kechir! Shubha yo'qki, menga o'xshash daydilar yer yuzida anchagina bo'lsa kerak, axir odamlar bir-birlariga benihoya o'xshaydilar-ku! Ana, bema'ni raqobat jar solgan ko'chaning eng salobatli saroylaridan biri ro'paramda sillonib turibdi, yuzlab chiroqlardan koshonaning ko'zlari qamashadi, xuddi osmondagi jami yulduzlarni shu yerga joylab, bitta-bittalab qadab chiqqandek ko'rinadi. Eng ajablanarlisi, uning yon qo'shnisi omadi yurishmagan, qo'li yupqa bir xonadon sohiblari. Bular mutlaqo bir-biriga nomutanosib bo'lgan, past-u baland jamiyat bo'g'inlari, bular yuqori, ular esa, albatta, quyi tabaqa vakillari, biroq Ajal va Qayg'u nayzalari bu ikki tafovutni farqiga borib o'tirarmidi yoki mana bu mahobatli koshona ostonasidan ular uchib o'tolmaydigan bironta qonun-qoida yaratib qo'yilganmi?

Aslo, qazo va qayg'u hamma uchun barobar, ular hech kimga bo'yinsunmaydilar. Qiziq, bunday xayol ayni kezlarda dilimni ham qayg'ulantirar, ham qanoatlantirar edi. Boshiga og'ir ko'rgulik tushgan boyvachcha baxtdan shodumon va osoyish kambag'al hamsoyasiga xolis ko'yda bor dardini to'kib sololmaydimi?.. Albatta, to'kib soladi, chunki Dard insonlarni birlashtiradi!..

Yuzlarimni qor aralash yomg'ir ivitgan ho'l devor ustiga indamay bosib turdim-u, yuragimdagi dard torlarini tomchilar navosiga hamohang ravishda unsiz chalaverdim.

Bordi-yu, hozir yana yo'l yursam, ehtimol, tag'in yo'limdan adashib ketarman, yoki behalovat tun qo'ynida yo'q bo'lib ketarman. Olis-olisidagi mitti bir yulduz menga tomon sirli-sirli jilmayadi, qo'limni uzatib uni uzib olgim keladi. Butun tevaragim asror-u antiqa, hayrat-u hasratdan iboratdek bo'lib tuyuladi, go'yo har nafasimda hayotning eng go'zal lahzasini qo'llarimda ushlab turgandek bo'laveraman. Har yoqqa odamlar shoshib o'tadi, yo'lovchilar sovuqdan diydigan, joniqqan, ko'zlari uyquga tashna bo'lgan vaqt asrovchilari.

Birgina men hanuz shirin boda ichgan sarhushdek mast tentirayman. Nigohimga tanish kulbamning bo'sag'asida aybdordek bo'yin qisaman, horib-charchab ichkari kiraman. O'zimni parqu ko'rpam ustiga tappa tashlayman-u yana devor uzra izg'iyotgan soyalar o'yiniga muftalo bo'laman. Ana, bitta soya men tarafga judayam yaqin keladi, yuzini yuzimga ancha payt bosib turadi-yu, qo'lga fonus tutganча darhol qayoqlargadir ketib qoladi. Bilmadim, ehtimol, o'sha soya mening o'zimidirman. Lekin u juda g'alati, xuddi ichini og'u o'rtayotgandek jonsarak ahvolda meni tark etib qoladi. Balki u qorong'ilikda, qahratonda muztar bo'lib yurganlarga odil charog'bon bo'lish niyatida shahd qilib ketib qolgandir...

Ana shunday. Biz – bo'ronli va mudhish olam oralab, beorom tunda sarkash tentirovchilar, sadoqatimiz ziyosining quvvati yetguniga qadar, qayerda Nurlar makoni bo'lsa, o'sha tomon, albatta, yo'l topib borishdan hech qachon charchamaymiz. Qo'limizga soyabonimizni olamiz-u qorong'i tun og'ushiga qo'rqmay singib ketamiz.

Inglizchadan
Qandilat YUSUPOVA tarjimasida



Naima ANVAROVA

1998-yili tugʻilgan.

Respublika yosh ijodkorlarining

Zomin seminari ishtirokchisi.

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyush-

masi tomonidan “Birinci kitobim”

ruknida “Makka va hakka” nomli

sheʼriy toʻplami chop etilgan.

Sal qoldi “Qizil kitob” Bagʻriga olishiga

Opa-singil tortishuvi

– Iya, mening ayiqcham,
Izlab yurgandim uni.
Yana soʻramay olsang,
Aniq uraman seni.

Oʻtgan kun ham yoʻqoldi,
Shunda ham sen olganding.
– Urma, kecha tushimda,
Oʻzing sovgʻa qilganding.

Ulgʻayish

Opasining tuflisin
Kiyib Hanifa shodon.
Onasi der: – Darhol yech,
Yoʻqsa oʻzingga yomon.

– Jonga tegdi hammaning
Kichkinasan deyishi.
Hadeganda bahona
Topib, tinmay koyishi.

Shu boisdan opamning
Tuflisini kiyganman.
Endi koyiyvermayisiz,
Qarang, katta boʻlganman.

Nochorlik

Boʻri yotar och-nahor,
Oldida oʻynar quyon.
Bu holni koʻrib tulki.
Sababin soʻrab hayron.

– Ha, oshna nima boʻldi,
Yo, ogʻriyabtimi tish?
– Daydib qolibsan makkor,
Uyingda yoʻqmidi ish?

– Tinchlikmi, holing yomon,
– Haliyam qoldim omon.
Agar nafsni tiymasam,
Ovchilar qilar tamom.

Endi qoʻy boʻgʻizlasam,
Mergan qaytar ishiga.
Sal qoldi “Qizil kitob”
Bagʻriga olishiga.

Toʻqqiz raqami

– Toʻqqiz katta son emish,
Aslida u qarigan.
– Nega unday deysan, Xol,
Uni koʻplar tanigan.

– Yozsam, doim katakda
Bir chekkaga suyanib
Oʻzi zoʻrgʻa turadi,
Hassasiga tayanib.

